acquire. By speaking, a student may express their ideas, suggestions, opinions, and interests . Speaking also increases their awareness of the outside world. A worldwide language is especially English. But English is also thought to be hard to learn. Speaking requires a variety of abilities, including pronunciation, sentence structure (grammar), and vocabulary. The majority of EFL students find it challenging to enhance their English-speaking skills since they are used to using their mother tongue in everyday life, according to several



study findings. Speaking is also verbal language in spoken form. Many effective skill exercises fall short of expectations because the subject matter is inappropriate or the students are unfamiliar with the material .

Children's language skills in their development can be seen and assessed directly from the child's speaking ability in various social situations, because it is very possible that there are different ways and styles of speaking for different situations and interlocutors. The speaking skills referred to by the researcher are a language skill that develops in a child's life, which is only preceded by listening skills, and at that time the ability to speak or speak is learned . Many things are related to language development in children, especially with regard to language development in elementary school-age children which includes (1)

the nature of language development; (2) children's language development; (3) development of oral communication; (4) development of written communication; and (5) the development of reading and writing

Preschool childhood attracts linguists because the subject (child's speech) is linguistically versatile and interesting. According to linguist scientists, every fact about children's speech can be considered in at least two directions and must: 1) as temporary speech on the way to "adult language" (if we are talking about innovation Isa); 2) As an element of the child's autonomous language system, the child has a certain functional task within it.

A reliable psychological-linguistic justification of methodological issues of children's speech development is considered a characteristic of modern pedagogical research. These studies, carried out in the spirit of the best traditions of Russian pedagogy, will have a large factual material, determine the objective laws of the child's speech. Using the classification of F.A. Sokhin and O.S. Ushakov, the psychological-pedagogical research of children's speech can be divided into three directions: structural (formation of various structural levels of the language system: phonetic, lexical, grammatical levels), functional (formation of language acquisition skills in communicative activity ); cognitive (forming a simple understanding of language and speech phenomena).

The analysis of the phenomenon of "child's speech development" and the process of its management leads to the conclusion that pedagogues need to undergo special training to work in the field of speech development of preschool children.

Modern research on speech has a systematic approach, which is reflected in the study of the phenomenon of "many external and internal relations that exist as a single system" (B.F. Lomov). The speech-language system engages in many interactions, including the semantic information apparatus that translates meaning into words and is





intrinsically linked to human consciousness and emotions, psychophysical phenomena (i.e., brain activity, physical sounds the device that generates and receives and classifies them), means of communication and social communication are their main ones. First, let's turn to the concept of "speech". Analysis of general approaches to speech as an object of scientific research allows us to draw conclusions about the extreme complexity and versatility of this phenomenon, the study of which is extremely important for understanding all aspects of mental development. "Speech as a unique activity does not stand alongside other types of activity, it occupies a central place in the process of psychological development..." (A.N. Leontiev).

By comparing these approaches that describe the language from different points of view, it is possible to distinguish the general features of speech as an object of scientific study.

### **References**

1. Conversations about a foreign language lesson: for students of pedagogical institutes manual / Passov E.I., Kolova T.I., Volkova T.A., Dobronravova T.N., Voronova O.M., Krainova E.A. - L., "Education", - 1975.
2. Bim I.L. On the issue of the methodology of teaching foreign languages. // IYaSh.-1974.- No. 2.-S.19-32.
3. Volovin A.V. Foreign languages in British and American methodological systems Communicative approach to learning // Communicative approach to learning foreign languages approach: collection of articles. scientific. works, volume 275 - M., 1985.
4. Introduction to the communicative methodology of teaching English: Russian teachers guide to -Oxford University Press, 1997.





## ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ АКТИВЛАРИНИНГ РЕНТАБЕЛЛИГИНИ ОШИРИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ

Содиқжон Мамадиллаевич Зиёдуллаев

Термиз давлат университетининг мустақил изланувчиси

[ziyodullayevsodiqjon@mail.ru](mailto:ziyodullayevsodiqjon@mail.ru)

тел: +998902454747

**АННОТАЦИЯ:** Тижорат банклари активларининг рентабеллигига баҳо беришда активларнинг даромадлилик даражасига баҳо бериш муҳим ўрин тутади. Ўз навбатида, халқаро банк амалиётида тижорат банклари активларининг даромадлилигига баҳо беришда бир қанча методикалардан фойдаланилади. Биз ана шу методикалардан бир қанчасини кўриб чиқамиз.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** Тижорат банклари, активларнинг рентабеллик даражаси, даромадлилик даражаси, рейтинг, CAMELS, ризк, банк фойдаси, қимматли қофозлар.

Тижорат банклари активларининг рентабеллигига баҳо беришда активларнинг даромадлилик даражасига баҳо бериш муҳим ўрин тутади. Ўз навбатида, халқаро банк амалиётида тижорат банклари активларининг даромадлилигига баҳо беришда “CAMELS” рейтинг тизимидағи методикадан кенг фойдаланилади.

### 1-жадвал

#### “CAMELS” рейтинг тизимида тижорат банкларининг даромадлар бўйича рейтинги<sup>1</sup>

Рейтинг	Асосий мезонлар
1 – кучли	Даромадлар барқарор ва операцияларни амалга ошириш, капиталнинг етарлилигини таъминлаш ва захираларни шакллантириш учун, даромадларнинг сифати, миқдори ва динамикасига таъсир қилувчи активларнинг сифати, ўсиши ва бошқа омилларни ҳисобга олган ҳолда, етарлидир.
2 – қониқарли	Даромадлар қониқарли ҳисобланади. Улар операцияларни амалга ошириш, капиталнинг етарлилигини таъминлаш ва захираларни шакллантириш учун етарли. Аммо, банк

<sup>1</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.



	даромадларни қайд этилган омиллар таъсирида камайиш эҳтимоли мавжуд.
3 – ўрта	Даромадлар яхшиланиши керак ва улар операцияларни амалга ошириш, капиталнинг етарлилигини таъминлаш ва захираларни шакллантириш учун, даромадларнинг сифати, миқдори ва динамикасига таъсир қилувчи активларнинг сифати, ўсиши ва бошқа омилларни ҳисобга олган ҳолда, етарли эмас.
4 - чегаравий	Даромадлар етарли эмас, улар операцияларни амалга ошириш, капиталнинг етарлилигини таъминлаш ва захираларни шакллантиришни зарур даражада таъминлай олмайди. Рейтингнинг ушбу даражасини олган тижорат банклари учун фойда ва соф фоизли маржанинг бекарор тебраниши, сезиларли салбий тенденцияларнинг мавжудлиги, номинал ва бекарор даромадлар, даврий заарлар ва даромадларнинг олдинги йилларга нисбатан камайиши хос.
5 - қониқарсиз	Даромадлар етарли эмас. Тижорат банки сезиларли даражада заар кўраётганлиги сабабли капиталининг йўқотилиши юз бермоқда ва бунинг натижасида унинг молиявий барқарорлиги хавф остида қолмоқда.

1-жадвал маълумотларидан кўринадики, “CAMELS” рейтинг тизими доирасида банкларнинг даромадларини баҳолашда тижорат банкларига бешта рейтинг баҳоси берилмоқда. Бунда энг юқори рейтингга (1) эга бўлган банкларда даромадларнинг барқарорлиги ва уларни операцияларни амалга ошириш, капиталнинг етарлилигини таъминлаш ва захираларни шакллантириш учун етарлилиги асосий мезонлар сифатида олинмоқда.

Даромадлари бўйича қониқарсиз рейтингга (5) эга бўлган банкларда даромадлар етарли эмас ва қўрилаётган заарлар миқдори катта бўлганлиги сабабли капиталнинг камайиши юз беради.

**2-жадвал**






**Deutsche Bank да (Германия) соф фоизли даромад ва соф фойда  
миқдори, млн. евро<sup>2</sup>**

Кўрсаткичлар	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.
<b>Соф фоизли даромад</b>	13316	13749	11526	11125
<b>Соф фойда</b>	624	0	341	251

2-жадвал маълумотларидан кўринадики, Deutsche Bank да соф фоизли даромад миқдори 2019 йилда 2018 йилга нисбатан кўпайган. Аммо, 2021 йилда соф фоизли даромад миқдори 2020 йилга нисбатан сезиларли даражада камайган. Deutsche Bank да соф фойда миқдори 2019 йилда 2018 йилга нисбатан кескин камайган. Аммо, 2021 йилда соф фойда миқдори 2020 йилга нисбатан сезиларли даражада камайган.

Deutsche Bankда 2021 йилда 2020 йилга нисбатан соф фойда миқдорининг камайганлиги мазкур даврда соф фоизли даромад миқдорининг камайганлиги билан изоҳланади ва ушбу ҳолат банкнинг молиявий мустаҳкамлигини ошириш борасида салбий ҳолат ҳисобланади.

Таъкидлаш жоизки, Deutsche Bankда захира ажратмаларининг ҳақиқатдаги даражаси унинг меъёрий даражасидан (1,0%) паст эканлиги унинг молиявий барқарорлигига ижобий таъсир кўрсатади.



<sup>2</sup>Жадвал Annual Reports. Concololidated Balance Sheet. Concololidated Statement of income. [www.db.com](http://www.db.com) (Deutsche Bank) интернет-сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.




### 1-расм. Bank of Americада кредитларнинг даромадлилиги, фоизда<sup>3</sup>

1-расмда келтирилган маълумотлардан аниқ кўриш мумкинки, Bank of America томонидан саноат корхоналарига берилган кредитларнинг даромадлилиги 2017-2021 йилларда сезиларли даражада ўзгармасдан, барқарор даражада қолган. Масалан, 2021 йилда кредитларнинг даромадлилик даражаси 2020 йилга нисбатан сезиларсиз даражада, яъни 0,4 фоизли пунктга пасайган. 2020 йилда эса, кредитларнинг даромадлилик даражаси 2019 йилга нисбатан 0,5 фоизли пунктга ошган.

Таҳлил натижалари қўрсатдики, Bank of Americанинг лизинг шартномалари суммасининг умумий ҳажмида энг юқори салмоқни фойдаланиш хуқуки лизинги эгаллайди.

Шунингдек, Bank of Americанинг лизинг кредитлари ҳажмида ўзгарувчан лизинг кредитлари нисбатан кичик салмоқни эгаллайди.



### 2-расм. Дойчебанк (ГФР) ва Парибас банкда (Франция) саноат корхоналарига берилган кредитлардан кўриладиган заарларни қоплашга мўлжалланган захира ажратмаларининг даражаси, фоизда<sup>4</sup>

2-расм маълумотларидан кўринадики, Дойчебанқда 2017-2021 йилларда саноат корхоналарига берилган кредитлардан кўриладиган заарларни қоплашга мўлжалланган захира ажратмалари даражаси жуда паст бўлган. Фақат, 2020 йилда ушбу кўрсаткичнинг даражаси 2019 йилга нисбатан сезиларсиз даражада

<sup>3</sup> Расм муаллиф томонидан Bank of America банкининг 2017-2021 йиллар якуни бўйича эълон қилинган йиллик ҳисоботи маълумотлари асосида ([www.bankofamerica.com](http://www.bankofamerica.com)) тузилган.

<sup>4</sup> Расм муаллиф томонидан Дойчебанк ва Парибас банкнинг 2017-2021 йиллар якуни бўйича эълон қилинган молиявий ҳисоботлари маълумотлари асосида тузилган.



(0,2 ф.п.) ошган. Мазкур ҳолатлар кредит рискини бошқариш амалиётини такомиллаштириш нуқтаи-назаридан ижобий ҳолат ҳисобланади.

2-расм маълумотларидан аниқ кўриш мумкинки, Парибас банкда 2017-2021 йилларда саноат корхоналарига берилган кредитлардан кўриладиган заарларни қоплашга мўлжалланган захира ажратмалари даражаси жуда паст ва барқарор бўлган. Бу эса, кредит рискини бошқариш амалиётини такомиллаштириш нуқтаи-назаридан ижобий ҳолат ҳисобланади.

Таҳлил натижалари кўрсатдики, 2017-2021 йилларда Дойчебанк активларининг умумий ҳажмида кредитлар ва қимматли қофозларга қилинган инвестициялар юқори салмоқни эгаллайди. Бу эса, банкларни кредитлаш институти эканлиги ва қимматли қофозлар бозорининг фаол профессионал иштирокчиси эканлиги билан изоҳланади.

Тижорат банклари учун вақтингчалик бўш пул маблағларини Марказий банкнинг депозит ҳисобарқамларига жойлаштириш риск даражаси паст бўлган актив операция ҳисобланади. Чунки, Марказий банкнинг жалб қилинган депозитларни қайтара олмай қолиш эҳтимоли жуда паст. Аммо, миллий иқтисодиётни ривожлантиришда тижорат банкларининг ролини ошириш нуқтаи - назаридан мазкур депозитлар ҳажмининг ошиши салбий ҳолат ҳисобланади. Бунинг сабаби шундаки, тижорат банклари томонидан Марказий банкда депозит сифатида жойлаштириладиган пул маблағлари миқдорининг кўпайиши миллий иқтисодиётга банклар томонидан йўналтириладиган кредитлар миқдорининг ва хўжалик юритувчи субъектларнинг қимматли қофозларига қилинаётган инвестициялар миқдорининг камайишига олиб келади.

Таҳлил натижалари кўрсатдики, 2017-2021 йилларда Дойчебанк томонидан саноат корхоналарига берилган кредитларнинг даромадлилик даражасини ўсиш тенденцияси кузатилган. Бунинг устига, мазкур давр мобайнида кредитлардан кўриладиган заарларни қоплашга мўлжалланган захира ажратмаларининг брутто активларга нисбатан даражаси паст бўлган. Бу эса, таснифланган кредитлар таркибини яхши эканлигидан далолат беради. Бунинг сабаби шундаки, кредитлардан кўриладиган заарларни қоплашга мўлжалланган захира ажратмалари миқдорининг ортиши бевосита таснифланган кредитлар таркибида юз берадиган ўзгаришларга боғлиқ.

Тараққий этган мамлакатларда банк тизимиning ривожланганлиги иқтисодиётнинг реал сектори корхоналарининг молиялаштириш манбаларига бўлган талабларини қондириш имконини беради. Хусусан, банк тизимиning ривожланганлиги хўжалик юритувчи субъектларнинг кредитларга, шу жумладан



инвестицион кредитларга бўлган эҳтиёжларини қондириш имконини беради. Бироқ, хўжалик юритувчи субъектларнинг ўзи ҳам кредитни қайтара оладиган даражада тўловга қобилликка эга бўлиши зарур. Юқори ликвидли гаровга эга бўлиш дегани унинг тўловга қобил дегани эмас.

Қимматли қофозларга қилинган инвестициялар тижорат банкларининг муҳим даромад манбай бўлиш билан бирга, уларнинг ликвидлилигини таъминлашда ҳам муҳим ўрин тутади.

Корпоратив қимматли қофозларга ва ҳосилавий қимматли қофозларга қилинган инвестициялар тижорат банкларига катта миқдорда даромад келтирса, Ҳукуматнинг қимматли қофозларига қилинган инвестициялар тижорат банкларининг ликвидлилигини таъминлаш имконини беради.

Тараққий этган мамлакатларнинг тижорат банкларида саноат корхоналарини кредитлаш жараёнида юзага келадиган кредит рискларини бошқаришда асосий эътибор кредит рискларини хеджирлашга қаратилмоқда.

Ўз навбатида, кредит рискини хеджирлашда куйидаги усуллардан фойдаланилмоқда:

1. Кредитли дефолтли своп (credit default swap).
2. Кредитли дефолтли опцион (credit default option).
3. Кредитли спрэд опцион (credit spread option).
4. Ялпи даромадга своп (total return swap).
5. Кредитли ноталар (credit notes).

Тараққий этган мамлакатларнинг банк амалиётида замонавий портфель назарияси муаммоли кредитларни бошқариш амалиётига жорий қилинган. Натижада:

муаммоли кредитларнинг даражасини тавсифловчи кўрсаткичларнинг меъёрий даражаларини таъминлаш талаби банкларнинг Кредит сиёсатида мажбурий шарт сифатида белгилаб қўйилган;

кредитларнинг даромадлилик даражасини ўзгариши билан кредитлардан кўриладиган заарларни қоплашга мўлжалланган захира ажратмалари даражасининг ўзгариши ўртасидаги боғлиқликни ўз вақтида аниқлаш имконини берадиган моделлар жорий қилинган;

ҳар бир кредитлаш шакли бўйича юридик шахс мақомига эга бўлган мижозларнинг банк кредитидан фойдаланишнинг йўл қўйиш мумкин бўлган чегаравий даражаси белгилаб қўйилган.

Амалиётда, кредит муносабатларида юзага келаётган муаммолар кўрсатмоқдаки, мажбурият ижросини у ёки бу усули билан таъминланганлик



кредитор учун кредитни ундириш билан боғлиқ муаммо бартараф этилди, дегани эмас. Чунки, таъминланганлик тамойилига доир тадбирлар банклар томонидан қанчалик мукаммал амалга оширилган бўлмасин, мажбурият бажарилмаган ёки лозим даражада бажарилмаган тақдирда, банклар олдида мижоз таъминотига муносабат обьекти қиймати доирасида гаров обьектига нисбатан эгалик хуқуқини олишда муаммолар юзага келмоқда. Бу муаммолардан бири, мажбурият ижросини таъминотга қаратиш жараёнида суд қарорини олиш билан боғлиқ муаммодир. Бу жараён узоқ давом этиши, ортиқча оворагарчиликлар билан боғлиқ қўшимча харажатларнинг мавжудлиги билан муаммолар туғдирмоқда. Шунингдек, учинчи шахслар кафиллигини амалиётда қўллашда ҳам қатор муаммолар мавжуд.

### **3-жадвал**

#### **Bank of America банкида (АҚШ) брутто активлар ва регулятив капиталнинг рентабеллик даражалари<sup>5</sup>, фоизда**

<b>Кўрсаткичлар</b>	<b>2017 й.</b>	<b>2018 й.</b>	<b>2019 й.</b>	<b>2020 й.</b>	<b>2021 й.</b>
Брутто активлар рентабеллиги	0,8	1,2	1,1	0,6	1,0
Регулятив капитал рентабеллиги	6,8	10,6	10,4	6,6	11,8

3-жадвалда келтирилган маълумотлардан кўриш мумкинки, Bank of America банкида брутто активларнинг рентабеллиги 2021 йилда 2017 йилга нисбатан 0,2 фоизли пунктга ошгани ҳолда, регулятив капиталнинг рентабеллиги 5,0 фоизли пунктга ошди.

Bank of America банкида брутто активларнинг рентабеллигини 2021 йилда 2017 йилга нисбатан 0,2 фоизли пунктга ошганлиги қуйидаги сабаблар билан изоҳланади:

2021 йилда 2017 йилга нисбатан соф фойданинг ўсиш суръати 75,4 фоизни ташкил этгани ҳолда, брутто активларнинг ўсиш суръати 38,9 фоизни ташкил этди;

ушбу даврда банк томонидан берилган кредитларнинг ўсиш суръати нисбатан паст бўлди (4,3 %).

<sup>5</sup> Жадвал муаллиф томонидан [www.bankofamerica.com](http://www.bankofamerica.com) сайти (Annual Report. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021) маълумотлари асосида тузилган.



Bank of America банкида регулятив капиталнинг рентабеллигини 2021 йилда 2017 йилга нисбатан 0,2 фоизли пунктга ошганлиги қуйидаги сабаблар билан изоҳланади:

2021 йилда 2017 йилга нисбатан соф фойданинг ўсиш суръати 75,4 фоизни ташкил этгани ҳолда, регулятив капиталнинг ўсиш суръати атиги 1,1 фоизни ташкил этди;

мазкур даврда банк соф фойдасининг юқори ўсиш суръати, асосан, фоизсиз даромадларнинг ошиши ва фоизсиз харажатларнинг камайиши ҳисобига юз берди: 2021 йилда 2017 йилга нисбатан банкнинг фоизсиз даромадларининг микдори 9,0 фоизга ошгани ҳолда, фоизсиз харажатлар микдори 9,6 фоизга камайди.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.
2. Жадвал Annual Reports. Concolidated Balance Sheet. Concolidated Statement of income. [www.db.com](http://www.db.com) (Deutsche Bank) интернет-сайти маълумотлари.
3. Bank of America банкининг 2017-2021 йиллар якуни бўйича эълон қилинган йиллик ҳисботи маълумотлари ([www.bankofamerica.com](http://www.bankofamerica.com)).
4. Дойчебанк ва Парибас банкнинг 2017-2021 йиллар якуни бўйича эълон қилинган молиявий ҳисботлари маълумотлари.
5. [www.bankofamerica.com](http://www.bankofamerica.com) сайти (Annual Report. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021) маълумотлари.
6. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг 2020 йилдаги фаолияти тўғрисида ҳисбот//[www.cbu.uz](http://www.cbu.uz).



## ШУКУР ХОЛМИРЗАЕВ ЗУМРАДГА ОШИҚ БЎЛГАН(МИ?)

Сафаров Отабек Мухаммадиевич

Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети мустақил тадқиқотчиси

**Аннотация:** Ушбу мақолада Ўзбекистон халқ ёзувчиси Шукур Холмирзаевнинг адабий-танқидий қарашларининг ўзига хос жиҳатлари, уларни шакллантирган омиллар, ёзувчи адабий-эстетик дунёқарашининг етакчи белгилари тадқиқ этилган.

**Калит сўзлар:** Шукур Холмирзаев, Шукур Бурҳон, ёзувчининг адабий-танқидий қарашлари, Зумрад ва Қиммат, икки сандиқ, халқ оғзаки ижоди, ҳикоя, достон, ҳасбу ҳол, адабий қаҳрамон ва муаллиф уйғунлиги.

Умри давомида ўз устида тинимсиз изланиб, нафақат миллий ва жаҳон адабиётининг сара асарларини ўқиган, балки бадиий адабиётга доир саноқсиз илмий асарлар билан ҳам таниш бўлган Шукур Холмирзаев ўзига хос адабий-эстетик қарашлар тизимини шакллантирди. У бадиий асар яратибина қолмай, адабий жараёнга хос ҳодисаларнинг қонуниятларини синчковлик билан кузатиб борди. Шу аснода унинг ўнлаб илмий мақолалари, тақризлари, сўзбоши ва сўнгсўзлари, сухбатлари яратилди. Ушбу яратиқларида Ш. Холмирзаев адабиётнинг ўзига хос жиҳатлари, унинг тараққиётини таъминлаган омиллар, ҳикоя, қисса, роман каби насрий жанрлар ва уларнинг ривожланиш тамойиллари, бадиий тил, тасвир маҳорати, ёзувчининг ижтимоий рутбаси, адабий танқиднинг бадиий асарни тушунишдаги аҳамияти сингари масалалар ҳақида фикр юритган.

Шукур Холмирзаевнинг адабий-танқидий қарашлари шаклланишида муҳим ўрин тутувчи манбаларни, асосан, қуйидаги йўналишларга бўлиш мумкин:

1. Халқ оғзаки ижоди (эртак ва халқ қўшиқлари, ҳикоят, ривоят ва достонлар).
2. Замонавий ўзбек адабиёти намоёндалари мероси.
3. Дунё адабиёти вакиллари ижоди ва адабий қарашлари.
4. Замонавий ўзбек адабиётшунослиги намоёндалари тадқиқотлари.
5. Замонавий ўзбек маданияти вакиллари ҳаёти ва фаолияти.

Юқоридаги қайноқлар (манбалар) бўлажак санъаткорнинг оддий китобхондан тушуниб ва танлаб ўқийдиган ўқирман шаклланишига, ундан ўқиган асарларига бадиий-эстетик баҳо бера оладиган ойдин юзага келишига омил бўлган. Шу маънода мазкур манбаларни Шукур Холмирзаев деб аталмиш



бадиий ҳодисанинг таркиб топишида ҳал қилувчи аҳамият касб этди деб айтиш мумкин.

Шукур Холмирзаевнинг бутун ижодини қизил ип бўлиб кесиб ўтган манба, бу – халқ оғзаки ижодидир. Эртаклар, ривоят ва ҳикоятлар, матал ва мақоллар, достонлар адабнинг шахс сифатида шаклланишида ҳам, ўзига хос услубининг қарор топишида ҳам катта роль ўйнаган. Ёзувчининг қатор мақолалари, сұхбат ва интервьюларида ҳам бу фикрнинг исботи кўринади.

Аслида оғзаки адабиёт, айниқса, эртаклар инсон дунёни танишни бошлаш, оқ билан қорани ажратиш, эстетик идеаллар ҳақида бошланғич мулоҳаза юритиш имконини беради. Қолаверса, халқ оғзаки ижодига хос образлилик, таъсирчан тавсирий ифодалар болаларда ижодкорлик қобилияtlарининг шаклланишига ҳам хизмат қиласди. Чунки топишмоқ, эртак ва достонлар зуваласи энди қотаётган бола тафаккурида ўзгача – реал оламдан бойроқ, жозибалироқ, сирлироқ дунёга йўл очади. Ёш Шукур ҳам “Икки сандиқ”ни (кейинчалик “Зумрад ва Қиммат” номи билан машхур бўлган) шунчаки мутолаа қилмайди, балки эртак қаҳрамонлари дунёсида яшайди ва шу тариқа эзгуликнинг бир умрлик ошиғига айланади. Сұхбатларидан бирида “Илк севгингизни хотирлай оласизми?..” деган саволга адабнинг: “У Зумрад эди”, дея жавоб бериши бежиз эмас. Шукур Холмирзаев тасаввурида айни эртакдаги Зумрад образи эзгуликнинг, гўзалликнинг тимсоли сифатида гавдаланади: “Мен гузаримиз яқинидаги “Ибрат” мактабида ўқиётганимда – иккинчи синфда Турди деган бир боланинг қўлида юмшоқ муқовасида аждаҳо расми солинган, тагига “Икки сандиқ” деб ёзилган эртак китобчасини икки сўмга олган – илк ўқиган бадиий китобим ҳам шу эди ва унда ҳикоя қилинган воқеаларга батамом ишониб юрар эдим.

Ўша кезларда мен наинки бу афсонани – “бўлган воқеа” деб билардим, балки Зумрадни қишлоғимиз туташган тоғлар бағридаги арчазор ўрмонларда... бор, юрибди ҳозир ҳам, деб ишонардим” [3, В. 273].

Айни тасвирларни адабнинг ўсмиrlар ҳаётидан олинган “Ўн саккизга кирмаган ким бор” қиссасида ҳам учратамиз. Қаҳрамон Жамшид отасидан олган икки сўмга “Икки сандиқ” китобини харид қиласди ва боғ адогида, қип-қизил бўлиб пишган тоғолча тагида юзтубан ётиб ўқийди. Йигитча буткул эртакнинг асирига айланади. “Жамшид китобдан бошини кўтариб, атрофга қаради. Дараҳтлар. Осмон. Дараҳтлар орасидан тоқقا – узоқда ўтлаб юрган қорамол галаларидек арчазорга кўзи тушди-ю, бирдан жонланди, балки китобдаги воқеалар шу ўрмонда ўтгандир? Балки Зумрад ҳозир ҳам шу ўрмондадир?” [10, В. 27]



Демак, эртакларнинг оддий ўқувидан кўра ижодкорларга, хусусан, Шукур Холмирзаевга таъсири яна шуниси билан аҳамиятлики, ёзувчи эртак қаҳрамонларига ижодий ёндашади. Юқоридаги мисолда ҳам “ёзувчининг болалик тумори” (Олим Тошбоев таъбири) бўлган “Зумрад ва Қиммат” эртагидан адид ўз қаҳрамонлари характерини яратишда маънавий асос сифатида фойдалангани кўринади. Чунки қиссада Жамшид оққўнгил, содда, ишонувчан, беозор ва гўзалликка ошуфта қалб эгаси сифатида гавдаланадики, бу характер белгилари айнан “Икки сандик” қаҳрамонида мужассам эди.

Шукур Холмирзаев Зумрад образига ижодининг кейинги босқичларида яна мурожаат қилиб, уни турли талқинларда акс эттиришда давом этади. Хусусан, “Куёш-ку фалакда кезиб юрибди...” номли ҳаётнинг давомийлиги, инсон кўнглининг кенглиги, маънавий қадриятлар боқийлиги бадиий таҳлил қилинган ҳикояда Зумрадга дуч келамиз. Аввало шуни қайд этиш керакки, ушбу асарга ёзувчининг ўзи юқори баҳо бериб, ижодий такомилга эришган палласининг меваси эканини таъкидлайди: “Куёш-ку фалакда кезиб юрибди...” деган ҳикоямни эълон қилдим. Ҳикоя қаҳрамони шоир йигит. У қадриятларнинг вайрон бўлиши мангу қадриятларнинг оёқости бўлишига олиб келганини ҳазм қилолмайди, азобланади, оғир изтироблар чекади. Олисларга юз буриб кетади. Лекин охир-оқибатда яшаш лозимлигини англайди. Мана, табиат билан одамнинг муносабати. Бу менинг қуиилиб, **одам бўлган пайтимда ёзган ҳикоям**” [7] (таъкид бизники – О.С.). Яъни ҳикояда деталлар маҳорат билан қўлланади, тасвирлар тиниқ ва эсда қоларли, қаҳрамонларнинг ҳар бири ўзининг ҳаётий мантиғига эга.

“Бу ҳикоя – адибнинг ҳасбу холи, – деб ёзади адабиётшунос Олим Тошбоев. – Ёзувчи бу сафар ҳам мавзуни, ғояни ўзидан, қалбу тафаккуридан ўтказиб белгиланган” [3, В. 268]. Чиндан-да, ҳикоя қаҳрамони ижодкор Кудрат билан муаллиф Шукур Холмирзаевнинг уйғун жиҳатлари кўп. 1992 йилда – Ўзбекистон мустақилликка эришган, собиқ совет тузуми барҳам топган пайтда ёзилган ушбу ҳикояда умуман ижодкорларнинг ҳаётида рўй бераётган қийинчиликларнинг ички акс садоси – қалбларда кечеётган ғалаёнлар ишонарли тарзда акс эттирилади. “Еб, ичиб, борингки, туғдириб, ухлайдиганлар замони келгандай” тарзидаги аччиқ хулосага келган ҳикоя қаҳрамони дабдурустдан ҳаётидан маъни, яшашни давом эттиришга куч тополмай қолади. Ҳудди шу вақтда унинг ҳаётида чақмоқ чаққандай пайдо бўлган Зумрад эса уни яшашга қайтаради, ҳаётдан мазмун топишга ундейди.



Кўриняптики, олис ўтмишда ёш Шукурни гўзалликка, эзгуликка ҳаваслантирган, ошно қилган Зумрад умрининг етуклик палласида – ҳаёт синовларида толиққан вақтда маънавий қувват тимсолига айланади, яшашга рухлантиради.

Шукур Холмирзаев бадиий-эстетикасининг камол топишида халқ достонларининг ҳам аҳамияти бекиёс. Хусусан, “Алпомиш” достонига адаб ҳаётий ва ижодий фаолияти давомида бот-бот мурожаат қиласи. Адабиётшунос Олим Тошбоев тўғри таъкидлаганидек, “Шукур Холмирзаевни ёзувчи сифатида шакллантирган ва умрининг охиригача тутиб турган битта тиргак бор. У – умумтуркий адабиётнинг гўзал намуналаридан бири “Алпомиш” достонидир” [3, B. 172].

Адаб Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 13 январда қабул қилинган “Алпомиш” достони яратилганлигининг 1000 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги қарорини қувонч ва ғурур билан қарши олади. Шу муносабат билан ёзилган “Марҳабо, “Алпомиш!” мақоласи қисқа фурсатда, Ҳукумат қарори эълон қилинганидан атиги тўққиз кун ўтиб “Ёзувчи” газетасининг 21 январь сонида чоп этилади. Мана шу ҳозиржавоблик ҳам Шукур Холмирзаевнинг ўзбек миллий достонлари ва уларнинг адабий-ижтимоий ҳаётимизда тутган ўрнига ғоятда эътиборли бўлганидан далолат қиласи. Ёзувчининг фикрича, Алпомиш сиймоси халқимизнинг қон-қонига сингиб кетган, маънавий куч-қудрат манбаига айланган, шу сабабли унинг номи тилга олинганда ҳар бир ўзбекнинг қалби ғууруга тўлади.

“Марҳабо, Алпомиш!”да халқимизнинг бой достончилик анъаналарига эгалиги, мазкур достоннинг тарихимизда катта ўрин тутиши таъкидланади. Муаллиф мухтасар мақолада халқимизнинг эстетик идеалига хос хислатлар – мардлик, тантилик, ғурур туйғулари достонда теран акс этганига эътибор қаратади: “Достон бежизга “қаҳрамонлик эпоси” деб аталмайди: унда халқимизнинг мардлик, тантилик ва олийжаноблик ҳақидаги эзгу эътиқодлари энг кўп акс этган ва буни достондаги ҳар бир лавҳа қўрсатиб туради.

Мисол: Алпомиш чоҳда ётибди. Подшонинг қизи Тавқабека уни кутқариб олиш учун арқон ташлайди. Алпомиш арқонни ушлайди. Бека канизаклари ила уни тортиб чиқара бошлайди. Алпомиш зиндандан энди чиқдим деганда ўйлаб қолади: “Бир куни таъна қилмасми бу сулув? Сени чоҳдан чиқарган эдим, демасми?” У ханжарини шартта чиқариб, арқонни кесади... Бу қандай мардлик-а!” [4]



Ёзувчининг шахсий архивида “Алпомиш” ҳақида” номли тугалланмаган, “Фольклоршунос Жаббор Эшонқулнинг достон бўйича берган айрим саволларига жавоб” тарзида изоҳ берилган суҳбат қўлёзмаси сақланади. Мазкур суҳбат ҳам адібнинг халқ оғзаки ижодига, хусусан, “Алпомиш” достонига бўлган муносабатини янада ойдинлаштиради. Ёзувчи дастлаб ўзининг “халқ оғзаки ижоди ишқибози” эканига ургу беради. Характерли жиҳати шундаки, Шукур Холмирзаев оғзаки адабиётни умуммиллий маданиятимизнинг муҳим элементи, тўғрироғи, пойдевори деб билади. Хусусан, “Алпомиш” достони, адібнинг фикрига кўра, “тарихнинг, бемалол айтиш мумкинки, бадиий инъикосидир. Адабиётимизнинг эса – ибтидосидир, Маънавиятимизнинг сара сифатлари-дурдоналари жамланган бир хазинадир” [14].

Адаб, юқорида таъкидланганидек, халқ оғзаки ижоди намуналарини фақат ўқиши ва уларнинг бадииятидан завқланиш-таъсиrlаниш билан кифояланмайди, балки бу борада билганларини ўз ижодида қўллайди, образлар қиёфасини тўлақонли чизишка фойдаланади. Масалан, “Кузда баҳор ҳавоси” ҳикояси қаҳрамони Зумрад “Алпомиш” – бизнинг бору йўғимиз”, дейди (“Кузда баҳор ҳавоси” ҳикоясида ҳам Зумрад ёзувчига болалиқдан ҳамроҳ “Икки сандик” эртагининг олижаноб қаҳрамонига уйқаш образ сифатида гавдаланади. Ҳаёти пасту баландликлар аро кечган Тохир умри шомида ёлғизлиги сабабли маънавий имдодга муҳтоҷ бўлиб қолганида уни яшаш учун куч топишга, ҳаётдан завқланишга Зумрад ундейди. Ёзувчи “Қуёш-ку фалакда кезиб юрибди...” ҳикоясида Зумрадни иккинчи планда кўрсатиб, асосан унинг таъсиридаги Кудрат образини ҳаракатлантирган бўлса, “Кузда баҳор ҳавоси”даги Зумрад инсон умрининг мазмуни ҳақида фикр юритувчи, миллатнинг ўтмиши, бугуни ва тарихига баҳо берувчи зиёли ўлароқ тўлақонли образ сифатида жонланади). Бу эътироф шунчаки оддий достонхоннинг арzonбаҳо сўзлари эмас. Асарда Зумраднинг ўқимишли, миллий маданият тарихи, бугунги куни ҳақида фикр юрита оладиган даражада салоҳиятли зиёли инсон образи сифатида гавдалантирилганига эътибор қаратсак, ёзувчи унинг тилидан “Алпомиш” – бизнинг бору йўғимиз”, дер экан, буни миллий-маданий асос ўлароқ келтираётгани яққол англашилади.

Шу тариқа достонларни миллий ўзликни англаш воситаси сифатида билувчи муаллиф мазкур ғояни асарлари замирига ҳам сингдириб боради.

Ўзбек ҳикоячилигининг устунларидан бўлган Абдулла Қаҳҳорнинг ижодини ҳам, шахсиятини ҳам Шукур Холмирзаев ўзи учун ибрат намунаси деб билади. Тўғри, Ш.Холмирзаев айрим қаламкашлар каби бу улкан адига



хатолардан холи, идеал ижодкор деб қараган эмас, ўрни келганда танқид қилишдан ҳам тап тортмайди, бироқ барибир у Абдулла Қахҳорнинг ҳақиқатпарастлиги,adolатга ташналиги; ижодидаги ўзига хосликни эътироф этади. Шу боис ҳам Шукур Холмирзаев ҳеч иккиланмай: “Абдулла Қахҳорни йўқ деб, яъни ҳаётга келмаган, ҳикоялар ҳам битмаган, қиссалари, “Сароб” ҳам – бизнинг хаёл, деб кўзимни юмдим. Дунё қоронғи бўлиб қолди. Ўзим ҳам... йўқ бўлдим. Кўзимни очсан, у – қаршимда. Демак, ўзим ҳам борман” [5], дея унинг ўз ижодида тутган ўрнига катта баҳо беради. Шунингдек, Абдулла Қахҳорнинг “ижодда ҳалоллигу ҳаётда мардлик” фазилатлари ҳам, Шукур Холмирзаев наздида, ижодкорлар томонидан давом эттирилиши лозим хислатлардан эди.

Бундан ташқари, Абдулла Қодирий, Абдулҳамид Чўлпон, Сайд Аҳмад, Асқад Мухтор, Шухрат, Одил Ёқубов сингари ўзбек адибларининг адабиётга, ҳаётга бўлган ўзига хос муносабатини Шукур Холмирзаев мақола ва суҳбатларида ибрат сифатида келтириб ўтадики, бинобарин, мазкур адиблар ижодини ҳам унинг ёзувчи сифатида шаклланишига муайян даражада таъсир кўрсатган манбалар қаторида қайд этиш мумкин.

Шукур Холмирзаев миллий адабиётдан ташқари дунё сўз санъатининг энг сара намуналарини, ўз таъбири билан айтганда, “эзибички” қилиб юборади. Александр Пушкин, Михаил Шолохов, Чингиз Айтматов, Фридрих Ницше каби ижодкорларнинг сабоқлари Шукур Холмирзаев қарашлари шаклланишига турли даражада таъсир кўрсатади. Масалан, рус адабиётининг улуғ намоёндаси А.Пушкиннинг адабий мақолаларини қизиқиб мутолаа этаркан, уни муаллифнинг шакл ва услуб борасидаги новаторлиги ҳайратда қолдиради. Адабиётшунос Олим Тошбоев фикрича, “Ш.Холмирзаев Пушкин прозасининг муҳлисигина бўлиб қолмаган. Улуғ шоирнинг адабий-бадиий қарашлари билан ўзининг янгича наср яратиш борасидаги изланишлари ўртасида қандайдир руҳий яқинлик кўрган ва муҳлисона таъзимнинг тагзамини мана шу бўлса керак” [3, В. 198–199].

Бундан ташқари, Шукур Холмирзаев Робинранат Тагор, Лев Толстой, Жек Лондон, Эрнест Хемингуэй, Михаил Шолохов, Антон Чеховни айрича эҳтиром билан эслайди, уларнинг ижодига ўзгача назар ила қарайди. Бунинг асосий сабабларидан бири ёзувчи ўзини асосан ҳикоянавис деб санагани учун юқорида номлари келтирилган адибларнинг жаҳон ҳикоячилигига катта роль ўйнагани билан изоҳланса, иккинчи жиҳати, айни ижодкорларнинг ҳаётга, адабиётга муносабатида ўзига яқинлик туйганидандир.



Шукур Холмирзаевнинг ижодга доир қарашларига ижобий маънода ўзгариш ясаган шахслардан яна бири атоқли адаб Чингиз Айтматовдир. Ёзувчининг эслашича, Ч.Айтматов Тошкентга келганида у билан бевосита учрашган. Шунда дунёга машҳур ёзувчи ўзбек носирларининг тасвиirlаш маҳоратига эътиroz билдириб, “Сизлар жиндек совуққон бўлиб ёзинглар, совуқроқ ёзинглар. Жуда гажак қилиб юборманглар”, дейди. Шундан кейин Шукур Холмирзаев “Мен ёмон таъсирланганман”, деган таъкидни келтирадики, унинг ижодидаги холис тасвиirlаш тамойилининг юзага келиш илдизларидан бири сифатида мазкур таъсирни кўрсатиш мумкин.

Адабиётни қисмат деб билган Шукур Холмирзаев шу эътиқодидан келиб чиқкан ҳолда ҳеч иккиланмай “адабиётнинг ўсуви – миллатнинг ўсувига гаров ва миллат камолини кўрсатувчи ойина” тарзида ижтимоий-адабий аҳамиятга молик бўлган хulosага келади. Натижада адабиёт тақдирига ўзининг тақдири деб қарайди, унинг камчиликларидан қайғуриб, ютуқларидан қувонади. Эътиборли жиҳати шундаки, Шукур Холмирзаевнинг бу куюнчаклиги ҳам миллий адабиётни, ҳам жаҳон адабиётини тинимсиз мутолаа қилиш, улардаги янги йўналишларни мунтазам кузатиб бориши тарзида намоён бўлди. Яна шуниси диққатга сазоворки, адаб фақат бадиий адабиётни ўқиши билан чекланиб қолмади, айни пайтда адабиёт ҳақидаги илмий жамоатчиликнинг фикрларини ҳам кузатиб борди ва лозим топган ҳолларда ўзи бу борада муносабат билдириди.

Олдин таъкидланганидек, ёзувчининг адабий қарашлари шаклланишида адабиётшуносликка оид қарашлар тизими билан танишиш ҳам муҳим ўрин тутади. Зеро, Шукур Холмирзаев танқидчилик ҳақидаги асарларни ҳам синчковлик билан ўқиб боради. Бу борада унинг адабиёт ҳақидаги қарашларига таъсир қилган икки катта манбани кўрсатиш мумкин. Буларнинг биринчиси ўзбек адабиётшунослиги бўлса, иккинчиси рус ва хорижий адабиёт намоёндаларининг фикрлари эди. Жумладан, адаб ўзбек адабиётшуносларидан Сотти Ҳусайн, Норбой Худойберганов, Озод Шарафиддинов, Матёқуб Қўшжонов, Иброҳим Гафуров, Умарали Норматов, Қозоқбой Йўлдошев ва бошқаларнинг фикрларига, асарга ёндашиш тамойилларига турли-туман сабаблар туфайли ўрни-ўрни билан муносабат билдиради. Шукур Холмирзаев айниқса Матёқуб Қўшжоновнинг бевосита талабаси сифатида, шунингдек, унинг илмий тадқиқотлари орқали бадиий асар матнини таҳлил қилиш ва моҳиятини англашга доир ёндашувлари ўзига ижобий таъсир кўрсатганини миннатдор бўлиб эслайди. “Омадни қарангки, иккинчи курсга ўтганимизда М.Қўшжонов тўгарак ташкил қилдилар. У киши адабий маҳорат соҳасида мутахассис эдилар. Шу тўгаракка Эркин ака Воҳидов,



Иброҳим Ғафуров ва бошқалар қатнардилар. Ўша кезларда М.Қўшжоновни “Ўзбекнинг Белинскийси” деб аташарди. Тўгарак машғулотларининг бирида менинг “Куз ёмғири” деган ҳикоямни муҳокама қилишди. Ҳикоя домлага маъқул тушди... Домланинг бу гаплари менга гўё қанот бергандай бўлди. Тўгаракда жуда кўп нарса ўргандим”, деб таъкидлайди ёзувчи “Инсонни кашф этиш баҳти” сарлавҳали суҳбат-мақоласида. Шунингдек, Шукур Холмираев ва Матёқуб Қўшжонов муносабати, устоз адабиётшуноснинг ёш ёзувчи ҳаётида тутган катта ўрни ҳақида “У кишим – устоз, мен – шогирд” номли эсседа батафсил сўз юритилган.

Шукур Холмираевнинг адабий-эстетик диidi шаклланишида ҳақида сўз кетганда атоқли театр намоёндаси Шукур Бурҳонга алоҳида тўхталиб ўтиш жоиз. Ушбу санъаткорнинг ижодий ва ҳаётий принципларини Шукур Холмираев диққат билан ўрганади, ўгитлари моҳияти ҳақида фикр юритади. Энг муҳими, актёрнинг маслаҳатлари, саҳнавий, адабий фаолиятида амал қилган тутумлари Шукур Холмираевнинг ижодий мезонларига айланади.

Ўзбек театрининг улуғ намоёндаси Шукур Бурҳон фаолияти билан Шукур Холмираев бир муддат бевосита яқинланади. Бу яқинлик ёш адабнинг ҳаётида катта из қолдиради ва умрининг охирига қадар Шукур Бурҳонга бўлган юксак эҳтиромини сақлаб, унинг тимсолида санъатга фидойи, ўз ишига масъулиятли, саҳнани муқаддас билиб, ҳеч бир жиҳатни эсдан чиқармайдиган исонни кўради.

Шу ўринда Шукур Холмираевнинг саҳна маданиятига яқинлашуви тарихига тўхталиб ўтиш жоиз. Ўзининг айтишича, санъатга, театр соҳасига яқин инсонлар орасида улгайган, ўқувчилик йилларида мактаб доирасидаги тадбирларда кичик-кичик роллар ижро этган. Шукур Холмираев талабалик даврида ҳаваскорлар театри машғулотларига қатнайди. Бу тўгаракни Шукур Бурҳон бошқаради. Аввал Робинранат Тагорнинг асари асосида “Ҳалокат” романи асосида саҳналаштирилган спектаклда файласуф Нолинакха Чаттпатхая ролини ижро этган Шукур Холмираевга “санъат тахтидаги билтур ҳайкал” (ёзувчининг ўз таърифи) – Гамлет роли топширилади. Адабнинг санъат моҳиятини тушунишга бўлган урениши, умуман, инсонни англашга интилиши ички мураккабликларга тўла, ўзи билан ўзи курашларга бой бўлган Гамлет образини маҳорат билан ижро этишида муҳим омил бўлади. Ёзувчи айни образни саҳнада гавдалантириши ҳақида шундай эслайди: “Мендай ҳали йўловчилик тажрибасига эга бўлмаган, ҳали ушбу тоғ табиатини тўла билмаган, нечалаб хилват бурилишлар, хатарли сўқмоқлар борлигини ва улардан ўтишда нақадар эҳтиёткорлик зарурлигини қисман англаған кимсага ҳар қандай холис одам,



Горацио тили билан айтганда, “Йўғ-э, бу хаёлнинг келишмаган ўйини бўлади” деб ё бепарвогина, ё таажжуб билан гап қилиши турган гап эди. Мен ўзим ҳам бундай гапларни кўплаб такрорлаганман ва ҳали ҳам қайтараман. Энди бу тоғнинг ажойиботлари ҳақида сабоқ берувчи, машқ қилдирувчи бир устоз санъаткор – “географ” керак эди. Бу “географимиз” хурматли Шукур Бурхонов бўлди” [6].

Ўз ишининг устаси бўлган улуғ актёр ёш шогирдига саҳнада асқотадиган кўп ўгитлар беради. Қолаверса, ғоятда камтарин, содда, инсонпарвар бу инсоннинг турмуш тарзи, ҳаётий ақидалари ҳам Шукур Холмирзаевга таъсир қиласи [9].

Хурматли “географ”нинг ўгитлари адибга бир умр асқатди. “Укам, табиийлик ва соддалик чегарасидан чиқма. Ташқи кийиминг ўша йўловчининг либоси бўлса-ю, юрагинг бошқа бўлса, бундан аянчли нарса йўқ. Атрофдаги ҳар бир мавжудотга “Ўзи нима? Мақсади қандай?” каби саволларни кўндаланг қўйиб, уларнинг маъносини уқиб ол. Ҳар бир қадамингни фикр, фикр ва фикр билан боссанг, ҳамма нарса ўз-ўзидан чиқаверади”. Шукур Бурхоннинг бу ўгитлари ҳақида Шукур Холмирзаев чуқур мулоҳаза юритади. Бу кузатиш, аввало, ўйнаган ролининг ғоятда табиий чиқишига хизмат қиласи, қолаверса, адиб ушбу маслаҳатлардан ижоди учун ҳам фойдаланади. Қаҳрамонларининг табиийлигига, руҳи ҳам, энгил-боши ҳам бир-бирига тўлиқ мос бўлишига эътибор қиласи. Хуллас, устози ўргатганидек, саҳнада ҳар бир қадамини “фикр-фикр-фикр” билан босиши ҳадисини олган ёзувчининг асарлари ҳам табиий, содда эди. Албатта, бунга эришиш осон эмас. Ёзувчи кундалигида шундай қайд бор: “Нўймон Раҳимжонов (адабиётшунос олим, филология фанлари доктори – О.С.) айтди:

- Шукур aka, жуда енгил ёзасиз-а?
- О, бу жуда қийин, – дедим беихтиёр. – Ўзинг кўрган воқеаларни-ку **бир амаллаб (енгил) ёзасан**. Аммо кўрмаган воқеаларни кўрган (кўринган) ҳолига келтиргунча **ўлиб бўласан**” [8, В. 8] (таъкидлар бизники – О.С.).

Шукур Бурхоннинг тилга муносабати, умумий адабий тилни шакллантириш борасидаги ёндашувлари ҳам Шукур Холмирзаевга таъсир қиласи, дейиш мумкин. “Шукуржон, 30-йиллари биз адабий тилни норма қилдик. Чўлпондан ўргандик. У бизга адабий эмакдош эди. Режиссеримиз Маннон Уйғур эди. Шунда адабий тил шаклланган эди. Кейин шўронинг таъсирига ўтиб, русча гаплашадиган, шевада гапирадиган бўлдик. “Лекин”ни бир наманганлик “лекегин”, дейди. Бунаقا эмас-да”, деб Шукур Бурхон армон билан ўтиб кетди” [11]. Кўриняптики, ўзининг салкам эллик ижодий фаолияти давомида тил



соғлиги тамойилига қаттиқ риоя этган Шукур Холмирзаевнинг адабий тилга бўлган муносабати илдизлари жадидларнинг бу борадаги тутумларига бориб тақалади. Таассуфки, миллий санъатимиз дарғалари қанчалик умумий адабий тил меъёрларини шакллантиришга, ижодкорларнинг ушбу тамойилга риоя этиши йўлида жон куйдиришига қарамай, тилдаги нораволиклар ҳам айнан санъат соҳасида яққол намоён бўлди. Шукур Бурҳоннинг “армон билан ўтиб” кетгани ҳам шундан далолат бериб турибди. Хўш, улуғ актёр нималардан норози бўляпти? Унинг армонига сабаб нима? Саҳнавий асарларда қаҳрамонларнинг ташқи кўриниши ҳар қанча миллий бўлмасин, ички қиёфаси – рухида, тилида бегоналик, сунъий акс этадиган бўлиб қолди. Шу жиҳатдан адаб Тоҳир Маликнинг “Пойдевор” сарлавҳали мақоласидаги қўйидаги танқидий кузатишлари эътиборга молик: “Театрларга машқ пайтида кириб қолсангиз, бошингизни қайси деворга уриб ёришингизни билмайсиз. Ўзбек театрида ўзбекча асар саҳналаштириляпти. Бирдан режиссёрнинг овози янграйди: “Стоп, стоп! Что за ерунда! Он говорит “севаман”, понимаешь, Гуличка, “се-ва-ман!” значить любить. А, сенда не то. Давай, бошидан начали”. Ўзбек актёрига ўзбекча сўз шу зайлда тушунтирилади. Агар эътибор берган бўлсангиз, саҳнадаги актёрнинг гап оҳангি ўзбекча эмас, сўзлар бураб-бураб талаффуз қилинади. Баъзан саҳнада ўзбеклар эмас, ўзбекчани энди ўрганган инглизлар гапираётганга ўхшайди” [2].

Шукур Холмирзаевнинг адабий-танқидий фаолиятини кузатадиган бўлсак, адабнинг адабий диди вақт ўтиши билан шаклланиб, такомиллашиб борганини кўрамиз. Бу ўсиш адабиётнинг ҳам шакли-услубига, ҳам мазмун-мундарижасига муносабатда кўринади. Ёзувчининг янгиликка ташналиги, ижодий экспериментлар қилишдан чўчимагани, қолаверса, ўзи эътироф этганидек, дунё адабиётидан боҳабар бўлгани асарларининг баҳсу мунозаралар уйғотишига хизмат қилди. Эътиборли тарафи шундаки, унинг ижод моҳияти, услуг ва шакл борасидаги изланишлари адабиётшуносларнинг ҳам эътиборини тортади. Жумладан, олим Матёқуб Қўшжонов ёш ёзувчи ижодига баҳо берар экан, унинг доимий изланишда бўлганини алоҳида таъкидлайди [1, В. 355–363]. Эътиборлиси, Ш.Холмирзаев фақат ижод техникаси борасидаги билимларини мустаҳкамлаш учунгина изланмади, балки адабнинг инкишофлари инсонни, табиатни билиш, уларнинг ўртасидаги азалий узвий ришталарни ҳис этиш борасида эди. Натижада у адабиёт ҳақида қанчалик муҳаббат билан ўйласа, ёзса, тарих, маданият, мусиқа санъати, этнографияга шунчалик қизиқиб қаради. Шунинг учун ҳам умрининг сўнгги йилларида эссе ёзишга “берилиб” кетган



ёзувчи бу ҳолатни эссе жанрининг табиати – “эркинлиги” билан изоҳлайди: “Бу жанр (ессе – О.С.) ҳикоя, очерк жанридан жуда ёш бўлишига қарамай, ёзувчига беҳад кенг эркинликлар беради: яъни эссе ёзувчи адаб тасвирлаётган ёхуд баён этаётган воқеа-ҳодисага – яна ўша гап: инсон қисматининг маълум даври-бўлагига нисбатан ўз муносабатини (очерқдаги каби) очиқ-ошкор билдириб туриши баробарида (бу йўруғда) ўз кўнглида туғилган қандайдир ҳис-ҳаяжондан ҳам, ҳатто шахсий мuloҳазаларини ҳам бемалол ёзиш имконига эгадир. Демак, айтиш мумкинки, эссе жанри очерк билан ҳикоя ўртасидан ўсиб чиқсан жанратасвир усулидирки, у мақола-мақола илмий бўладими, бадиийроқ бўладими, барибир, – мақолага хос унсурлардан ҳам фойдаланади, тўғрироғи, уларни-да ўзиники қилиб олади” [13]. Ёзувчи эссе ҳақидаги фикрларини давом эттириб, айни жанрининг ижодкор учун янада қадрли бўлган жиҳатини шундай қайд этади: “Эссе ёзиш жараёнида одам кўп нарсани – ўзингнинг изланишларинг, адашишларингни топаркансан” [12]. Айни ёндашув ўлароқ ёзувчининг “Тақдир башорати” (1968), “Қадимий Бақтрия тупроғида” (1973), “Абдулла Қаҳҳорни эслаб...” (1986), “Одил ака ҳақида ўйласам...” (1996), “Шайдолик” (1996), “Ай, Шуҳрат акам-а...” (1997), “Йўллар айро тушди, аммо...” (1997), “Бинафша ҳидланг, амаки” (1998), “Бу кишим – устоз, мен шогирд” (2003–2004) сингари бир-биридан ўқишли, қизиқарли эсселари яратилди.

Маълум бўляптики, Шукур Холмирзаев ўзининг бадиий юксак новеллалари билан ўзбек ҳикоячилигини янги бир босқичга қўтаришга эришган, романларида инсонга бир хил ёндашиб бўлмаслигини, унга турли ракурсда қаралганда ва турли жиҳатлардан тасвирлангандахина одам тўлиқ бадиий тадқиқ этилиши мумкинлигини, драмаларида инсон, замон ва жамият муносабатларидаги чигаллик ва фожиаларни маҳорат билан кўрсатган; эсселарида миллий адабиёт, фан, маданият ва санъатимизнинг етук намояндлари ҳақидаги тасаввурларни янада бойитишга хизмат қилган бўлса, унинг адабий-танқидий мақолалари, сухбатлари, қайд ва кузатишлари, кундаликларида адабиётга, сўзга муносабати, ижодий тамойиллари, ҳаёт ҳақиқатидан бадиий ҳақиқат чиқариш бобидаги тўхтамлари, ижод жараёни ва бошқа муҳим масалалар ҳақидаги фикр-мулоҳазалари акс этади. Бу эса Шукур Холмирзаевнинг адабий-танқидий меросини чуқур ўрганиш ёзувчи ижодини яхлит ҳодиса сифатида англаш имконини бериши баробарида умуммиллий адабиётимизнинг ривожланиш хусусиятларини аниqlашга хизмат қиласи.





**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Қўшжонов М. Сайланма. II жилд. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. 355-363-бетлар.
2. Малик Тоҳир. Пойдевор//“Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1989 йил 11-сон.
3. Тошбоев О. Абадий замондош. Шукур Холмирзаев ҳаёти ва ижодий фаолиятидан лавҳалар. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. 273-б.
4. Холмирзаев Ш. “Марҳабо, “Алпомиш!” // Ёзувчи, 1999 йил, 21 январь.
5. Холмирзаев Ш. Абдулла Қаҳҳор сабоқлари//“Ўзбек тили ва адабиёти”, 1987. № 4.
6. Холмирзаев Ш. Билмадим, учдан бирига чиқаолдимми... // “Ўрта Осиё университети”, 1960 йил, 6 июль, №13.
7. Холмирзаев Ш. Инсонни кашф этиш баҳти//“Шарқ юлдузи”, 1993 йил, № 9.
8. Холмирзаев Ш. Қундаликлар. Адибнинг шахсий архивидан. Қўлёзма. 8-бет.
9. Холмирзаев Ш. Сайланма. IV жилд. –Т.: “Шарқ” НМАК, 2006.
10. Холмирзаев Ш. Ўн саккизга кирмаган ким бор. Қисса ва ҳикоялар. –Т.: Ёзувчи, 1999. 27-б.
11. Холмирзаев Ш. Фақат ўзлигимни англашим учун ёзаман... (Сұхбатдош – Шоира Дониёрова)//“Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 2000 йил 25 февраль.
12. Холмирзаев Ш. Ҳикояни соғиниб қолибман//“Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 2004 йил 1 январь.
13. Холмирзаев Ш. Эссе – эркин ижод (Сұхбатдош – Марҳабо Қўчқорова)//“Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 2003 йил 18 апрель, № 16.
14. Адибнинг шахсий архивидан.





## PRINCE OF POETS EDMUND SPENCER AND HIS LITERATURE ACTIVITY

Jalolova Lobarkhon Sunnatullo kizi

Student of Navoi state pedagogical institute

[jalolovalobarxon@gmail.com](mailto:jalolovalobarxon@gmail.com)

+998913376473

### ANNOTATION

The purpose of the article is to highlight the topic "Prince of Poets Edmund Spenser" and the role of the poet in English literature. Edmund Spenser achieved a good result in his era. And the first chapter of this coursework is dedicated to his life and education. Since the poet was not only a poet but also a state member, his life will be full of color.

### INTRODUCTION

In this work, in addition to the biography of the individual, to reason about creativity. The second chapter of this article demonstrates the analysis of the entire creativity. Starting with sonnets and books written by the poet. The purpose of this work is to analyze not only sonnets, but also the work and the attitude of critics to this person.

The theoretical value of this article gives an idea about the poet about his life, about his work, which is still popular in the world of English and world literature. in addition, this article demonstrates critical thinking about the poet and his work on the part of critics of English literature. The structure of the work. This course work consists of an introduction, 2 main chapters, a conclusion and a list of references (bibliography).

### Edmund Spencer and legend poems.

Edmund Spenser is, along with Chaucer, Shakespeare and Milton, one of the greatest English poets, leaving behind masterfully written works in every genre of poetry: from pastoral and elegy, to sonnets and huge epic. The poetic cult of beauty reigns supreme in his work, freely pouring out in sonorous stanzas, and in this respect Spencer has almost no rivals. How the poet Spencer received the highest epithets: "prince of poets", "archpoet of England", "our new Poet", "Poet of Poets"

Spencer's works are published in many countries of the world, there is a huge number of works devoted to his life and poetry, the International Spencer Society has been created. Since 1980, a special scientific journal began to appear, in which articles about Spencer and his works are published. "There is not a single English poet of that era," said R. Cummings about Spencer, "about whom more lengthy comments would be written".





So'ming emissiyasi jarayonida blokcheyn texnologiyasini qo'llash orqali milliy kriptovalyutani yaratish ham O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga molik bo'lishi mumkin. Chunki ushbu instrumentariy orqali O'zbekiston jahon kriptovalyutalar bozoriga kirib olib, iqtisodiyot rivojlanishi uchun kerakli bo'lgan moliyaviy resurslarga ega bo'lishi mumkin. Shuni aytish mumkinki, 2013 yil noyabridan boshlab, bitkoinning qiymati \$1000 dan oshdi, 2017 bahoriga kelib esa bitta virtual bitkoin uchun \$2500, kuziga kelib esa \$20000 bera boshlashdi. Ammo boshqa kriptovalyutalar ham o'sishda davom etmoqda. Masalan, bir Ethereum 2017 yil yanvaridan 2017 yil iyunigacha 30 barobar o'sdi va narxi \$250 ga yetdi. Bu o'sish bir qancha faktorlarga bog'liq. Masalan, 2017 yilda Yaponiya davlati xukumati bitkoinni to'lov vositasi sifatida tan olishdi va hozirda bu mamlakat fuqarolari ushbu kriptovalyutada bank hisob raqamlari ochishlari va undan foydalanishlari mumkin. Bitkoinning bu yetakchi rivojlangan mamlakatda qonuniylashtirilishi investorlar orasida katta qiziqish uyg'otmoqda, albatta. Masalan, 2017 yil may oyida ishga tushgan yapon kriptovalyuta birjasini Z.com talabgorlarning xaddan tashqari ko'pligidan ishini vaqtincha to'xtatib turishga majbur bo'ldi. Kriptovalyutalar narxining tezlik bilan oshib ketishi blokcheyn-ekotizimlarining rivojlanishi bilan ham bog'liqdir. Xususan, ICO mexanizmi (blokcheyndagi kraufunding) tizimlari borgan sari ommalashib bormoqda. Startap kompaniyalar keyinchalik rivojlanish maqsadlarida o'zlarining shaxsiy kriptovalyutalarini ham chiqarishlari mumkin. Investorlar esa bu kriptovalyutalarni sotib olib, startap muvaffaqiyatlari bo'lgan taqdirda yaxshigina foyda olishlari mumkin. Xozirgi kunlarda juda ko'p ICO lar tashkil etilmoqda va ular tomonidan jalg' etilgan moliyaviy resurslar miqdori bo'yicha yangidan-yangi rekordlar qo'yilmoqda. Masalan, Mozilla brauzerining avvalgi bosh direktori Brendan tomonidan tashkil etilgan Brave startapi ICO vositasida 30 sekund davomida \$35 mln mablag' yig'a oldi. Nega bizning vatanimizda bunday texnologiyalarga qiziqish unchalik katta emas? Chunki, birinchidan, bizdagi bank-moliya mutaxassislari yangi texnologiyalarga juda extiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladilar, ikkinchidan, ular tekshirilgan va uzoq muddat qo'llanilgan texnologiyalardan foydalanishni afzal ko'radir va uchinchidan, bank-moliya sohasidagi mutaxassislarning amaliy va nazariy tayyorgarligi raqamli texnologiyalar nuqtai-nazaridan yetarli darajada emas. Ammo Kipr, Yaponiya, Rossiya, Xitoy, Singapur, Germaniya, Kanada va AQSh davrlarları asta-sekin raqamli





elektron valyutalarga o'tishni rejalashtirishmoqda. Masalan, 2016 yiling boshida Xitoy Xalq banki kriptovalyutaga o'tish rejasini e'lon qildi va xozirgi kunlarda naqd pullarni asta sekin blokcheynlarga o'tkazish uchun kerakli bo'lgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xitoy mamlakati fuqarolari uchun bu ish hech qanday noqulaylik tug'dirmaydi, chunki bu tizimdan foydalanish xozirgi paytda foydalilaniladigan WeChat yoki Alipay tizimlaridan unchalik farq qilmaydi. Ammo bu o'zgarish biznes uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi, chunki bunda oradagi vositachilar yo'qoladi. 294 Uzbek milliy valyutasi – so'mni ham blokcheynga o'tkazish davlatga bir qancha muammolarni hal qilish imkonini berar edi. Shu jumladan:

- Joriy bank operatsiyalarining shaffofligini oshirish;
- Davlat sektori samaradorligini oshirish;
- Ikkilamchi va yashirin bank sektorini yo'q qilish;
- Davlat apparatidagi byurokratiyani yengish;
- Soliqlar to'lash jarayonini mukammallashtirish orqali, soliq to'lamaslik xolatlariga qarshi samarador kurashish;
- Elektron tijoratning rivojlanishiga yangiimkoniyatlar berish;
- Xalqaro valyuta-kredit resurslarini O'zbekiston iqtisodiyotiga keng jalb qilish;
- Moliya-kredit muassasalarining ishini yanada takomillashtirish va boshqalar.

Bunday xatti-harakatlarning muvaffaqiyatli ravishda rivojlanishi uchun mamlakatimizda to'rt xildagi yo'naliш taklif etish mumkin: Birinchi ssenariyda bit so'm muomalaga chiqarilishi mumkin. O'zbek milliy valyutasini blokcheynga va raqamli formatga o'tkazish unga bir qancha afzalliklar berishi mumkin, ammo bu holda bir qancha muammolarni qonunchilik asosida to'g'ri hal qilishga to'g'ri keladi. Masalan, ushbu blokcheynni kim boshqaradi va unga davlat maqomi beriladimi yoki u korporativ maqomga ega bo'ladimi? Bit so'm ichki va tashki bozorda qanday ishlatiladi va kim tomonidan nazorat qilinadi? - degan savollarga ham konkret javoblar topish lozim bo'ladi.

Ikkinchi yo'naliшda O'zbekistonda davlat blokcheyn tizimi tashkil qilinadi va u o'zida turli moliyaviy institutlarning funktsiyalarini qamrab oladi. Bunday institutlar jumlasiga banklar, depozitariylar, pensiya fondlari, soliq idoralari va boshqalarni kiritish mumkin. Bu amal soliq to'lash va mablag'larni fondlarga o'tkazish ishlarini avtomatlashtirish imkonini beradi.

Uchinchi imkoniyat esa kriptovalyutani alohida tashkilotlarda yoki hududlarda hayotga tadbiq qilinadi va bu sohada yetarlri tajriva 295 to'planganidan so'ng, bu ish respublika miqyosida amalga oshiriladi (masalan, O'zbekiston Respublikasidagi ochiq





iqtisodiy xududlarda yoki chet ellik mutaxassislar yordamida innovatsion korxonalarda). → Oxirgi, to'rtinchi imkoniyat esa Rossiyydagidek Markaziy bank tomonidan raqamli kriptovalyutalar bilan ishlashni amalga oshiradigan pilot loyihani ishga tushirishdir (mastercheyn loyihasi). Ushbu plarforma bozor ishtirokchilarining elektron usulda o'zaro ma'lumot almashinishi va blokchenlarda identifikatsiya qilinishiuchun mo'ljallangandir. Bu tizim asta sekin, kritpotajriba oshib borgan sari bir qancha davlat interaktiv xizmatlarining ham blokcheynga o'tkazilishini ta'minlashi mumkin. Respublikamizda kriptovalyuta bo'yicha malakali mutaxassislarning juda kamligi va bu sohadagi tajriba ozligini hisobga olgan tarzda bu yo'nalishda malakali mutaxassislardan tayyorlashni ham amalga oshirish zamona talabi bo'lib qolmoqda. Lekin blokchyen texnologiyalarni hayotga tadbiq qilish va o'zbek kriptovalyutasini chiqarich innovatsion g'oyasini qadam ba qadam amalga oshirish hozirdanoq boshlab yo'lga qo'yilishi kerak bo'lgan hayot taqozosidir. Chunki dunyodagi ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar o'zlarining milliy yoki korporativ kriptovalyuta loyihalarini amalga oshimoqdalar va ular keyinchalik barcha raqamli kriptopullarga egalik qilib, boshqa mamlakatlarni bu jarayondan siqib chiqarishga harakat qiladilar. Davlatning monetar siyosatidagi eng muhim amallardan biri pul emissiyasini nazorat qilish bo'lgani uchun, kriptovalyutadan voz kechish kelajakda mamlakatdagi moliya-kredit tizimini va uning jahon moliya kredit tizimi bilan aloqalarini sezilarli ravishda izdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

Jeremy Clark. Bitcoin, blockchain, cryptocurrency, cryptology (A detailed and technical study of Bitcoin, blockchain, cryptocurrency, and cryptology); 499 ctp. 2016

Jacob William. Blockchain: The Simple Guide To Everything You Need To Know. 2016, 69 pages.

[www.wikipedia.ru](http://www.wikipedia.ru) – veb sayti

[www.alpari.com](http://www.alpari.com) – xalqaro miqyosdagi moliyaviy kompaniya sayti

[www.coinspot.io/analysis](http://www.coinspot.io/analysis) – veb sayti

[www.springer.com](http://www.springer.com) – veb sayti

<https://bitcoin.org> – Bitkoinning rasmiy sayti

[https://bitcoin.org/files/bitcoin-paper/bitcoin\\_ru.pdf](https://bitcoin.org/files/bitcoin-paper/bitcoin_ru.pdf)-Satoshi Nakamotonig original maqolasi

<http://bitnovosti.com> – Bitkoin yangilik



## **БЎЛАЖАК ТИББИЙ ТАЪЛИМ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ**

**Хайитова Ш.Д – СамДТУ “Педагогика-психология”**

**кафедраси в.б., доценти**

**Нормуродов С - СамДТУ 4-курс талабаси**

Мамлакатимизда Олий таълим муассасаларида ўкув жараёнига кредит-модуль тизимиning жорий этилиши ўз навбатида талабаларнинг мустақил ишлашига, талабаларда академик мобилликка эга бўлиш имкониятини яратмоқда. Ахборот коммуникациялари орқали муҳандисларнинг лойиҳалаш компетенцияларини ривожлантиришда график дастурий воситалари ёрдамида фазовий тасаввурни ривожлантириш, моделлаштириш, лойиҳалаш ишларини амалиётга кенг кўламда жорий этишга катта эътибор берилмоқда.

Талабаларда мустақил ишлаш методик компетентликни шакллантиришнинг мақсади касбий ва шахсий ривожланиш жараёнида талабанинг ўз-ўзини англаш, баҳолаш ва бошқариш каби таркибий қисмларни ривожлантириш ва турли таълим муассасаларида ишлашга тайёрлаш саналсада, умумкасбий ва ихтисослик фанлари асосларини ўрганиш вазифалари қуидагилардан иборат бўлиши лозим:

- аниқ педагогик ҳамда ишлаб чиқариш муаммоли вазиятларда масалани ажратиб олиш ва уларни ҳал қилиш усули сифатида педагогик ва техник-технологик тафаккурни ривожлантириш;
- бўлажак тиббий таълим ўқитувчисининг педагогик-шахсий фаолияти асоси сифатида педагогик, умумкасбий ва ихтисосликка оид билимларни ўзлаштиришга нисбатан ижобий муносабатда бўлишга эришиш;
- бўлажак касбий фаолият индивидуал методининг асоси сифатида, ўкув-педагогик ва ишлаб чиқариш ҳаракатларининг репродуктив ва ижодий усулларини шакллантириш;
- муҳим касбий-педагогик сифатларини ривожлантириш (ҳамдардлик, болалани севиш ва бошқалар), касбий ва шахсий ўз-ўзини ривожлантириш эҳтиёжини юзага келтириш ҳисобланади.

Илмий манбаларда педагогик кадрларни тайёрлаш ва малакасини оширишнинг таълимий қадриятлари гурухида ўз-ўзини такомиллаштиришнинг омиллари - ўз-ўзини такомиллаштиришга янгича ёндашув, мустақил таълим олиш, мустақил билим олиш, шахсий қобилияtlарни намоён эта олиш, ижтимоий-касбий мустақиллик, мустақил билим олиш стратегияси,



режалаштириш ва ўзини бошқариш, ўзини тарбиялаш, ўзини ўзи касбий-шахсий жиҳатдан такомиллаштириш, мустақил билим олиш манбалари, шакли, метод, усул ва воситалари, уларнинг турли-туманлиги, улардан самарали фойдаланиш ва хоказолар ҳисобланади.

Таълим жараёнида тиббий таълим ўқитувчилари мустақил таълим орқали қўйидаги вазифаларни белгилаб олиши лозим:

- мустақил таълим олиш;
- янги билимларни мустақил тарзда пухта ўзлаштириш кўникмаларига эга бўлиш;
- керакли маълумотларни излаб топиш, қулай усул ва воситаларни аниқлаш;
- ахборот манбалари ва манзилларидан самарали фойдаланиш;
- анъанавий ўқув ва илмий адабиётлар, меъёрий ҳужжатлар билан ишлаш;
- электрон ўқув адабиётлар ва маълумотлар банки билан ишлаш;
- интернет тармоғидан мақсадли фойдаланиш;
- ўз фаолиятини инновацион ёндашув асосида ташкил қилиш кўникмасини эгаллаш;
- умумий ва хусусий компетенцияларни эгаллашга йуналтирилганлик.

Ўқув жараёнида мустақил таълимни ташкил этишда талабаларнинг назарий ва амалий тайёргарлик даражасини ҳисобга олган ҳолда қўйидаги шакллардан фойдаланиш мумкин: фаннинг айрим мавзуларини ўқув адабиётлари ёрдамида мустақил ўзлаштириш, ўқув манбалари билан ишлаш;(битирув) малакавий иши учун материаллар тўплаш;амалиётдаги мавжуд муаммонинг ечимини топиш, тест, мунозарали саволлар ва топшириқлар тайёрлаш; илмий мақола, тезис ва маъруза тайёрлаш; тавсия қилинган адабиётларни ўрганиш ва таҳлил этиш; фанни ўқитишдаги инновациялар, педагогик технологиялар ҳамда илфор хорижий тажрибаларни ўрганиш ва бошқалар.

Талабаларида мустақил таълимни самарали ташкил этишда:

- тизимли ёндашиш;
- барча босқичларини мувофиқлаштириш ва узвийлаштириш;
- ташкил этиш ва назорат қилиш механизmlарини такомиллаштириб бориш зарур.

Талабаларининг мустақил таълим жараёни инновацион ёндашувга кўра такомиллаштириб борилган ахборот-услубий таъминотга асосланиши лозим.

Талабаларининг мустақил таълимлаш натижасида-меъёрий ҳужжатларни



ўрганиш ва улар асосида таълим-тарбия жараёнини ташкил этиш, педагогик жараёнларнинг ўзаро боғлиқлигини таъминлаш, сифат ва самарадорлигини оширишга тизимли ёндашувни жорий этиш, талабаларнинг ўкув фаолиятини такомиллаштириш, талабалар учун зарур ва қулай бўлган таълим муҳитини вужудга келтирувчи ахборотларни тўплаш, таълим тарбия жараёнини ташкил этишнинг инновацион моделларини ишлаб чиқиш каби самарали натижаларга эришилади.

XX асрнинг сўнгги ўн йиллигига жамият томонидан олинган плюрализм, фалсафий ва мафкуравий йўналишларнинг кенглиги фалсафий ва методологик тушунчаларнинг хилма-хиллигини аниқлади, бунинг асосида умумкасбий ва тиббий таълимнинг диверсификацияси содир бўлди.

Бу босқичнинг асосий хусусиятлари-шахсга йўналтирилган ўқитишининг концептуал асосларини, касбий тайёргарлик сифатини оширишга емас, балки талабаларнинг ижодий ўз-ўзини фаоллаштириши, ўз-ўзини аниқлаш ва ўз-ўзини тарбиялаш қобилиятини ривожлантиришга қаратилган янги педагогик технологияларни ишлаб чиқиш. Бу жараёнда талабаларнинг мустақил таълимларига муҳим ўрин берилди.

Умумкасбий фанларни ўрганишда талабаларнинг мустақил таълимларини фаоллаштириш концептуал моделини қуришда биз педагогик моделлаштириш тамойилларига амал қиласиз - булар илмий тадқиқотни амалга оширишда тадқиқотчининг қуидаги асосий ғоялариdir: педагогик моделлаштириш-педагогик категориялардан бири; у таникли педагогик мунтазамликка асосланган ва педагогик муаммоларнинг муайян синфини ҳал қилишнинг енг умумий стратегиясини тавсифловчи асосий меъёрий қоидадир. У педагогик назарияни ривожлантириш учун тизим шакллантирувчи омил сифатида ҳам, унинг самарадорлигини ошириш мақсадида педагогик амалиётни узлуксиз такомиллаштириш мезони сифатида ҳам хизмат қилади.

Концептуал моделни яратиш тамойиллари келажакдаги мутахассиснинг ҳаракатлари контекстида кўриб чиқилади, бу “анъанага қўра ва моҳиятан педагогика фанининг мазмуни ва вазифаларига мос келиши керак, педагогика фаолият билан шуғулланади ва охир-оқибат таълимни қандай қуриш, амалга ошириш ва такомиллаштириш ҳақида норматив билимларни берди”.

Педагогик тамойилларнинг вазифалари турлича. В.С.Безрукова функцияларни қуидаги педагогик тамойилларга тақсимлади:

- биринчидан, уларнинг батафсил ва информацион мақсадлари билан одатда ихчам, ихчам шаклда ифодаланади....



- иккинчидан, педагогик жараённи қуриш учун қўлланиладиган тамойиллар, яъни мазмун, метод, восита, шакл ва улар ўртасидаги муносабатларни танлаш....;
- учинчидан, принциплардан таълим муносабатларининг самарадорлиги мезонлари сифатида фойдаланилади, уларнинг иштирокчилари ривожланишини таъминлайди ...;
- тўртинчидан, улардан педагогик жараённинг ўзини ривожлантиришда қонуният сифатида фойдаланилади”.

Тамойилларини танлашда, биз қуйидаги омилларга таянамиз:

- объективлик - ҳар бир тамойил объектив мавжуд педагогик воқелик асосида шакллантирилиши лозим;
- йўналтириш-тамойилнинг муайян синф педагогик зиддиятларни ҳал етишга йўналтирилиши, педагогик вазифаларни ҳал етиш, педагогик фаолиятнинг умумий стратегиясини шакллантириш;
- тизим-ҳар бир тамойил педагогик тизимнинг барча таркибий қисмларига (унинг мақсадлари, мазмуни, воситалари, ўқитиш усуллари ва шаклларига нисбатан анча аниқ талаблар қўйиши керак);
- аспект-янги шакллантирилган тамойил янги ёндашувларни, ўкув жараёнини такомиллаштиришнинг янги имкониятларини очиб бериши керак;
- ҳар бир тамойилнинг амалга оширилиши умуман таълим тизими самарадорлигини сезиларли даражада ошириши лозим.

Умумкасбий фанларни ўрганишда талабаларнинг мустақил таълимларини фаоллаштириш моделлаштириш тамойиллари сифатида узвийлик, ривожланиш ва қасбий компетентликнинг қуйидаги жиҳатларини аниқланди, узлуксизлик тамойили олий қасбий таълим тизимининг етакчи тамойилларидан биридир. Бизнинг алоҳида ҳоллар учун-мустақил таълимлашни фаоллаштириш учун концептуал моделлар қуриш, узлуксиз таълимнинг турли босқичларида таълим муаммоларни ҳал килиш, мақсадларни белгилаш орқали ўқитишиш усул ва шаклларини ўз ўрнига қўйиши орқали амалга ошириш мустақил таълимларни ташкил этишда муҳим аҳамиятга эга.

Узлуксизлик тамойили, бизга маълумки, педагогика фанининг турли соҳаларида тадқиқот предмети ҳисобланади.

Ю.А.Кустов олий таълимда педагогик ҳаракатнинг узлуксизлигини ҳисобга олиб, XX асрнинг ўрталаридан бошлаб ўқитишида узлуксизлик тамойилининг моҳиятини ретроспектив тавсифлаб берди. В.Г.Ананиев (1953)



ёзишича, “ўқитишинг узлуксизлиги — асосий фанларни ўрганиш жараённада талабалар билимлари тизимининг вақт эволюциясидир”.

Ю.А.Кустов қайд етишича, педагогик жараённинг узлуксизлиги ва яхлитлигини таъминлаш зарурати, унинг натижалари ва фойдаси бўлмаган ҳолатлар ўртасидаги зиддиятларни ҳал қилиш ҳисобланади. Узлуксизлик тамоили ўқув материали мазмунининг тузилишини қайта қуриш ва ўқув жараённинг чизиқли-дискрет табиати зиддиятларини бартараф етишга қаратилган ўқитиш усусларини оптималлаштириш қонуниятларини акс еттирувчи дидактика категорияси бўлиб, бу қонуниятларни таълим, ривожланиш ва таълим мақсадларига қараб амалга ошириш йўлларининг ўзгаришини характерлайди”.

Умуман олганда, талабаларни педагогик мустақил билим олишга тайёрлашнинг асосий мақсади - уларда ушбу таълимда чукур англаб етилган қизиқиш, талаб ва маҳоратларини, кўникма ва қобилияtlарни педагогик маданиятни такомиллаштиришга йўналтириш омили сифатида шакллантиришдан иборат.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Daniyarovna H. S., Istamovich K. D., Ilhom U. The Contents of Students' Independent Education and Methods of Implementation //Psychology and Education Journal. – 2021. – Т. 58. – №. 2. – С. 1445-1456.. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-tizimi-samaradorligini-oshirishda-musta-il-talimning-rni> (дата обращения: 03.02.2022).
2. Шахноза Хайитова ТАЪЛИМ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎРНИ // Academic research in educational sciences. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-tizimi-samaradorligini-oshirishda-musta-il-talimning-rni> (дата обращения: 03.02.2022).
3. Daniyarovna, Hayitova Shakhnoza. "The Main Features of Organizing Students' Independent Work in The Educational Process." *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE* 2.2 (2021): 16-21.
4. Хайитова Ш. Д. и др. Талабалар Мустақил Таълим Олишини Фаоллаштириш Бугунги Давр Талаби //Таълим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 153-158.
5. Хайитова Ш. Д., Розикова Л. Т. Талабалар Мустақил Таълимни Фаоллаштиришда Ахборот Технологиянинг Ўрни //Таълим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 162-167.





6. Хайитова III. ТАЪЛИМ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎРНИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 1478-1486.
7. Hayitova S. D., Abdulhayev I. A. O. Ta'lim muassasalarida va o'zbek oilalarida bolalar ma'naviyatini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 796-802.
8. Hayitova S. D. THE LEVELS OF STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING ACTIVITIES AND THE WAYS TO IMPROVE WORKING INDEPENDENTLY //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2022. – Т. 2022. – №. 2. – С. 136-149.
9. Daniyarovna, H. S. (2022). Mechanisms to activate student independent learning. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 293-296.
10. Daniyarovna, H. S. (2022). The importance of independent learning in improving the quality of teaching. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 308-316.
11. Хайитова, Ш. (2022). Bolalar kitobxonligini rivojlantirishda oila va mahallaning o'rni. *Общество и инновации*, 3(4/S), 332-337.
12. Daniyarovna, H. S. (2022). The didactic model of activating students' independent work. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 303-307.
13. Daniyarovna, H. S. (2022). Activation of independent student study on the basis of modern approach. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 283-288.
14. Daniyarovna, H. S. (2022). Ways to activate student independent education. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 297-302.
15. Choriev, R. K., Khujakeldiev, K. N., Kucharov, S. A., Khayitova, S. D., Abdiev, N., & Amirqulov, X. Q. (2022). Pedagogical Problems Of Distance And Traditional Education. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 2895-2904.
16. Hayitova, S. D., & Abdulhayev, I. A. O. (2022). Education in institutions and uzbek in their families children spirituality in shaping of reading place\_. *Science and Education*, 3(2), 796-802.





## Prokrastinatsiya va dangasalik psixologik muammo sifatida

Ismailov. S

UrDU Pedagogika va Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada prokrastinatsiya va dangasalikning ta'rifi, ularning bir biridan farqlari, ularni keltirib chiqaradigan omillar keltirilgan. Shuningdek maqolada prokrastinatsiya va dangasalikni oldini olishga qaratilgan tavsiyalar ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** prokrastinatsiya, dangasalik, apperception, stress, havotir.

### ANNOTATION

This article describes the definition of procrastination and laziness, their differences, and the factors that cause them. The article also contains recommendations aimed at preventing procrastination and laziness.

**Key words:** procrastination, laziness, apperception, stress, anxiety.

Jahonda bugungi kunda dangasalik va prokrastinatsiya holatlari maqsadga erishish yo'lida asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi. Ko'pchilik prokrastinatsiya tushunchasi haqida ma'lumotga emas. Bu tushuncha dangasalikka yaqin tushuncha bo'lib, ushbu maqolada uning mohiyati va dangasalikdan farqlariga to'xtalib o'tamiz. Quyida biz bu ikki atama orasidagi farqlarni ochib berishga harakat qilamiz. Birinchi bo'lib ko'pchilikka notanish bo'lgan so'z prokrastinatsiyani muhokama qilsak. Ushbu so'z asosdan psixologlar orasida ishlataladi. Uning ko'plab tariflari mavjud va biz bu tariflarni ko'rib chiqmiz.

Prokrastinatsiya – biron bir ishni qilishni orqaga surish, sababi bu ish juda zerikarli yoki qiziqarli emasligi. [6]

Prokrastinatsiya – qilinishi kerak bo'lgan ishlarni oxirgi minutgacha cho'zish yoki belgilangan vaqtini o'tkazib yuborish asossiz sabablar bilan. [8]

Klingsiek prokrastinatsiya belgilari haqida shunday deydi. Kimdir prokrastinatsiya qilib turgan bo'lsa, unda o'sha insonda quyidagilar sodir bo'ladi:

- Qilishni niyat qilgan ishni qilmaslik;
- O'zlari uchun muhim bo'lgan boshqa ishni qilish;
- Ishni qilish uchun tashqi to'siqlar bo'lmaydi;
- Negative natijalar bilan yuzlashish agar kerakli ish qilinmasa;
- Ishni bajarmaganligi uchun negative emotsiyalarni boshdan kechirish[7].

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, prokrastinatsiya bu qilinishi kerak bo'lgan ishni, bizga yoqmaganligi sababli





bajarmasligimiz hisoblanadi. Biz uning negative natijalarini oldindan bilamiz. Buning natijasida salbiy hislarni boshdan kechiramiz ammo uni qilishda davom qilamiz. Ammo biz qilinishi kerak bo'lgan, yoki qilishni hohlagan ishimizni baribir qilamiz. O'z vaqtidan kechik yoki unga kam vaqt sarflaymiz, ushbu holatni keltirib chiqaradigan sabablar ko'p bo'lib ular quyidagilar.

**Prokrastinatsiyani keltirib chiqaruvchi omillarga quyidagilar kiradi:**

- zerikish, siz jarayonni juda zerikarli deb idrok qilasiz va uni orqaga surasiz;
- o'z qobilyatinggizga ishonmaslik, agar o'zinggizga ishni qilishda ishonmasanggiz siz unga kam e'tibor qaratasziz;
- qo'rquv va xavotir, siz tibbiy diagnostika topshirishni orqaga surasiz, chunki siz uning natijalaridan qo'rqsiz. Biz qanchalik vazifani bajarishda xavotirlansak, uni orqaga surish ehtimoli ham shunchalik oshib boradi;
- Perfektionizm, insonlar vazifani orqaga suradi, chunki ular yetarli darajada mukammal emasman yoki muvaffaqiyatsiz chiqadi deb hisoblashadi. Vazifani yaxshiroq g'oya paydo bo'lib qolguncha orqaga suradilar;
- Diqqatni bo'linishi, e'tiborni tortadigan narsalar bizni diqqatimizni bo'ladi. Texnologianing rivojlanishi ham prokrastinatsiyaning oshishiga sabab bo'layotgan ekan. [9]

Yuqorida keltirilgan sabablardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, prokrastinatsyaning asosiy sababi qandaydir ichki va tashqi to'siqlar hisoblanar ekan. Bundan tashqari boshqa bir manbada prokrastinatsiyaga sabab qilib qaror qabul qilishda ikkilanish ham keltirilgan ekan.

**Prokrastinatsiyani oldini olishga qaratilgan tavsiyalar:**

- Birdaniga hammasini qilishga harakat qilmang, 100 % bo'lmasa ham 10 % harakat qilishni o'rganing;
- Sizda nimalar prokrastinatsiyaga sabab bo'lishini bilib oling;
- O'zinggizga bo'lgan ishonchni mustahkamlang, muammolar sizda o'tmish travmalarini sabab bo'layotga bo'lishi ham mumkin.;
- Vaqt qo'yish yoki vaqtini boshqacha tarzda aytish. Masalan, 2 kun emas 48 soat ichida qilishim kerak;
- Ish bilan shug'llanayotgan paytinggizda diqqatinggizni tortadigan narsalarni uzoqda saqlang, yoki sizga halaqit bermaydigan holatda;
- Qarorlaringgizni soddalashtiring, qismlarga ajratib chiqing qilish oson bo'lishi uchun;
- Kundalik ishlaringgizni oldindan rejalashtiring.[10]



Shunday qilib prokrastinatsiyani oldini olishda, uni nima ekanligini va nima sababdan bizda prokrastinatsiya bo'layotganligini bilish katta yordam bo'lar ekan. Obektiv va asosli fikrlash ham uni yo'qotishda asosiy uslublardan biri ekan. Shu yerda bir narsani unutmaslikimiz kerakki, ushbu holat barchamizda bo'ladi. Bu holat bo'lishi ham kerak. Chunki biz insonmiz va bizda dam olishga, hordiq chiqarishga bo'lgan ehtiyoj mavjud. Biz 24/7 shaklida foydali ish bilan shug'llana olmaymiz. Biz ko'ngil ochar joylarga, sayr, sayohat, baliq oviga borishimiz, do'stlarimiz bilan vaqt o'tkazishimiz mumkin, nimaga deganda o'z energiyamizni tiklab olish uchun. Ammo prokrastinatsiya doimiy, bizga zarar yetkazadigan darajada bo'lmasligi kerak.

Prokrastinatsiya tushunchasi dangasalikka yaqin tushuncha hisoblanadi. Ko'pchilik odamlar ularni bir narsa deb aytishadi. Biz odatda prokrastinatsiya holatidagi odamlarga dangasa deb o'rganib qolganmiz. Keling endi dangasalik tushunchasiga to'xtalsak.

Dangasalik-biron bir ishni qilishni istamaslik yoki harakat qilishni istamaslik.<sup>[6]</sup>

Dangasalijni ko'pchilik olimlar noto'g'ri tushuncha, uni mavjud emas deb qarashadilar – “ Agar odamlarda motivatsiya past bo'lsa, buning sababi toliqish, charchash, yordamga muhtojlik, yoki qilingan ishni foydali tarafini ko'ra olmaslik bo'lishi mumkin. <sup>[5]</sup>

Dangasalik – bunda siz hech nima qilishni hohlamaysiz, mutlaqo energiyanggizni sarflashni hohlamaysiz. Siz biron bir ishni qilishni o'zinggiz uchun qiyin yoki mutlaqo ilojsiz deb o'ylasanggiz bu dangasalik hisoblanadi. <sup>[2]</sup>

Dangasalik-kimnidir qilishi mumkin bo'lgan ishni, ongli holatda qilishni istamasligidir.

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqqan holatda, dangasalik bu umuman hech nimani qilmaslikdir degan xulosaga kelinadi. Dangasa inson energiyasini ishlatmaydi. Nimanidir qilishi mumkin, ammo uni qilishni hattoki hayoliga ham olib kelmaydi. Bugungi kunda dunyo olimlari dangasalik tushunchasini ko'p ham tekshirmaydilar. Chunki uni aniq diagnos qilishning iloji yo'q ekan. Kim uchundir dangasalik deb ko'ringan ish, boshqa odam uchun mashaqqatli mehnat bo'lishi mumkin bo'lganligi sababli. Dangasalikka appersepsiya ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Appersepsiya-odamning tajribasi, bilimi, hayol va tafakkur faoliyati, hissiyot va diqqati, umuman odam psixikasining hamma mazmuni idrokda namoyon bo'lishidir<sup>[1]</sup>. Ya'ni inson o'tmishida shunday holatlar bo'lgan bo'lishi mumkinki bu uning hozirgi holatiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, psixologik travmalar.





Psixologlar dangasalikni subektiv tushuncha deb hisoblaydilar. Ammo uni keltirib chiqaruvchi va oldini oluvchi omillar mavjud bo'lib ular haqida quyida berilgan.

**Dangasalikni keltirib chiqaruvchi omillarga to'xtalib o'tsak. Bular quyidagilar hisoblanadi:**

- Motivatsiyaning pastligi, bu dangasalikka sabab bo'ladigan eng asosiy omillardan biri ekan;
- Maqsad bo'lmasligi;
- Ma'suliyat va javobgarlikdan qo'rqish;
- Keraksiz tanlovlari. Masalan, ijtimoiy tarmoqda ko'p vaqt sarflash.
- Mag'lub bo'lishdan qo'rqish;
- Depressiya;
- Qaror qabul qila olmaslik;
- Toliqish
- Yaxshi ovqatlanmaslik, kerakli vitaminlarni iste'mol qilmaslik;
- O'z o'zini qadrlamaslik;
- Boshqa odamlarga bog'liqlik;
- Qiladigan ishning ko'p bo'lishi ham, dangasalikka sabab bo'lar ekan;
- Energiya yetishmasligi.[4]

**Dangasalikdan qutilishning yechimlari quyidagilardan iborat:**

- Erishsa bo'ladigan maqsadlarni qo'yish;
- O'zingizdan mukammal bo'lishni kutmang;
- O'zingiz bilan gaplashganda positive gapashing;
- Harakatlar rejasini ishlab chiqing;
- O'z imkoniyatlaringgizdan foydalaning. Ular haqida ishni qilishdan oldin o'ylab oling;
- Erishgan muvoffaqiyatlaringgizni ko'z ko'radigan joylarga joylashtiring;
- Yordam so'rashni o'rganing;
- Topshiriqlarni iloji boricha qiziqarli qilishga harakat qiling;
- O'zinggni biron bir ishni qilgandan keyin mukofotlashni o'rganing;[3]

**Bundan tashqari sog'lom turmush tarzi ham dangasalikni yo'qtishda o'z o'rniga ega. Bular quyidgilarni o'z ichiga oladi:**

- Yuri koloriyali ovqatlardan yeyish;
- Shakar va yuqori yog'li ovqatlardan saqlanish;
- Mashq qilish;





- Uxlash va dam olish;
- Stresslardan qutilish
- O'zingiz bilan suv olib yuring;
- Zararli odatlarni tark etish. [3]

Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, dangasalikni kelib chiqishiga psixologik, muhit va biologik omillar ham sabab bo'lishi mumkin ekan. Ya'ni depressiya holatidagi odamga nimadir qilish tabiiy holatda yoqmaydi. Yoki bo'lmasa qorni och insonga ishlash yoqmaydi kabi. Dangasalikni yechimi ishdan tashqari bo'lgan muammolarni hal qilish va sog'lom turmush tarziga rioya qilish.

Abrahim Maslou shunday deydi – “Inson nima qilishni bilsa, o'sha ishni qilishi kerak”. [2]

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Umumiyl psixologiya” –Ivanov.
2. “The psychology book: big ideas simply explained” – Nigel Benson.

#### Internet manba:

3. [www.healthline.com](http://www.healthline.com)
4. [www.medium.com](http://www.medium.com)
5. [www.everydayhealth.com](http://www.everydayhealth.com)
6. [www.Dictionary.cambridge.com](http://www.Dictionary.cambridge.com)
7. [www.berklywellbeing.com](http://www.berklywellbeing.com)
8. [www.verywellmind.com](http://www.verywellmind.com)
9. [www.mcleanhospital.org](http://www.mcleanhospital.org)
10. [www.soulsalt.com](http://www.soulsalt.com)





## **Пора олиш-беришда воситачилик қилиш тарихи ва ривожланиш босқичлари**

**Хожиева Рузигул Худайбердиевна**

Хукукни муҳофаза қилиш академияси Криминалистика ва экспертиза турлари кафедраси уқитувчisi, Тошкент давлат юридик университети докторанти

Пора олиш-беришда воситачилик қилиш жинояти бошқа порахўрлик билан боғлиқ жиноятлар сингари мазмун моҳияти ва ҳукуқий оқибати қилмишнинг ижтимоий хавфлигига қўра ривожланиб бориб, қуйида биз ушбу жиноятнинг жиноят қонунига киритилиши ва ривожланиш тарихига назар соламиз.

Ушбу жиноят тури амалдаги Жиноят кодексининг 212-моддасида белгиланган бўлиб, бундан олдин ушбу жиноят учун жавобгарлик Ўзбекистон ССР Жиноят кодексида ҳам мавжуд бўлган. Ўзбекистон ССР Жиноят кодексининг 154-моддаси Пора олиш-беришда воситачилик қилиш деб номланган ва ушбу модданинг биринчи қисмига қўра<sup>1</sup>:

Пора олиш-беришда воситачилик қилиш —

икки йилдан саккиз йилгача муддатга озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади. Ушбу нормада пора олиш-беришда воситачилик қилиш жинояти акс этган бўлса-да унинг мазмун-моҳияти, қандай ҳаракатлар пора олиш-беришда воситачилик қилиш эканлиги тўлиқ очиб берилмаганлиги билан ҳозирги Жиноят кодексидаги нормадан фарқ қиласди. Бундан ташқари, Ўзбекистон ССР Жиноят кодексида ушбу қилмиш учун тайинланадиган жазо ҳам биргина озодликдан маҳрум қилиш жазоси билан чекланиб қолган холос.

154-модданинг иккинчи қисмида жиноят учун жавобгарликни оғирлаштирувчи ҳолатлар акас этган бўлиб, унга кўра:

Пора олиш-беришда бир неча марта воситачилик қилиш, ёки илгари порахўрлик учун судланган шахс томонидан ёхуд ўз хизмат мансабидан фойдаланиб қилинган воситачилик — мол-мулки мусодара қилиниб, етти йилдан ўн беш йилгача муддатга озодликдан маҳрум қилиш билан ва озодликдан маҳрум қилиш муддатини ўтаганидан сўнг икки йилдан беш йилгача муддатга сургун қилиш ёки сургун қилмаслик билан жазоланади.

Ушбу нормада кўришимиз мумкинки, қилмишнинг диспозиция қисми ҳозирги Жиноят кодексида назарда тутилган қилмиш билан деярли ўхшашибўлса-

<sup>1</sup> Узбекистон ССР Жиноят кодекси. –Т, 1971. – Б.124.



да, унга тайинланган жазо турлари ва миқдорлари кескин фарқ қилади. Яъни, мазкур жиноят учун Ўзбекистон ССР Жиноят кодексида бугунги кунда қонунчилик тизимидан чиқариб ташланган мол-мулкни мусодара қилиш (бу жазо бугунги кунда эҳтиёт чораси ҳисобланади), сургун қилиш каби жазолар тайинланган.

Мустақиллик йилларидан кейин Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси янги таҳрирда қабул қилиниб, пора олиш-беришда воситачилик қилиш жинояти 1994 йил қабул қилинган ва 1995 йил апрель ойида кучга кирган Жиноят кодексининг 212-моддасида ўз аксини топди.

Ушбу модданинг биринчи қисмига кўра:

Пора олиш-беришда воситачилик қилиш, яъни пора олиш ёки бериш хусусидаги келишувга эришишга қаратилган фаолият, шунингдек, манфаатдор шахсларнинг топшириғи билан порани бевосита бериш —

энг кам ойлик иш ҳақининг эллик бараваригача миқдорда жарима ёки уч йилгача ахлоқ тузатиш ишлари ёхуд олти ойгача қамоқ ёки уч йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Ушбу кодексда акс этган мазкур нормада қандай жиноят пора-олиш беришда воситачилик қилиш деб ҳисобланиши ва жиноят учун тайинланган алтернатив жазо турлари: ахлоқ тузатиш ишлари, қамоқ, озодликдан маҳрум қилиш каби жазолар тайинлангани билан олдинги жиноят кодексидан кескин фарқ қилишини кўришимиз мумкин.

Норманинг икинчи қисмига кўра, пора олиш-беришда воситачилик қилиш:

- а) тақороран, хавфли рецидивист ёки илгари ушбу Кодекснинг 210 ёки 211-моддаларида назарда тутилган жиноятларни содир этган шахс томонидан;
- б) кўп миқдорда пора олиш ёки бериш вақтида;
- в) бир гурух мансабдор шахслар томонидан олдиндан тил бириктириб пора олаётганлиги воситачига аён бўлган ҳолда содир этилган бўлса, —

мол-мулк мусодара қилиниб ёки мусодара қилинмай уч йилдан беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Ушбу норма олдингисидан кескин фарқ қилиб, 1959-йилда қабул қилинган Ўзбекистон ССР Жиноят кодексида мазкур жиноятнинг тақороран ва илгари пораҳўрлик жинояти билан судланган шахс ҳамда мансабидан фойдаланиб содир қилиниши оғирлаштирувчи ҳолатлар ҳисобланган бўлса, 1994 йилдаги Жиноят кодекси таҳририда эса юқоридаги белгилардан ташқари ушбу жиноятнинг кўп миқдорда пора олиш ёки бериш вақтида ҳамда бур гурух шахслар томонидан олдиндан тил бириктириб пора олаётганлиги воситачига аён бўлган ҳолда содир



қилиниши оғирлаштирувчи ҳолатлар деб эътироф қилинган. Яна шуни ҳам алоҳида таъкидлаш керакки, мазкур қисмдаги таҳрирда ушбу жиноятни содир қилган шахс мансабдор шахс бўлиши шартлилига ҳам инкор қилинган.

Бундан ташқари, пора олиш-беришда воситачилик қилишнинг оғирлаштирувчи таркиби учун белгиланган жазо тури ҳам олдингисидан фарқ қилиб, иккинчи қисм санкциясида бу жиноят учун мол-мулк мусодара қилиниб ёки мусодара қилинмай уч йилдан беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш жазоси тайинлаши кўзда тутилган.

Шу билан бирга, мазкур норманинг учинчи қисми ҳам мавжуд бўлиб, унга кўра:

Пора олиш-беришда воситачилик қилиш:

- а) ҳақ эвазига;
- б) жуда кўп миқдорда пора олиш ёки бериш билан;
- в) уюшган гуруҳ манфаатларини кўзлаб;
- г) масъул мансабдор шахс томонидан содир этилган бўлса, —

мол-мулк мусодара қилиниб ёки мусодара қилинмай беш йилдан саккиз йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Ушу қисмда ҳам пора олиш-беришда воситачилик қилиш жинояти учун жазони оғирлаштирувчи ҳолатлар берилган ва бу қисмда ушбу жиноятнинг мансабдор шахснинг мансаб ваколатидан фойдаланиб шу жиноятни содир қилиши ҳам жазони оғирлаштирувчи ҳолатлар деб белгиланган хамда мазкур жиноят учун тайинланадиган жазо турида бир вактнинг узида ҳам асосий ҳам кушимча жазо тайинланганини куришимиз мумкин.

Яна шуни ҳам таъкидла жоизки, мазкур норма сўнги қисмida рағбатлантирувчи қисм ҳам мавжуд бўлиб, унга кўра:

башарти, пора олиш-беришда воситачилик қилган шахс жиноий ҳаракатларни содир этганидан кейин бу ҳақда ўз ихтиёри билан арз қилса, чин кўнгилдан пушаймон бўлиб, жиноятни очишда фаол ёрдам берган бўлса, жавобгарликдан озод қилиниши белгилаб қўйилган. Нормадаги ушбу мазмун хозирда амалдаги Жиноят кодексида ҳам белгилаб куйилган.

#### **Фойдаланилган адабиётлар/ Сноски/ References:**

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. 22.09.1994. Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 23.01.2020 й., 03/20/603/0071-сон, 26.03.2020 й., 03/20/613/0362-сон, 22.07.2020 й., 03/20/629/1087-сон, 05.10.2020 й., 03/20/640/1348-сон, 06.11.2020 й., 03/20/645/1469-сон, 04.12.2020 й., 03/20/653/1592-сон; 26.12.2020 й., 03/20/658/1670-сон; 15.01.2021 й.,





03/21/667/0035-сон, 13.02.2021 й., 03/21/673/0112-сон, 18.02.2021 й.,  
03/21/675/0126-сон; 30.03.2021 й., 03/21/679/0256-сон

**2.** Ўзбекистон Республикасининг Коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги ЎРҚ-419-сон Қонуни. 03.01.2017. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 1-сон, 2-модда; Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 16.01.2019 й., 03/19/516/2484-сон; 24.05.2019 й., 03/19/542/3177 -сон, 2019 й., 2-сон, 47-модда.

**3.** Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-6013-сон Фармони. 26.06.2020. Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.06.2020 й., 06/20/6013/1002-сон.

**4.** Рустамбаев М.Х. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. Дарслик. – Т: “ILM ZIYO”, 2006.

**5.** . Рустамбаев М.Х. Криминология. Дарслик. – Тошкент.: ТДЮУ, 2008.

**6.** Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи. Дарслик. – Т: ТДЮИ, 2009.

**7.** .Зуфаров Р.А., Ахаров Б.Ж., Мирзаев У.М. Коррупция. Қонун. Жавобгарлик. Монография. – Т.: ТДЮИ, 2011.

**8.** Шамсутдинов Б. Коррупциявий жинояtlар учун жавобгарлик. Монография. – Т: ТДЮУ, 2020. – Б. 63.





## **SOVET HUKUMATINING PAXTACHILIKNI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG'LIQ SIYOSATI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY OQIBATLARI**

Qulboshev Sirojiddin Jumayevich

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

[s.qulboshev2710@umail.uz](mailto:s.qulboshev2710@umail.uz)

+998938959092

Sovet hukumati mamlakat xalq xo'jaligini boshqarishni o'ta markazlashtirib, ma'muriy-buyruqbozlik tamoyillari asosida siyosat yuritdi. Bu siyosat jamiyatning va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini rivojlantirish yo'liga to'g'onoq bo'ldi. Umum davlat manfaatlarini rukach qilgan holda sovet hukumati markazlashgan iqtisodiyotni shakllantirishga shu asosda mahalliy respublikalar iqtisodiyotini markazga qaram qilib qo'ydi. Jumladan, O'zbekiston iqtisodiyoti ham ushbu xatarli siyosatning ta'sirida markazning xom-ashyo manbaiga aylanib qoldi. Respublikadagi boy xom-ashyo resurslari va arzon ishchi kuchi ittifoq manfaatlariga bo'ysundirib qaram holatga solib qo'ydi. Ayniqsa, paxtachilikni rivojlantirish, respublikani paxta xom-ashyo bazasiga aylantirish yuzasidan maqsadli strategik dasturlar ishlab chiqildi. Sovet hukumati shu maqsaddan kelib chiqqan holda respublikada paxtachilikni rivojlantirishning bosh omili hisoblangan sug'orish, yerga ishlov berish va parvarish qilish yuzasidan alohida direktiv ko'rsatmalar ishlab chiqildi.

Sovet hukumati urushdan keyingi yillarda respublikada paxta ekin maydonlarini kengaytirishga zo'r berib harakat qildi. Masalan, respublikada 1946-1950-yillarda paxta maydoni 815,6 ming hektar dan 1098,1 ming hektarga, yalpi hosili esa 1118 ming tonnadan 2226 ming tonnaga ko'paydi [1]. Natijada shu davrdan boshlab respublika agrar sohasida paxta yakkahokimligi kuchaya boshladi. Paxta yakkahokimligining o'rnatilishi zamirida respublikada ekologik muvozanat buzilib, atrof-muhitning ifloslanishi kuchaydi bundan tashqari qishloq aholisining turmush tarzi izdan chiqib, oziq-ovqat mahsulotlarining turi va sifati kamayib bordi. Shunga qaramasdan Markazning direktiv organlari paxta ekin maydonlarini yil sayin kengaytirib borish yuzasidan topshiriqlar bera boshladi. Natijada respublikada paxta boshqa ekinlarga nisbatan ko'p ekiladigan monopol ekin turiga aylandi. Masalan, paxta maydonlari 1950-yilga kelib respublikadagi jamiki maydonlarining 56,6 % ni tashkil qildi, XX asrning 80-yillar o'rtalarida esa bu ko'rsatkich 75 %ga, ba'zi oblastlarda esa undan ham yuqori darajaga ko'tarildi.





Respublikada markaz topshirig‘i bilan sug‘orish, melioratsiya va mexanizatsiya ishlari jadallashtirilishi natijasida paxta hosildorligi jadal ortib bordi: qishloq xo‘jaligini irrigatsiyalash va mexanizatsiyalashning rivojlanishi tufayli respublikada paxta hosildorligi 1935-yildan 1956-yilgacha har gektaridan 13,8 sentnerdan 24,7 sentnerga ko‘tarildi [2]. Bundan ko‘rinib turibdiki, XX asrning 50-yillari o‘rtalariga kelib respublikada paxta hosildorligi avvalgi davrga qaraganda keskin ko‘tarildi.

Respublika qisqa muddatda markazning paxta etishtirib beruvchi qaram hududga aylantirildi. Jumladan, 1951-1955-yillarda O‘zbekiston davlatga 12 mln. 714 ming tonna paxta xom ashvosini topshirdi. Bu ko‘rsatkich 1946-1950-yillarga nisbatan 4 mln. 779 ming tonna ko‘p demak edi [3].

XX asrning 50-yillaridan paxtachilikni mexanizatsiyalash ishiga jiddiy e’tibor qaratib, MTSlarning faoliyati bir qadar isloq qilindi. Shunga qaramasdan bu davrda MTSlar faoliyati o‘rtacha holatda bo‘lib, ishda juda ko‘p jiddiy xatoliklar mavjud edi. Masalan, 1950-1955-yillarda traktorlar bilan bajariladigan ish hajmi 61 %ga oshgani holda, paxtaning yalpi hosildorlik miqdori 11 %ga oshdi, xolos. Ko‘plab MTSlarda bajarilgan ishlar qo‘shib yozila boshlandi. Bunday hol Sherobod, Sariosiyo, Denov va Jarqo‘rg‘on MTS larida ko‘plab ko‘zga tashlandi [4].

Paxta yakkahokimligi siyosati ta’sirida respublikada paxta yetishtirish va undan hosil olish miqdori ham o‘sib bordi. Jumladan, 1954-yilda respublika paxtakorlari 1953-yildagiga nisbatan 180 ming gektar ko‘p paxta ekdi.

Sovet hukumatining direktiv organlari O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini, ayniqsa, paxtachilikni tez fursatda taraqqiy ettirish yuzasidan qator ko‘rsatma va vazifalar ishlab chiqildi. Misol uchun, KPSS markaziy qo‘mitasining 1953-yil sentyabr oyida bo‘lib o‘tgan Plenumida paxta yetishtirishni qisqa muddatda ko‘paytirish masalasiga alohida ko‘rsatma berildi. Plenumda: “Davlat va jamoa xo‘jaliklarida paxta hosildorligini ancha oshirish va foydalanmasdan yotgan erlarni ishga solib, yangi sug‘oriladigan yerkarni o‘zlashtirib, shu tariqa ekin maydonini kengaytirish, shuningdek, yerkarning melioratsiya holatini yaxshilash yo‘li bilan paxta yetishtirishni yanada ko‘paytirish masalalari belgilab berildi” [5].

Markaz qanchalik zo‘r bermasin paxtachilik sohasini rivojlantirishning qator muammolari ham ko‘zga tashlana boshladi. Bu muammolar eng avvalo markaziy idoralar tomonidan joylardagi vaziyatni inobatga olmasdan chiqarilgan qarorlar hamda amaliyotdan uzoq buyruqlarning hosilasi bo‘ldi. Respublikada paxta yetishtirishning yalpi salmog‘i yildan-yil oshib borsa-da, 1951-1955-yillarda hosildorlik ko‘tarilmadi, aksincha, pasayib bordi. Masalan, 1950-1953-yillarda har gektarga yerdan 21,1 sentnerdan hosil olingan bo‘lsa, 1954-yilda u 20,1 sentnerni, 1955-yilda esa 18,9



sentnerni tashkil qildi. Natijada esa paxtachilikdan olinadigan yalpi hosil ham kamaydi. Masalan: 1955-yilda 1954-yildagidan 200 ming tonna kam paxta tayyorlandi [6].

Qo‘riq yerkarni o‘zlashtirish hisobiga paxta maydonlarini kengaytirish vazifasini sovet direktiv organlari zo‘r berib amalga oshira boshladi. Natijada respublika bo‘yab keng hajmda yangi yerlar o‘zlashtirildi.

Shu sababdan ham oblast irrigatsiya tizimida muhim o‘rin tutuvchi Dushanbe-Qoratog‘ kanalini qurilishi yakuniga yetkazildi. Bundan tashqari, Tallimaron kanali qurildi. Denov-Yurchi botqoqligini o‘zlashtirildi. Natijada ishlar Surxondaryo oblastda sug‘oriladigan yerlar maydonini 10 ming hektardan ortiq kengayishiga sabab bo‘ldi [7].

Paxtachilikni rivojlantirish yuzasidan sovet hukumati bir qancha qaror va buyruqlar qabul qildi. Masalan, shunday qarorlardan biri SSSR Ministrlar Soveti va KPSS MQning 1954-yil 9-fevralda qabul qilgan “1954-1958-yillarda O‘zSSRda paxtachilikni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qaror qabul qilinib, paxtachilikni rivojlantirishning istiqbollari belgilab berildi [8]. Ushbu qaror markazning paxtaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida kelib chiqib respublikadagi mavjud vaziyatni inobatga olmasdan qabul qilingan qaror bo‘lib, unda juda ko‘plab topshiriqlar, buyruqlar mahalliy sharoitni inobatga olmasdan qabul qilingan edi.

Sovet hukumati paxta yakkahokimligini respublikaning barcha oblast va rayonlarida yildan-yilga kuchaytirib bordi. Masalan, Surxondaryo oblasti ingichka tolali paxta hosili bo‘yicha asosiy oblastlardan bo‘lib, 1955-yilda oblastda 17 ta paxtachilik sovxozlari hamda 146 ta paxta ekuvchi jamoa xo‘jaliklariga xizmat qiluvchi MTSlar mavjud bo‘lgan [9].

Paxta yakkahokimligini yil sayin o‘sib borishi va markazning tinimsiz yuborib turgan direktiv hujjatlarini bajarish izmida respublikada paxta ekin maydonlari yiliga kengayib bordi. Masalan, 1956-yildan 1959-yilgacha Respublikaning umumiyligi ekin maydoni 160 ming hektardan ziyodroqqa ko‘paydi. Shu yillarda chigit ekiladigan maydonlarning hajmi esa 78,8 ming hektarga kengaydi. Har hektardan olinadigan hosildorlik 1955-yilda 18,9 sentner bo‘lgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 1959-yilda 22,9 sentnerga ko‘tarildi. O‘sha davrda paxtaning yalpi hosildorligi 678 ming tonnaga oshdi, bu esa o‘tgan yildagiga nisbatan hosildorlikning ko‘payganligidan dalolat beradi.

Respublikada paxta tayyorlash rejasini mahalliy sharoitlarni hisobga olmasdan asta-sekin yildan-yilga ortirib borildi. Jumladan, 1956-yilda O‘zbekiston davlatga 2 mln. 900 ming tonna paxta topshirdi, bu 1955-yildagiga nisbatan 400 ming tonna ko‘p demak edi [10]. 1956-1959-yillarda respublikaning kolxozi va sovxozlari paxta tayyorlashda katta muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritdi, shu yillar ichida davlatga 8861000 tonna yoki yiliga o‘rta hisobda 2954000 tonna paxta topshirdi [11].





1957-yilda respublika kolxoz va sovxozlari markazga 2 mln. 750 ming tonna paxta hosilini topshirdi. Shu yili Surxondaryo, Qashqadaryo, Andijon, Xorazm oblastlari va Qoraqalpog'iston ASSR paxtakorlari yaxshi natijalarga erishdi. 1957-yil respublikaning 13 ta rayon va 208 ta kolxozlarida har hektar yerdan 30, 35, 40 sentnergacha va undan ko'proq hosil olindi [12]. Shu yili Farg'on'a oblastining Toshloq rayoni chigitni kvadrat-uyalab ekish hamda g'o'zani ikki tomonlama parvarish qilish usullarini barcha paxta maydonlariga joriy qilindi. Natijada, rayondagi kolxoz va sovxozlар 12 ming hektar paxta maydonining 9 ming hektarida g'o'zani ikki tomonlama parvarish qilib, oblastda paxta tayyorlash rejasini birinchilardan bo'lib bajardi. Rayon bo'yicha o'rtacha hosildorlik 1956-yilda 27 sentner bo'lgan bo'lsa, 1957-yilda 28,3 sentnerni tashkil qildi.

1957-yil 10-fevralda O'zSSR Ministrlar Soveti va O'zbekiston kompartiyasi markaziy qo'mitasining "Yangi o'zlashtirilayotgan qo'riq va bo'z yerlardagi paxta hosilini kontraktatsiya qilish shartlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda yalpi paxta hosilini oshirish va almashlab ekishni joriy qilish, qo'riq va bo'z erlarni o'zlashtirish ishiga kolxoz va sovxozlarning mas'ul ekani hamda yangi o'zlashtirilayotgan qo'riq va bo'z erlardagi kolxoz va sovxozlarga paxta tayyorlash rejasini berilganida kontraktatsiya hosilini 8 sentnerdan belgilash, 1958-yildan boshlab besh yil mobaynida har yili 2 sentnerdan ko'paytirish vazifasi ham yuklatildi.

Respublikada 1958-yilda 1440,8 ming hektar yerga chigit ekilgan bo'lsa, 1961-yil oxiriga kelib, paxta maydonlari 1616,4 ming hektarga yetdi [13]. Qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish oqibatida Surxondaryo oblasti Gagarin rayonidagi Pravda kolxozi paxta va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlaridan ancha yuqori hosil olishga erishdi. Masalan, 1961-yilda mazkur kolxoz 670 hektar maydonning bir hektardan 25 sentnerdan hosil oldi. Iskra kolxozi 520 hektar maydonga paxta ekib, hektaridan 27,4 sentnerdan hosil olishga erishdi [14].

XX asrning 60-yillariga kelib respublika qishloq xo'jaligida ekstensiv usuldan voz kechilib, intensiv usulga zo'r berildi, sovet rahbariyati agrar sohani kimyo lashtirishga e'tiborni kuchaytirdi. Bundan maqsad paxtadan yanada ko'proq hosil olish edi, ammo amalda bu qishloq xo'jaligini inqirozli holatga olib borib qo'ydi. Misol uchun, 1965-yilda O'zbekiston kolxozlarda sarflangan 1 mln. 463,4 ming tonna mineral o'g'itdan 1 mln. 324,7 ming tonnasi paxta yetishtirishda qo'llandi [15]. Qishloq xo'jaligida sarflangan mineral o'g'itlar esa aslini olganda me'yordan ancha ortiq edi. Shu tufayli ko'plab sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati keskin yomonlashdi.



Ittifoq hukumatining bevosita buyrug'i bilan Rossiya va Yevropa davlatlari to'qimachilik fabrikalari, harbiy sohalari ehtiyojini qondirish maqsadida respublikaning janubiy hududlarida ingichka tolali paxta ekish yo'lga qo'yildi. Ushbu uchta besh yillik mobaynida Respublikada ingichka tolali paxta yetishtirish ancha kuchaydi: misol uchun respublika 1965-yilda davlatga 73 ming tonna ingichka tolali paxta topshirdi, bu ko'rsatkich 1971-1975-yillarda esa o'rtacha 204 ming tonnani tashkil qildi. O'ninchi besh yillikda ingichka tolali paxta yetishtirishning o'rtacha yillik hajmi 302 ming tonnadan iborat bo'ldi [16].

O'rganilayotgan davrda markaz tazyiqi bilan O'zbekistonda kimyoviy zaharli moddalarni qishloq xo'jaligida qo'lllash ortib bordi. Shu tufayli qishloq xo'jaligi uchun gerbitsid, defoliantlar va boshqa kimyoviy vositalar ishlab chiqarish hamda yetkazib berish kengayib bordi. Agar Respublikada mineral o'g'itlar ishlab chiqarish 1970-yilda 4091 ming tonna bo'lsa, bu ko'rsatkich 1975-yilda 6132 ming tonnaga yetdi [17]. Ammo, qishloq xo'jalik organlari bu o'g'itlarni qo'llashda mahalliy aholi sog'ligi va turmush sharoitini e'tiborga olmadi. Chunki bu tadbirlar markazdan belgilab berilar, ularni bajarish esa majburiy edi. Buning oqibatida esa paxta yetishtirish hajmi muttasil tarzda ortib bordi [18].

Surxondaryo oblast Sherobod rayonidagi U.Yusupov sovxoziда paxtadan olingan hosildorlik 1975-1979-yillar mobaynida 28,2 sentnerdan 32 sentnerga, yalpi hosil esa 10,7 ming tonnadan 14,5 ming tonnaga oshdi. Shuningdek, oblastning Lenin yo'li rayonida ushbu yillarda paxta xom ashyosi yetishtirish 43,5 ming tonnadan 56,4 ming tonnaga yyetdi yoki 29,7 % o'sdi, hosildorlik esa gektardan 25,3 sentnerdan 35,4 sentnerga ko'tarildi yoki 39,9 % oshdi [19]. Ammo bundan keyingi besh yilliklarda respublika bo'yicha paxta hosili yetishtirish bir oz kamaydi.

Sovet hukumati hukmronligi davrida O'zbekiston qishloq xo'jaligi oborotida paxta muhim o'rin egalladi, paxtakorlar rayonlarning katta qismi Amudaryo va Sirdaryo daryolari bo'ylab tashkil etildi. Natijada, O'zbekiston O'rta Osiyo hududida eng yirik paxta etishtiruvchi mintaqaga aylandi. Shu davrda O'zbekiston ittifoqning yirik paxta etishtiruvchi mintaqasiga aylanib, respublika ittifoqning 60 % dan ortiqroq paxta hosilini yetkazib berdi. Shu asosda O'zbekiston markazning yirik to'qimachilik korxonalari uchun paxta xomashyosi tayyorlab beruvchi katta xom-ashyo manbasiga aylandi.

Respublikada paxta yakkahokimligining kuchayishi qator oqibatlarni keltirib chiqardi. Bu jarayon paxtachilik sohasini keskin kuchayishiga, ekologik vaziyatni buzilishiga, erlarning meliorativ holati yomonlashiga olib kelib, aholi salomatligiga jiddiy putur etishida ko'zga tashlandi. Mustaqillik arafasida respublikada paxta yakka



hokimligining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan salbiy oqibatlari keng jamoatchilik tomonidan tanqid qilina boshlandi. Natijada paxta ekiladigan maydonlarni qisqartirish takliflari bilan chiqa boshladi. Shu asosda asta-sekin paxta maydonlari qisqartirilib, o‘rniga boshqa qishloq xo‘jalik ekinlari yetishtirila boshlandi. Agar respublikada 1987-yilda 2 mln. 108 ming gektar yerga chigit ekilgan bo‘lsa, 1990-yilda 1 mln. 826 ming gektar yerda paxta etishtirildi [20].

1989-1991-yillarda paxta yetishtirish hajmi respublikada ancha kamaydi, paxta maydonlari qisqardi. Jumladan, paxta yetishtirish bo‘yicha rejalar xom-ashyo hisobida 843 ming tonnaga kamaytirildi. Bundan tashqari paxta ekiladigan maydonlar 2017 ming gektardan 1700 ming gektarga tushirildi. Bu esa paxta yakkahokimligiga nisbatan chek qo‘yish, qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlarini rivojlantirish hamda qishloq aholisining tomorqa xo‘jaligini kengaytirish imkonini berdi.

Xullas, sovet hukumati hukmronligi davrida respublikada paxtachilikdan ko‘proq mo‘l hosil olishga, yangi yerlarni o‘zlashtirish va ularning o‘rnida paxta maydonlarini barpo etishga jiddiy e’tibor qaratildi. Shu maqsadda ko‘plab Yangi yerlar o‘zlashtirildi yangi-yangi sug‘orish inshoatlarini qurish ishlari keskin avj oldirildi. Tadqiq etilgan davrda respublika qishloq xo‘jaligida paxta yakkahokimligi siyosati yil sayin kuchayib bordi. Paxtadan yanada ko‘proq hosil olish maqsadida yangi yerlarni o‘zlashtirilib, ularning o‘rnida katta-katta paxta maydonlari barpo etildi. Bu amaliyot ta’sirida respublikada sug‘oriladigan maydonlar hajmi ekstensiv ravishda qariyb ikki baravarga kengaydi. Aynan paxta maydonlarining kengaytirilishi oqibatida aholining boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji xavf ostida qoldi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Джабборов Н. Развитие орошения в Узбекистане и его перспективы. -Ташкент: Фан, 1968.
2. День за днем, год за годом // Правда Востока, 12 ноября 1961 г.
3. Abdullaev A.N. Paxta yakkahokimligi: oqibat va saboqlar (1917-1991 y.y.). -Toshkent: Istiqlol, 2006.
4. Razzoqov A.O‘zbekiston paxtachiligi tarixi: (O‘tmish va hozir). - Toshkent: O‘zbekiston, 1994.
5. КПСС съездлари, конференция ва МК пленумларининг резолюция ва қарорлари. VI том. -Тошкент: Ўзбекистон, 1985.
6. Berdiyev H. va boshqalar. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – Toshkent: “Nur”. 1991.



7. Игамбердыев Р.С., Раззаков А.А. История мелиорации в Узбекистане (на материалах Голодной степи). Ташкент: Фан, 1978.
8. Surxondaryo viloyat davlat arxiv, 619-fond, 1-ro‘yxat, 9<sup>A</sup>-ish.
9. Совет иттифоқи коммунистик партиясининг XX съезди. 1956 йил 14-25 февраль: Стенографик ҳисобот I. Тошкент: Ўздавнашр, 1957.
10. Хлопководство Узбекистана за 50 лет. -Ташкент: Узбекистан, 1967. -C.24.
11. Xonazarov J. Qishloq xo‘jaligini tobora rivojlantiraylik // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. -Toshkent, 1958.
12. Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. Сбор.стат.мат. -Ташкент: Узбекистан, 1967. -C.65.
13. Surxondaryo viloyat davlat arxiv, 619-fond, 1-ro‘yxat, 78-ish
14. Ashirboyeva Z. «Paxta fronti» dagi talofatlar // Tafakkur. -Toshkent, 2009.
15. Омонов Ф. Ингичка толали пахта етиширишни қўпайтириш проблемалари // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -Тошкент, 1980. -№12. -Б.2.
16. Ашуралиев Р. Совет беш йилликларининг муштарақ мақсадлари // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. Тошкент, 1981.
17. Ахунов А. Проблемы преодоления торможения в развитии научно-технического прогресса сельского хозяйства Узбекистана. -Ташкент: Ўзбекистон, 1990.
18. Марасулов С., Гафуров А. Мустаҳкам заминга таяниб // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -Тошкент, 1981.
19. Эргашев Р., Раҳмонқулов Х. Чўлқуварларнинг янги марралари // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -Тошкент, 1981.
20. Spoor M. Agricultural Restructuring and Trends in Rural Inequalities in Central Asia: A Socio-Statistical Survey. Programme on Civil Society and Social Movements -Geneva: UNRISD, 2004.





## **Matematikadan masalalar yechish bo'yicha umumiy ko'rsatmalar**

**Xolmuradova Zulfizar Rustam qizi**  
**Termiz davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi**  
**Tel: +998-99-243-04-09**

**Annotatsiya:** Ma'lumki, matematikada biror nazariy materialni o'zlashtirish va uni mustahkamlash ko'p hollarda masala yechish orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan masala yechish jarayonini to'g'ri tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** matematik masala, masalani tushuntirish, reja tuzish, masalani yechish, tekshirish, matematik obyekt.

Matematikadan masalalar qanday yechiladi? Masalani yechish uchun bizga yaxshi reja kerak bo'ladi. Quyida shunday rejani keltiramiz. Bizga bu reja kelgusida ko'p masalalar yechishga asqotadi. Masala yechish rejasiga 4 bosqichdan iborat.

### **I bosqich. Masalani tushunish**

- ✓ Sizga nima berilgan va sizdan nimani topish yoki isbotlash so'ralayapti? Masalani o'z tilingizda ifodalab oling.
- ✓ Qanday ma'lumotlar berilgan? Masalada qaysi matematik obyekt yoki tushuncha va uning qaysi xossalari haqida so'z boradi? Ular haqida nimalarni bilasiz? Masala shartidagi muhim ma'lumotlarni aniqlab oling.
- ✓ Masala shartiga ko'ra imkonim bo'lsa chizma chizib oling. Bu sizga masalani oydinlashtiradi.
- ✓ Sizga yana qanday ma'lumotlar, tushuncha, qoida va xossalari kerak bo'ladi? Matematik obyektning masala shartida berilgan elementlari va topish talab qilinayotgan elementlari orasidagi bog'lanishlar haqida barcha ma'lumotlarni, qoida va xossalarni eslang. Masalada qo'yilgan savolga javob berish uchun qanday ma'lumotlar kerakligini aniqlab oling.
- ✓ Masalada gap borayotgan matematik tushuncha yoki obyekt va uning elementlari haqida hamma zarur ma'lumotlar berilganmi? Masalani yechish uchun barcha ma'lumotlarni aniqlang .

### **II bosqich. Reja tuzish**

- ✓ Oldin shunga o'xshash masalani yechganmisiz? Berilgan masalaga o'xshash yechilgan boshqa masalalarni eslab ko'ring.
- ✓ Qaysi xossa yoki qoidalardan foydalanish mumkin?
- ✓ Masalani yechish uchun qanday yo'l tutasiz? Masalani yechish yo'lini tanlang va qanday amalga oshirish rejasini tuzing.





### **III bosqich. Masalani yechish rejasini amalgam oshirish**

- ✓ Tuzilgan rejaga muvofiq qadam-baqadam masalani yeching. Har bir qadamni ko'rsatib boring.
- ✓ Rejaga ko'ra agar lozim bo'lsa, chizmada yordamchi elementlarni ham chizing.
- ✓ Javobni yozing.

### **IV bosqich. Tekshirish**

- ✓ Berilgan savolga javob berdingizmi? Haqiqatan ham masalaga qo'yilgan savolga javob topganingizni tekshiring.
- ✓ Topgan yechimingiz masalani qanoatlantiradimi?
- ✓ Masalani boshqa yo'l bilan ham yechish mumkinmidi? Masalani siz yechgan yo'lidan yaxshiroq boshqa yo'l haqida o'ylab ko'ring.
- ✓ Boshqa masalalarni ham yechish uchun qo'l keladigan nimalarni o'rgandingiz? Oldin yechgan masalangiz yoki qo'llagan yo'llaringiz haqida eslab ko'ring.

### **Matematikadan masalalar xazinasi yoxud Internetdagi masalalar qidirish tizimlari**

Ma'lumki, keyingi paytlarda axborot kommunikatsiya tizimi juda tez sur'atlar bilan rivojlanib boroqda. Internet tizimi borgan sari olis qishloqlarni ham qamrab olmoqda. Shu kunga kelib, Internetning World-Wide-Web - Jahon axborot tarmog'ida shunchalik ko'p axborot manbalari joylashtirilganki, bu xazinadan foydalanish zamonamizning har bir fuqarosi uchun ham qarz, ham farz hisoblanadi. Jumladan, bir-biridan qiziq shunday web-sahifalar borki, ulardan ixtiyoriy fanni, jumladan matematikani o'rGANISH jarayonida samarali foydalanish mumkin. Quyida shu axborot manbalarining manzillarini berishni lozim topdik. Bu web-safifalardan siz o'zbek, rus, ingliz va boshqa tillarda matematika olamidagi yeng oxirgi yangiliklar, elektron kutubxonalar omborida saqlanayotgan ko'plab elektron darsliklar, matematikadan masofadan turib ta'lim olish kurslari va ularning materiallari, mazkur darslik safifalariga kirgan va kirmagan turli-tuman nazariy materiallar, matematikadan dars berib kelayotgan tajribali o'qituvchilarning dars ishlanmalari va metodik tavsiyalari, son-sanoqsiz masalalar, misollar va ularning yechimlari, turli davlatlarda o'tkazilayotgan matematik ko'rik tanlovlari va olimpiadalar to'g'risidagi ma'lumotlar va ularda taqdim etilgan masalalar hamda ularning yechimlari, qiziqarli matematik masalalar va ularning yechimlari bilan tanishishingiz mumkin.

- ✓ <http://www.edu.uz> - Xalq ta'limi vazirligining axborot ta'lim sayti (o'zbek, rus va ingliz tillarida),
- ✓ <http://www.uzedu.uz> - Xalq ta'limi vazirligining axborot ta'lim portalı (o'zbek, rus va ingliz tillarida),





- ✓ <http://www.eduportal.uz> - Multimedia markazi axborot ta'lif portali (o'zbek, rus va ingliz tillarida),
- ✓ <http://www.pedagog.uz> - malaka oshirish muassasalari sayti (o'zbek va rus tillarida),
- ✓ <http://www.cde.sakha.ru> - Masofadan turib o'qitish sayti (rus tilida),
- ✓ <http://www.iro.sakha.ru> - Ta'limi rivojlantirish instituti sayti (rus tilida),
- ✓ <http://www.school.edu.ru> - Umumta'lif portali (rus tilida),
- ✓ <http://www.alledu.ru> - "Internetdan ta'lif" portali (rus tilida),
- ✓ <http://www.rostest.runnet.ru> - Test olish markazi serveri (rus tilida),
- ✓ <http://www.allbest.ru> - Internet resurslari electron kutubxonasi (rus tilida),
- ✓ <http://matematica.mgdtd.ru/> - Matematikadan va informatikadan sirtqi tanlov (rus tilida),
- ✓ <http://www.mathtype.narod.ru/> - Online-darsliklar (rus tilida),
- ✓ <http://mschool.kubsu.ru/> - Elektron qo'llanmalar kutubxonasi. Sirtqi matematik olimpiadalar,
- ✓ <http://matematika.agava.ru/> - Matematikadan 2000 dan ortiq masalalar (rus tilida),
- ✓ <http://mat-game.narod.ru/> - Matematik gimnastika. Matematik masalalar va boshqotirmalar,
- ✓ <http://mathc.chat.ru/> - Matematik kaleydoskop (rus tilida),
- ✓ <http://mathmag.spbu.ru/> - Internetdagi matematik jurnal (rus tilida),
- ✓ <http://www.matematik1.narod.ru/> - Matematikadan masalalar (rus tilida),
- ✓ <http://www.problems.ru/> Matematikadan masalalar izlash tizimi (rus tilida),
- ✓ <http://geometry.net/> - Algebra va geometriyadan o'quv materiallari (ingliz tilida),
- ✓ <http://mathproblem.narod.ru/> - Matematik to'garaklar, mакtablar va olimpiadalar (rus tilida), <http://www.pDMI.ras.ru/~olymp/> - Matematikadan olimpiada masalalari (rus tilida),
- ✓ <http://mathtest.narod.ru/> - Matematik testlar (rus tilida) (rus tilida),
- ✓ <http://www.ams.org/mathweb/> - Math on the Web – Internetda matematika (ingliz tilida),
- ✓ <http://slovo.and.ru/z-index.htm> - Masalalar to'plami,
- ✓ <http://www.sch57.msk.ru/collect/smogl.htm> - Matematika tarixiga doir sayt,
- ✓ <http://www.mccme.ru/free-books/> - Matematikadan masalalar to'plami, maruzalar, kitoblar.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ochilidiyev Hasan Bahodir ugli “Improving the Invariant and Variable Components of Molecular Physics in School through Media” International Journal of Engineering and Information Systems (IJE AIS) 2021. Page No.:95-96

<http://ijeais.org/wp-content/uploads/2021/5/abs/IJE AIS210517.html>

2. Ochilidiyev Hasan Bahodir ugli, Mahmudov Yusuf Ganiyevich. (2022). The difference between teaching molecular physics at school in russia and uzbekistan. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 237–241. Retrieved from

<https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/1242>

3. Ochilidiyev H.B, Yusupov M.G “[Improving the invariant and variable components of molecular physics in school through media](#)” "Экономика и социум" №2(81) 2021

[https://www.iupr.ru/\\_files/ugd/b06fdc\\_57f94b48bf2948ff99ab788745e2102b.pdf?index=true](https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_57f94b48bf2948ff99ab788745e2102b.pdf?index=true)





## **„SO'NGGI SABOQ“ ASARIDA MILLAT TAQDIRI**

**Ashurova Sojida Abdusamad qizi**  
**Termiz Davlat Pedagogika instituti 1-bosqich talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada „So'nggi saboq“ asari orqali inson hayotida uning qadriyatlari: tili, urf-odati, huquqi, madaniyati nechog'lik ahamiyat kasb etishi va uning tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** qadriyat, til, adabiyot, millat, ma'naviyat, mustamlaka, mustaqillik

Inson ma'naviyatining dahosi bo'lган adabiyot ne-ne iste'dodlarni ulg'aytirmadi deysiz, ana shunday so'z ustalaridan biri, fransuz xalqining buyuk yozuvchilari: Hans Kristian Andersin „Kichkina shag'zoda“, Sharl Perro „Zolushka“ kabi ijodkorlari safidan munosib o'rни олган, o'z ijodi va yo'nalishiga ega bo'lган adib Alfons Dode.

Adib qisqa umri davomida sermazmun va salmoqli ijod qildi, uning qalamiga mansub asarlar hali- hanuz katta-yu kichik tilidan birdek samimiy hikoya qilinadi. Fransuz adabiyotining sevimli yozuvchisi A. Dode millatining barcha hissiyotlari: quvonch, iztirob, shukronalik, alam va shodlik tuyg'ularini o'z asarlarida boricha tasvirlaydi. Ijodkor qalamining o'tkirligi, kichik asarda katta bir davrni yoritib berishi ham uning qay darajada iste'dodli yozuvchi ekanligini bildiradi.

Uning hayoti va ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak „Alfons Dode 1940-yil 13-mayda Fransiyaning Nim shahrida dunyoga keladi.“ [1] Yoshlik davrlari 2-jahon urushi endi tugagan yillarga to'g'ri keldi. Shu vaqtarda ko'p insonlar og'ir qiyinchiliklarni boshidan o'tkazgani kabi ularning oilasi ham bu azob-uquvvatlardan chetda qolmadni, ballki shu voqealar sababli yozuvchi asarlarida aynan yoshlik chog'idagi viqe-hodisalarini biz kitobxonlarga turli xil ranglarda hayajon bilan so'zlab berar. Adib ijodiga mansub bo'lган „Tegirmonimdan xatlar“ deb nomlangan hikoyalar to'plami va avtobiografik xarakterga ega bo'lган „Kichkintoylar“ romani fransuz xalqi qalbidan chuqur o'rни олган. Bundan tashqari „Tarasanlik tartaranning sarguzashtlari“, „Kichik froman va katta risler“, „Roza va Ninetta“ kabi bir qator romanlar muallifi hisoblanadi. Biz quyida keltiradigan asarda esa yozuvchi o'zi va xalqining boshidan kechirgan voqealarini so'zlab beradi. Biz bilamizki, Yer yuzidagi elat vakillari o'z tili, dini, urf-odati, an'analariga ega va aynan shu qadriyatlari ularni bir-biridan farqlab turadi. Taniqli adibimiz Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda „Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadigan oynai hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak, millatning ruhini yo'qotmakdir.“ [2] Shu ma'noda Alfons Dode ijodiga mansun „So'nggi saboq“ asarida fransuz xalqini o'z mustaqilligidan judo qilgach, ma'naviy



boyligi bo'lmish tili va adabiyotini ham tag-tomiri bilan yulib tashlamoqchi bo'lgan mustamlakachi davlatlarning yovuz siyosati yozuvchi tomonidan ro'y-u rost yoritiladi. Shu yovuz kuchlar xalqning ona tilini yo'q qilib, millat ruhini, an'ana-yu qadriyatlar ildiziga bolta urishmoqchi, uni o'tmisht tarixi-yu kelajagidan judo qilib, o'ziga qaram qilmoqchi bo'lishadi. Asarda fransuz xalqining ma'lum muddat Germaniya ta'sir doirasiga tushib mustamlakaga aylangan davri jarayonlari yoritiladi. Voqeliklar ketma-ketligi esa kichik maktab o'quvchisi Frans tilidan hikoya qilinadi. Asarni o'qish chog'ida har bir holat kitobxon xayolida gavdalanadi. Fransning darsga kirish o'rniqa o'rmonda sayroqi qorayaloqlarning kuylayotganini eshitishi-yu, taxta yo'nish zavodi ortidagi River o'tlog'ida nemislarning safda yurish mashg'ulotlarini bajarayotganliklarini tomosha qilishi, o'qituvchidan qo'rqib sinfxona eshigi yonida turishi-yu, keksa Xauzerning sinfxonaning oxirgi partasiga o'tirib, chetlari yirtilib ketgan eski alifboni titroq ovozda o'qishi buning barchasi yozuvchining bebahoh mehnati natijasidir.

Ushbu asar „O'sha kuni ertalab mактабга жуда ҳам кеч қолайотган эдим. Муаллимдан танбех ешишимни есласам, ўрагим орқага тортуб кетарди" - деб бoshланади. Chunki shu kuni Frans uyga berilgan vazifa, ya'ni sifatdosh qoidalarini yodlamagan edi. Shuning uchun u darsga kirmaslikni ham o'yladi, ammo keyin bu fikrining noto'g'ri ekanligini anglatdi. Bu yoshdagi bolalarda Fransda bo'lgani kabi biroz dangasalik odatlari bo'lib turishi mumkin, bu ham bolalik chog'inining bir bebosh davri. Frans darsga kechikib borganligi uchun o'qituvchidan gap eshitaman deb o'ylagan edi, ammo uning o'qituvchisi janob Amel tamoman teskarisini qildi. U Fransga qarab „Qani Frans o'g'lim kira qol, биз сенсиз дарсни бoshlamoqchi bo'lib turgan edik" -dedi. Aslida, o'sha kuni u g'ala-g'ovur ichida bildirmasdan sinfxonaga kirmoqchi bo'ldi, lekin aksiga olib bugun hamma yoq suv quygandek jim-jit edi. Bu sukunatning sababini esa u keyinchalik bilib oldi. O'qituvchining „Bolalar bugun siz bilan so'nggi bor dars o'tishimiz Berlindan Elzas va Lotaringiya maktablarida faqat nemis tili o'tilishi haqida buyruq kelgan, iltimos darsga e'tiborliroq bo'linglar"- degan shu birligina so'zi Fransga juda kuchli ta'sir qiladi. Shunda hattoki u daraxtdagi kaptarlarni ham nemischa kuylashga majbur qilish kerakdir? -deya o'ylanadi. Tarixdan bilishimiz mumkinki, Fransiya va Germaniya o'rtasidagi urush ancha vaqt davom etdi. „1870-yilda boshlangan Fransiya-Prussiya urushi 1940-yillarda ham davom etib kelmoqda edi. Oxir-oqibat bu kelishmovchilik Fransiya davlatining mag'lubiyati bilan yakunlandi va uning tarkibida bo'lgan Elzas va Lotaringiya hududlari Germaniyaga tovon sifatida qo'shib berildi." [3] Ona tilining yo'q qilinishi fransuz xalqi uchun katta judolik. Millatni tilidan mahrum qilish - bu xalqni yo'q qilish bilan barobar edi. Zero taniqli adibimiz



Ch. Aytmatov aytganidek,, Til o'z tiliga mansub xalqning milliy pasportidir."[4] Sababi uning suhbatи ham, yozuv xatlari ham, savdo aloqalari- barchasi ona tilida amalga oshadi. Mustamlaka davlatlarda esa bu kabi hodisalar o'z tilida emas, balki o'zga tilda olib boriladi. Oqibatda jamiyat a'zolari ona tilini unutishadi va o'zga bir til ularning hayotidan muhim o'rин egallaydi. Shu tariqa millat ma'naviyatining bir qismini yo'q qilishadi. Janob Amel ushbu mактабда qирқ yil davомида halol mehnat qilib ishlaydi. Unga maktabdagi har bir o'quvchi, buyum, o'simlik qadrli bo'lib qoladi, shu sababli ham bugun oxirgi bor dars o'tayotganligini o'ylab juda xafa edi. Frans berilgan vazifani yod olmagani uchun rostdan uyaldi. „ Qani edi sifatdosh qoidalarini baland ovozda tutilmasdan dona -dona qilib aytib bera olsam"- deb o'ylar edi, lekin hammasini chalkashtirib yuboradi, o'qituvchi buning uchun bolani koymaydi. „Frans o'g'lim shundoq ham jazolanganingni bilsang kerak, har safar qayoqqa ham shoshildim, ertaga yodlayman deb o'ylaysan, oqibati nima bo'lди. Biz elzasliklar doim o'qishni ortga suramiz fojiamiz ham shunda" -deya ta'kidlaydi. O'ylab qarasak, biz insonlar doim keyin o'qiymiz, o'rganib olamiz deymiz, lekin o'rganishga imkoniyat bo'lmasligi mumkinligini hech o'ylab ko'rmaymiz, Fransuz xalqi ham bu fikrning xato ekanligini, nega ertaroq ona tillarini chuqurroq o'rganishga harakat qilmaganligini afsus bilan eslashmoqda. O'sha kuni janob Amel sinf taxtasiga chiroyli qilib „Fransiya, Elzas. Fransiya, Elzas " dars so'nggida esa „Yashasin Fransiya!" -deb yozdi. U qalbiga tinchlik bermagan Vataniga bo'lgan cheksiz muhabbatini tilida ifodalay olmas edi, chunki bunga jur'ati yetmas edi, shuning uchun ham bu mehrga to'la , samimiyo so'zlarni yozuv orqaligina ifodalay oldi. Fransuz xalqini o'z tillarini vaqtida o'rgana olishmagani, vaqt borligida xohish yo'qligi, endi esa xohlasa ham bunga imkoniyatning yo'qligi qiynar edi.

Aynan mustamlakachi Germaniya davlati ham sizningcha nima uchun eng avval o'zi bosib olgan xalqni tilidan, qadriyatlardan judo qilishga harakat qilgan? Ularning ma'naviy boyligini o'ldiribgina o'zlarining boshqa maqsadlariga ham erishishi mumkin ekanligini bilar edi. Fransuz xalqining buyuk farzandi Alfons Dode ham millatining dardini o'z tildan mahrum qilinishi bilan belgilaydi.

Asardan ma'lum bo'lgani kabi har bir xalqning ona tili milliy qadriyatlarning ajralmas qismi. Dunyo mamlakatlari safidan munosib o'rин egallamoqchi bo'lsak ham ona tilimiz va adabiyotimizning boy ma'naviy xazinasi yordamidagina erisha olamiz. Hozirgi tinch kunlarimizga shukronalar aytib, bir-birimizning qadriyatlarmizni hurmat qilib, mushohada va mulohaza bilan umrguzaronlik qilish har birimizning ma'naviyatimizning nechog'lik boy va mustahkamligini ko'rsatadi. Zero, dono xalqimiz bejizga „O'zingni er bilsang, o'zgani she'r bil"[5] - deb aytishmagan. Asarning aynan





,So'nggi saboq " deb atalishining sababi ham barcha voqealar o'sha so'nggi darsda ro'y beradi. Birgina shu oxirgi dars barcha o'quvchilarning xotirasida o'chmas, salbiy taassurot qoldirdi va bir umr xulosa chiqarishga arziydigan hayotiy saboq bo'ldi. Ular shu darsda o'z qadriyatlarining qay darajada ulug'vorligini, o'qituvchilik kasbining mashaqqatlari -yu, ozod Vatan va mustaqillik deb atalmish buyuk ne'matning insonlar hayotida qanchalik ahamiyatli ekanligini tushunib yetdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova „Adabiyot" 10-sinf II qism darslik, Toshkent-2017(171- bet).
2. Abdulla Avloniy hikmatli so'zlaridan olindi.
3. „Daryo" saytidan topildi.
4. Nosir Fozilov „Noshir va Nosir so'zi" Toshkent- „O'zbekiston" -2015 (71-bet).
5. O'zbek xalq maqoli





## MINTAQADA IQTISODIY O'SISHNI RAG'BATLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALARARI.

Sharipova Zulayxo Abdirimovna.

Ma'mun Universiteti NTM "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrasи katta  
o'qituvchisi

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasi va uning mintaqalarida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish yo'llarini aniqlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Shunga qaramasdan mamlakat va uning ba'zi viloyatlarida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish jarayoniga to'siq bo'layotgan salbiy holatlar mavjud bo'lib, ularni hal qilib yechim topish bugungi kunning dolzarb masalaridan bo'lib kelmoqda.

**Kalit so'zlar:** mintaqa, YaHM (Yalpi Hududiy Mahsulot), iqtisodiy o'sish, rag'batlantirish, eksport va import.

Hududlarni rivojlantirishda sanoat ishlab chiqarishi butun dunyo bo'ylab muhim rol o'ynadi. Sanoatning o'sishi mintaqada bandlik imkoniyatlari, daromadlar darajasi va umumiyligi iqtisodiy rivojlanishga olib keladi. Mintaqaviy rivojlanishda sanoat ishlab chiqarishining ahamiyatini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi, chunki u ko'plab hududlarda iqtisodiy o'sish va rivojlanishning asosiy omili bo'lib kelgan. Sanoat ishlab chiqarishining asosiy afzalliklaridan biri bandlik imkoniyatlarini yaratishdir. Sanoat tarmoqlarining o'sishi to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ish o'rinalining yaratilishiga olib keladi, bu esa mintaqada ishsizlik darajasini pasaytirishga yordam beradi. Mintaqada sanoat ishlab chiqarishi natijasida yaratilgan bandlik imkoniyatlari faqat ishlab chiqarish sohasi bilan cheklanib qolmasdan, transport, logistika va xizmat ko'rsatish kabi turdosh tarmoqlarni ham qamrab oladi. Ushbu sohalar turli ko'nikmalar va tajribalarni talab qiladi, bu esa turli xil ish joylarini yaratilishiga, yangi bilim va ko'nikmalar egallanishiga olib keladi.

Mintaqalar rivojlanishida o`ziga xos o`rin tutuvchi moliyalashtirishning turli manbalari mavjud. Ularni quyidagi guruhlarga bo`lish mumkin: davlat budjeti mablag`lari; korxonalarining o`z mablag`lari; aholi mablag`lari; xorijiy investitsiyalar; budjetlardan tashqari fondlarning mablag`lari va hokazolar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotimiz uchun zarur mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi mintaqalari moliyalashtiriladi, xususiy moliyalashtirish kengayib, xususiy sektor rivojlangan sari davlat budjeti mablag`lari hisobiga investitsiyalash ortib boradi. Bunday hollarda bozor iqtisodiyotiga o'tib borayotgan davlatlarda, jumladan,



O`zbekistonda ham davlat budjeti tomonidan tibbiyot, fan va madaniyat, maorif va boshqa ijtimoiy sohalar loyihalari moliyalashtiriladi hamda bu maqsadga muvofiqdir. Respublikamizda korxonalar rivojlanib, moliyaviy jihatdan barqarorlashib bormoqda. Shundan kelib chiqib, korxonalarda o`z-o`zini moliyalashtirishning yangi manbalari shakllanmoqda. Korxonalarning o`z-o`zini moliyalashtirish manbalari quyidagilardan tashkil topgan: korxonaning taqsimlanmagan foydasi; amortizatsiya ajratmalari fondi; aktsiyalar chiqarish hisobiga shakllantirilgan mablag`lar; maxsus fondlar. Yuqoridagi mablag`lar manbaidan korxonalar o`z ishlab chiqarishini yo`lga qo`yish, modyerinizatsiyasi yoki texnik-texnologik jihatdan yangilanish, aylanma mablag`larini ko`paytirish uchun foydalanishi mumkin. Davlat tomonidan olib borilayotgan qo`llab-quvvatlash siyosatida korxonalar, ayniqsa, endigina ish boshlayotgan subyektlarga xorijiy investitsiya yoki boshqa turdagи kichik va o`rta korxonalarga soliq imtiyozlari berish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Korxonalar muayyan imtiyozli davr mobaynida soliq to`lovlarini amalga oshirmaydi va shu hisobdan qoladigan summalarini ham o`z ishlab chiqarishini kengaytirishga yo`naltiradi.

Mintaqada sanoat ishlab chiqarishi daromad darajasini oshirishga xizmat qilada. Ish bilan ta'minlash imkoniyatlarining yaratilishi uy xo'jaliklari daromadlarining oshishiga olib keladi, bu esa fuqarolar va oilalarning turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi. Daromad darajasining oshishi, shuningdek, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yordam beradigan iste'mol xarajatlarining oshishiga olib keladi. Sanoat ishlab chiqarishining yana bir salmoqli foydasi hududda infratuzilmani rivojlantirishdir. Sanoatning o'sishi mintaqaning umumiy aloqasini yaxshilashga yordam beradigan yo'llar, aeroportlar va portlar kabi infratuzilmani rivojlantirishni talab qiladi. Infratuzilmaning rivojlanishi nafaqat sanoatning o'sishiga yordam beradi, balki mintqa ahonisining hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Sanoat ishlab chiqarishi ham hududda malakali kadrlar yetishtirishga olib keladi. Sanoatning o'sishi bir qator ko'nigmalar va tajribalarni talab qiladi, bu esa malakali ishchi kuchining rivojlanishiga olib keladi. Malakali ishchi kuchini rivojlantirish mintaqaga yangi ishlab chiqarishlarni jalb qilishga yordam beradi, chunki kompaniyalar malakali ishchi kuchiga ega bo'lgan hududlarga sarmoya kiritish ehtimoli ko'proq.

Respublikamizda ham qimmatli qog`ozlar bozorini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Aholining bo`sh mablag`larini jamg`arish tijorat banklarida amalga oshirilmoqda va ushbu jamg`arma mablag`lari ko`proq qisqa muddatli kreditlarga yo`naltirilmoqda. O`zbekiston iqtisodiyoti mintaqalarning rivojlanishi sifat jihatdan yangi holatga - barqarorlik va iqtisodiy o'sishga o'tishning muhim sharti yuqori darajada investitsiya faolligi yuqorida kapital hosil qiladigan





investitsiyalar samaradorligi oshirilishini talab etadi. YaIMning bor-yo`g`i 1 % ga o`stirish uchun ishlab chiqarishga investitsiyalar hajmi 3 % dan kam bo`lmagan miqdorda ortishi lozim. O`zbekiston mintaqalarida iqtisodiy o`sish va tuzilmaviy qayta qurish uchun haqiqiy shart-sharoitni yaratish ham muhim masalalardan biridir. Keyingi yillarda investitsiya sohasiga umumiy transformatsiya pasayishi kuchli ta'sir qildi. Shu bilan birga, investitsiyalar YaIM dinamikasi bilan moslashgan ancha tezkor sur'atlarda qisqardi. Islohotlarning birinchi bosqichida, investitsiya sohasidagi tanglik salbiy miqdoriy o`zgarishlar asosidagi investitsiya modeli takomillashmagani sabab bo`lgan transformatsiyalarning turli jihatlari bilan ajralib turadi. Bu davrda investitsiyalarni takror ishlab chiqarish tuzilmasida salbiy siljishlar yuz berdi. asosiy fondlarni tiklash va yangilashda investitsiyalash yo`nalish ustun bo`lib keldi. Bu esa, vujudga kelgan vaziyatda moliyaviy tavakkal nuqtai nazaridan tushunarli. Ammo takror chiqarish jarayonlarining strategik rivojlanish mavqeidan qaraganda istiqbolga ega emas. Texnologik tuzilma ham faol elementar ulushning pasayishiga olib keldi.

Xulosa: Bugungi kunda mamlakatimiz mintaqalari iqtisodiyotida ijobjiy makroiqtisodiy harakatlar ko`zga tashlanmoqda. Ishlab chiqarishda muayyan siljishlar va tiklanish, investitsiya jarayoni birmuncha faollashgani kuzatilmoqda. Endilikda sanoati o`rta rivojlangan mamlakatlar yo`lidan borib, xomashyo, konversiya va harbiy sanoat majmuasi, yuqori texnologik korxonalarni bozor maqsadlariga yo`naltirish, samaradorligi yuqori bo`lgan qayta ishlash sanoatini shakllantirish bo`yicha texnologik tafovutlarni yengish singari global masalalar hal etilishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bekmurodov A.Sh., G`afurov U.V., Tuxliev B.K. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralar: O`quv q o`llanma. –T.: TDIU 2009. – 124 b.
2. Raximova M.R. Mintaqaviy iqtisodiyot: Oquv q o`llanma. T.: TDIU, 2007.
3. Ishmuxmedov A.E. va boshqalar. O`zbekiston Milliy iqtisodiyoti: Darslik. – T., 2006.
4. M.T.Asqarova, L.F.Amirov, A.A.Islomov, A.R.Yaxshimuratova. Inklyuziv iqtisodiy o`sish. Toshkent-2019.





## STUDY OF CHRONIC TOXICITY OF THE DRUG PHYTOFERON

Tashkent State Pharmaceutical Institute

Kh. O. Darmanov

e-mail: [khakim.darmanov@mail.ru](mailto:khakim.darmanov@mail.ru)

tel: +998994624052

The chronic toxicity of the tincture made from the collection "phytopheron" was studied in white rats in the experiment. The results showed that the drug is harmless to the body in amounts of 10 ml/kg and 25 ml/kg. The drug does not adversely affect peripheral blood-shaped elements, biochemical indicators and the histomorphological structure of internal organs in the amounts studied when administered for 30 days.

**Base phrases:** phytopheron, aggregate, tincture, white rat, peripheral blood, hepatocyte, enzyme, hemoglobin, erythrocyte, leukocyte, histomorphological, narcosis.

### UNTERSUCHUNG DER CHRONISCHEN TOXIZITÄT DES ARZNEIMITTELS PHYTOFERON

Die chronische Toxizität der Tinktur aus der Sammlung "Phytopheron" wurde im Experiment an weißen Ratten untersucht. Die Ergebnisse zeigten, dass das Medikament in Mengen von 10 ml/kg und 25 ml/kg für den Körper unschädlich ist. Das Arzneimittel beeinträchtigt peripherie blutförmige Elemente, biochemische Indikatoren und die histomorphologische Struktur innerer Organe in den untersuchten Mengen bei Verabreichung über 30 Tage nicht nachteilig.

**Basisphrasen:** Phytopheron, Aggregat, Tinktur, weiße Ratte, peripheres Blut, Hepatozyten, Enzym, Hämoglobin, Erythrozyten, Leukozyten, histomorphologisch, Narkose.

Synthetic drugs make up the majority of the drugs currently used in the treatment of patients in the world. Judging by the analyzes, drugs obtained by the synthetic method cause various unpleasant complications in patients. Herbal remedies are of great importance in medicine. Natural remedies have the property of selectively affecting the body. The pharmaceutical industry of our republic pays great attention to the production of medicines based on raw materials of natural medicinal plants [1]. Of the more than four and a half thousand plants found in our country, one thousand one hundred and fifty varieties are medicinal plants. It is known that tubule-leaved bullfinch (**flores Achilleae filipendulinae**), bird taron (**herba polygoni avicularis**), sweet brainstem (**radix Glycyrrhizae**), water pepper (**herba polygoni hydropiperis**) and





medicinal chamomile (**Flores Shamomillae**) plants are common in the territory of the Republic. They are used in folk medicine on a large scale in anti-inflammatory, pus-driven, accelerating blood clotting, enhancing substance metabolism, reducing blood sugar levels, and other diseases [2,3]. The creation of domestic modern medicines from them is one of the pressing issues of today (1).

**The purpose of the work:** to study in experimental animals the effect of Phytopheron tincture on chronic administration to the body - a collection of tubule-leaved bullfinch, bird taron, sweet brain root, water pepper and medicinal chamomile medicinal plants.

**Experimental method:** the experiment was carried out in 30 laboratory white rats weighing 140 – 156 g. Phytoferon tincture was administered orally for 1 month at doses of 10 ml/kg (1 ml/100 g) and 25 ml/kg (2.5 ml/100 g weight). Laboratory animals in the control group, on the other hand, were given distilled water, respectively. During the experiment, changes in the condition, weight of animals were observed [4].

To study the chronic toxicity of the drug, at the beginning of the experiment, blood tests were carried out on the 15th, 30th and 60th days after the administration of the tincture. Blood analysis was studied in a hematological analyzer (VC-3000), using colorimetric methods using serum aspartate-aminotransferase (ACAT) and alaninaminotransferase (ALAT) Raitman-Frankel, and glucose levels glucosooxidase enzyme in a biochemical analyzer (VA-88) [5]. At the end of the experiment, laboratory animals were decapitated and histomorphological tests were carried out [4]. The statistical significance of the obtained indicators was determined by calculating the probability of error (R) in the examination of the distribution norm (according to the ecstasy criterion) and the equality of general dispersions (F – Fisher criterion) by the Styudent (t) criterion, comparing the average quantitative indicators.

**Results of the experiment:** in both groups that received Phytopheron tincture, the general cases of animals control group did not differ from that of white rats. However, the drug had a positive effect on the weight of experimental animals. In particular, on the 60th day of the experiment, the amount of 10 ml/kg increased by 16.2% compared to the initial indication (before Administration of the drug) and 17.5% respectively in 25 ml/kg.

In the blood analysis, the amounts of certain shaped elements of peripheral blood ( $1 \text{ mm}^3$ ) were examined. The results obtained showed that from the 15th day of the experiment, the amount of hemoglobin in the peripheral blood under the influence of the drug phytoferon increased compared to the indicators of intactus and the control group. Given phytoferon in 10 ml/kg and 25 ml/kg, it was noted that the hemoglobin



content in the peripheral blood of white rats increased by 0.5 and 0.6 g % compared to intact indicators, and 0.8 g% respectively compared to the control group. No change in the number of erythrocytes and leukocytes in the peripheral blood was detected in the level of mathematical accuracy. On the 30th day of the experiment, the amount of hemoglobin in the blood of white rats under the influence of the drug phytoferon in both quantities and the number of erythrocytes by 0.9-1.1 g % compared to the control group indicators, as well as 0.3-0.6 mln.ga increased was observed. Almost the same situation was noted on the 60th day of the experiment. Changes in the number of leukocytes in the peripheral blood were also detected during the experiment. But these indicators did not differ from the results of the control group in the level of mathematical accuracy. In particular, the number of leukocytes in the blood was around the physiological norm during the experiment. When chronic administration of phytoferon tincture in amounts of 10 ml/kg and 25 ml/kg, it was noted that the experiment increased the weight of white rats relative to intactness indicators. But the control group did not differ in the level of mathematical accuracy from its indicators (Table 1).

**Table 1.  
Effect of phytoferon tincture on indicators of peripheral blood elements when chronically administered to white rats ( $M \pm m$ ;  $n=10$ )**

Specificatio n	Peripheral blood indications after administration of phytoferon						
	Intact	Day 15		Day 30		Day 60	
		10 ml/kg	25 ml/kg	10 ml/kg	25 ml/kg	10 ml/kg	25 ml/kg
Hemoglobin , g/%	12,1± 0, 1	<u>13,3±0,3</u> <u>5**x</u>	<u>13,3±0,3</u> <u>7*</u> <sup>x</sup>	<u>13,5±0,3</u> <u>5**x</u>	<u>13,7±0,4</u> <u>0* x</u>	<u>13,35±0,3</u> <u>9* x</u>	<u>13,5±0,3</u> <u>7</u>
		12,5±0,3 6	12,5±0,3 6	12,6±0,2 7	12,6±0,2 7	12,4±0,36	12,4±0,3 6
Erythrocytes , million/ml	6,1±0, 23	<u>6,2±0,30</u> <u>5,9±0,25</u>	<u>6,27±0,2</u> <u>7</u>	<u>6,3±0,25</u> <u>6,0±0,35</u>	<u>6,6±0,35</u> <u>6,0±0,35</u>	<u>6,4±0,20*</u> <u>x</u>	<u>6,5±0,29</u> <u>* x</u>
		5,9±0,25				5,95±0,25	5,95±0,2 5
Leukocytes, thousand/m kl	9,7±1, 9	<u>10,5±2,0</u> <u>10,5±2,1</u>	10,2±2,1 10,5±2,1	10,7±1,6 11,5±2,1	10,3±1,7 11,5±2,1	10,4±0,50 10,5±0,42	10,2±0,3 2





							$10,5 \pm 0,4$
							2

Note: experimental group results in the photo; control group results in the denominator

\* - level of reliability relative to the control group;

X-degree of reliability relative to the intact indicator

This means that phytoferon tincture, when administered chronically, also stimulates the process of blood formation in normal white rats to a certain extent. In addition phytoferon tincture in both quantities increased the separation of the forehead by 19.2 - 21.0% and 21.3 - 22.3% on the 15th and 30th days of the experiment, it was noted that the color of the forehead is clear, the pH indicator is in the norm. On the 30th day of the experiment, biochemical analyzes in the blood were examined (Table 2). Based on the results obtained, the control group of levels of Alat and Asat in the blood under the influence of phytoferon tincture did not differ at all from that of white rats. So the drug under study does not affect the activity of liver enzymes.

Table 2

**The effect of phytoferon tincture on biochemical indicators in the blood in chronic administration ( $M \pm m$ ; n=6)**

Pointers	Results		
	In the control group	In the group that took 5 ml/kg of tincture	In the group that took 10 ml/kg of tincture
ALAT mmol.ch.l	140,6±2,03	141,7±2,07	142,6±1,63
ACAT mmol.ch.l	143,0±1,87	144,5±2,56	145,1±1,57
Proteins g./l.	59,6±1,66	63,2±1,64*	64,0±1,36*
Cholesterol, mmol/l	1,72±0,01	1,76±0,041	1,75±0,067
Sugar content, mmol/l	4,85±0,41	5,36±0,65*	5,31±0,83*

**Note:** \* - level of reliability relative to the control group.

But the process of synthesis of proteins in the liver has intensified a little. In this, the amount of proteins in the blood increased by 6% and 7.8%, respectively, compared



to the control group, in the group of white rats, who received 5 ml/kg and 10 ml/kg of tincture.

At the end of the experiment, white rats were decapitated against the background of mild narcosis and histomorphological examinations of their internal vital organs were carried out. Based on histological analysis, the boundaries of the liver sections in the liver of animals in the control group are not clearly visible. The trabecular structure of hepatocytes is clearly visible, and one branch of it is surrounded by septa. The central vein of the liver is empty, the intercalary space is narrowed, the triad is well visible. Hepatocytes located in all sections of the liver are of almost the same structure, their nuclei are clearly visible.

The liver capsule of the animals that received the tincture under study was very thin, as in the trabacular control group of hepatocytes, the Triads are well visible, the process of proliferation in the hepatocytes around the triad and septa pathway, 2 nuclei were recorded in some hepatocytes.

Renal parenchyma is in a simple structure and it is made up of central brain and peripheral bark substances. The capsule is very thin, the parenchyma stroma is in a thin structure, the clublets are the same size, round or oval in shape, the petlya capillaries are thin and in an empty position. Shumlyansky-Bauman capsules are free of pathological fluids. In the cavity of the nephron ducts, protein weights of the eye progenitor, pink color were recorded.

Animals that receive phytoferon tincture have a kidney that looks like a histostructure control group. Shumlyansky-Bauman capsules in a hollow state, while in the kidneys of some animals, noticeable tumors and metachromasias are visible. Stromaniklubochk recorded a state of proliferation in fibroblasts in some of its lands etilgan.Me in the wall, the mucous, sub-mucous, muscular and serous floors look normal. The structure of the intestinal walls is also simple, lying on the muscular floor and recorded in the form of a circular floor. The mucous membrane of the intestine is full-blooded, the vorsinkae are well developed, its epithelial floor protoplasm is basophilic, the nucleus is plasmatic in appearance. on the floor of the mucosa, fat groups are assembled, which are made up of porous cytoplasmic cells with a boccal foam.

The intestinal mucosa of some of the animals that received the tincture is well preserved, the vorsinkae are made up of a plasmatic epithelium, the stroma of which is in a fine structure, the mucous membrane of the intestinal glands is partially swollen, the cell cytoplasm is vacuolated. The intestinal lymphoid apparatus is well developed. Sometimes very small volumes of tumors have been recorded on the mucous membrane.





Cardiac histostructure is normal, the heart is saturated with muscle layer - myocardial blood, cardiomyocytes are full-blooded, the core is oval. Muscle capillaries are significantly hypertrophied, vacuoles have been recorded in their cytoplasm.

Histological structure of other vital internal organs in animals in the control and experimental group it was found that Dearness appears the same.

In conclusion, the histological structures of the vital internal organs of white rats in the control and experimental group did not differ from each other. So phytoferon tincture does not adversely affect the histological structures of internal organs.

### **Conclusions.**

1. Phytoferon tincture affects peripheral blood-shaped elements when administered for 1 month in amounts of 10 ml/kg and 25 ml/kg.
2. Phytoferon tincture does not affect the activity of liver enzymes in the amounts studied when administered chronically. Accelerates the breakdown of proteins in the liver.
3. Phytoferon tincture does not affect the histological structure of internal organs when chronically administered to experimental white rats in amounts of 10 ml/kg and 25 ml/kg.

### **Bibliography:**

1. Шарипов А.Т. Разработка и стандартизация серосодержащих лекарственных средств на основе местного сырья.- Автореф. дисс. ... докт.фарм. наук. - Ташкент, 2016. - С.75
2. Холматов Ў.Х., Дўсчанов Б.О., Собиров Р.С. Абу Али ибн Сино ишлатган доривор ўсимликлар. - Урганч, 2003, - 179 б.
3. Эгамбердиева М.Н., М.Ж.Аллаева, Муллажанова М.Т. Тубулғибаргли буймадорон ва қашқарбеда ўсимлиги ва унинг экстрактини кон куюклиши жараёнига таъсири /Ibn Sino ilmiy-amaliy xalqaro jurnal. - 2005. - №3/4. - С. 84-85.
4. Руководство по экспериментальному (доклиническому) изучению новых фармакологических веществ. -Москва, 2005.- 289 с.
5. Макаров В.Г. и соавт. СПРАВОЧНИК. Физиологические, биохимические и биометрические показатели нормы экспериментальных животных. СПБ.: Изд-во «ЛЕМА», 2013. -116 с.





## O'QITUVCHILARDА KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.

Samarqand Davlat Chet Tillar tillar institute Ingliz tili nazariyasi va adabiyoti  
kafedrasи

Sh.O.Mamayoqubova

Email: [mamayoqubovashahlo@gmail.com](mailto:mamayoqubovashahlo@gmail.com)

Tel: +998937261746

**Annatatsiya.** Hozirgi rivojlanayotgan jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga javob bera oladigan, ishlab chiqarish tarmoqlarida yuzaga keladigan raqobatga bardosh bera oladigan, kutilmagan vaziyatlarga tushib qola oladigan, samarali faoliyat yurita oladigan shaxsni shakllantirish asosiy muammolardan biridir, mehnat bozorida mutaxassislarning malakasiga qo'yiladigan talablar darajasi. Keyingi maqolada pedagog kadrlar tayyorlash va ularda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda yuzaga keladigan masalalar alohida misollar orqali keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** modernizatsiyalash, kommunikativlik, kasbiy kompetentlik, kommunikatsiya, kompetentlilik, muloqot, intellektual salohiyat.

**Annotation.** One of the main problems is the formation of a person who can meet the requirements of the reforms implemented in the current developing society, who can withstand the competition arising in the production lines, who can get into unexpected situations, and who can effectively work at the level of the requirements for the qualifications of specialists in the labor market. In the following article, the issues that arise in the training of teachers and the development of professional competence in them are presented through separate examples.

**Key words:** modernization, communicativeness, professional competence, communication, competence, communication, intellectual potential.

O'qituvchilar, ayniqsa, ta'lim sohasida ro'y berayotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olib, o'rganishni, malakasini oshirishni davom ettirishi kerak. Buning uchun ular uchun o'qitish usullari va muloqot turli sohalarda yordam berishi va o'qitishi mumkin. O'z ishida chinakam mohir bo'lishni zaytegan o'qituvchi ham o'qiydilar va aalohdan o'rgandim. Mas'uliyatli, hissiy va amaliy bo'lish kabi turli fazilatlar yaxshi o'qituvchi bo'lishga yordam beradi. Dars rejalarini va darsliklari kabi o'leikaniriga o'erhansi va o'sishga qoidalar va ko'rsatmalar mavjud. Boshqa o'qituvchilar va mutaxassislarning sumamiga ega bo'lishlari ham muhim. O'qituvchilar treningning bir





qismi sifatida diagnostika, aloqa, boshqaruv va loyihani rejalashtirishning turli usullarini o'rganishlari kerak.

**Natijalar.** Og‘ir II bilan og‘rigan bemorlar orasida II belgilari paydo bo‘lish vaqtiga aniq ma’lum bo‘lgan bemorlarning eng ko‘p soni 76 (61,3%), uni o‘z vaqtida tashxislash — 84 (67,7%) va insult vaqtiga noma’lum bo‘lgan bemorlarning eng kam soni — 13 bemor (10,5%). Shu bilan birga, og‘ir ISning rivojlanishi engil, o‘rtacha va o‘rtacha ishemik insult bilan og‘rigan bemorlarga nisbatan insultni o‘z vaqtida tashxislash imkoniyatini 3,7 baravar oshirdi, ya’ni. NIHSS bo‘yicha 19 yoki undan kam ball nevrologik yetishmovchilik rivojlanishi bilan ( $p < 0,05$ ).

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ong yoki nogironlik darajasining buzilishi bilan og‘ir nevrologik nuqsonning o‘tkir rivojlanishi hatto tibbiy ma’lumotga ega bo‘lмаган odamlarda ham (xonadoshlari, bemorning qarindoshlari va boshqalar) insultdan shubhalanishga imkon beradi. "Nogiron bo‘lмаган" insult belgilarini tan olish, aksincha, tibbiyat xodimlaridan maxsus mahorat va ta’limni, shuningdek, ularning keyingi harakatlarining aniq algoritmini bilishni talab qiladi. Bunga insult diagnostikasi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni va u rivojlansa, tibbiyat xodimlarining amal qilish tartibini rivojlantirish uchun shifoxona xodimlari bilan muntazam mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali erishish mumkin. Shuningdek, davolanayotgan bemorlarning o‘zlarida va bo‘limdagи qo‘sнnilarida AI rivojlanishi mumkinligi haqida xabardorligiga alohida e’tibor qaratish lozim;



### **Adabiyotlar**

1. Averkieva, E.V. 2-toifa qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda miya ishemiyasi va miya MRI naqshidagi o‘zgarishlar / E.V. Averkieva, V.P. Vladimirova, A.V. Vorontsov [va boshqalar] // Terapevt. — 2012. — 5-son. — B.38-45. (Аверкиева, Е.В. Ишемия головного мозга и изменения картины МРТ головного мозга у больных сахарным диабетом 2 типа / Е.В. Аверкиева, В.П. Владимира, А.В. Воронцов [и др.] // Терапевт. — 2012. — №5. — С.38-45.)

2. Dedov I.I., Shestakova M.V. 1-toifa diabetes mellitus: haqiqatlar va istiqbollar. M.: Tibbiy axborot agentligi; 2016. 504 b. (Дедов И. И., Шестакова М. В. Сахарный диабет типа 1: реалии и перспективы. М.: Медицинское информационное агентство; 2016. 504 с.)

3. Kononenko I. V., Smirnova O. M., Mayorov A. Yu., Shestakova M. V. Qandli diabetning tasnifi. JSST (Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti) 2019 Nima yangiliklar? Qandli diabet. 2020; 23(4): 329–339 (Кононенко И. В., Смирнова О. М., Майоров А. Ю., Шестакова М. В. Классификация сахарного диабета. ВОЗ 2019 г. Что нового? Сахарный диабет. 2020; 23(4): 329–339.)

4. . Kosobyan E.P., Yarek-Martynova I.R., Martynov M.Yu. Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda serebrovaskulyar kasallikning rivojlanishida endotelial disfunktsiyaning roli // Qandli diabet. 2012. № 1. B. 42–48. (Кособян Е.П., Ярек-Мартынова И.Р., Мартынов М.Ю. Роль эндотелиальной дисфункции в развитии цереброваскулярного поражения у пациентов с сахарным диабетом // Сахарный диабет. 2012. № 1. С. 42–48.)





## O'ZBEKISTONDA MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISH

**Nasimova Yulduz Baxriddin qizi**

**Toshkent moliya institute Bank ishi fakulteti 3-kurs BIA-82 guruh talabasi**

**Annotatsiya:** Mutaxassislar taqdim etgan tahlillar O'zbekistonda moliya bozorining likvidligi talab darajasida emasligini ko'rsatadi. Ikkilamchi bozorning mavjud holati va aholi boshqa qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining moliya bozoridagi faoliyatini susaytirmoqda.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiyot, moliya bozori, deposit, valyuta, oldi-sotdi obyekti, birja, inkassatsiya, daromad.

Iqtisodiyotning real sektori va moliya bozoridagi uzilishlar sababli korxonalariga investitsiya mablag'larini jalb qilish uchun moliya bozorining zamonaviy vositalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelinyapti. Uy xo'jaliklarining moliya bozoriga kirib borishi orqali ularning korporativ qimmatli qog'ozlar bozoridagi salmog'ini oshirish masalasi yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Bundan tashqari, kreditlash, jamg'arma-depozit, pul o'tkazmalari, hisob-kassa amaliyoti, sug'urtalash, inkassatsiya, moliyaviy kafolatlash va valyuta oldi-sotdisi kabi moliyaviy xizmatlar ko'rsatish yurtimizda lozim darajada, yoinki, xalqaro standartlar asosida yo'lga qo'yilmagan. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar tajribasida keng qo'llaniladigan birja, lizing, reytinglash, qayta sug'urtalash, brokerlik, mulkni baholash, moliyaviy maslahat berish, moliyaviy resurslarni ishonchli boshqarish kabi xizmatlarni ko'rsatish kutilgan natijalarni bermayapti.

Moliya bozori — oldi-sotdi obyekti pul yoki pulga tenglashtirilgan qog'oz bilan bog'liq bo'lgan bozor. Bu bozorda moliya mablag'larini vaqtincha haq to'lab ishlatalish yoki ularni sotib olish yuzasidan munosabatlar olib boriladi, shuningdek, pul mablag'larini jamg'arganlardan qarzga oluvchilarga o'tishi ta'minlanadi. Orтиqcha mablag'larga ega bo'lgan xo'jalik subyektlari o'z moliyaviy resurslarini mablag'larga muhtoj subyektlarga taklif qiladi. Moliya bozori banklarda, fond birjasida va auksionlarda o'tkaziladi.

Mutaxassislar taqdim etgan tahlillar O'zbekistonda moliya bozorining likvidligi talab darajasida emasligini ko'rsatadi. Ikkilamchi bozorning mavjud holati va aholi boshqa qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining moliya bozoridagi faoliyatini susaytirmoqda.





Iqtisodiyotning real sektori va moliya bozoridagi uzilishlar sababli korxonalarga investitsiya mablag'larini jalg qilish uchun moliya bozorining zamonaviy vositalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelinyapti. Uy xo'jaliklarining moliya bozoriga kirib borishi orqali ularning korporativ qimmatli qog'ozlar bozoridagi salmog'ini oshirish masalasi yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Bundan tashqari, kreditlash, jamg'arma-depozit, pul o'tkazmalari, hisob-kassa amaliyoti, sug'urtalash, inkassatsiya, moliyaviy kafolatlash va valyuta oldi-sotdisi kabi moliyaviy xizmatlar ko'rsatish yurtimizda lozim darajada, yoinki, xalqaro standartlar asosida yo'lga qo'yilmagan. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar tajribasida keng qo'llaniladigan birja, lizing, reytinglash, qayta sug'urtalash, brokerlik, mulkni baholash, moliyaviy maslahat berish, moliyaviy resurslarni ishonchli boshqarish kabi xizmatlarni ko'rsatish kutilgan natijalarni bermayapti.

Moliyaviy bitimlar xarakteriga qarab, Moliya Bozorini turkumlashning bir necha usullari mavjud. Qaytarish tamoyili bo'yicha moliya bozori 2 ga ajraladi: qarz majburiyatları (iste'molni ko'ndiradigan pul) va kapital (mulk) bozori. Qarz majburiyatları bozorida pul vaqtincha qarz sifatida bozorga chiqadi va olingan pul shaxsiy iste'mol uchun ishlatiladi. Kapital (mulk) bozorida qo'yilgan puldan daromad olish huquqi sotiladi va sotib olinadi. Bu bozorda mablag'lar kapital sifatida ishga solinib, foya keltiradi. Shuni hisobga olgan holda kapital bozorini 2 bo'g'inga ajratish mumkin: ssuda kapitali bozori va qimmatli qog'ozlar bozori. Ssuda kapitali bozori — pul shaklidagi kapitalning foiz to'lash sharti bilan qarzga berilishidir.

Xulosa o'rnda aytish lozimki, Global iqtisodiy inqiroz sharoitida moliya bozorining ishlatilmayotgan salohiyatidan keng foydalanish orqali yuqoridagi vazifalarning amalga oshirilishi davlat byudjetiga va bank kreditlariga bo'lган yukni kamaytiradi, moliya sektorida sog'lom raqobat muhitini yaratadi, shuningdek, iqtisodiyot sub'ektlariga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlarning sifatini oshiradi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Alladustov R.D., Xo,jamurodov A.J., A.N. Xamizaev Moliya bozori va birja ishi. O'quv qo'llanma. - T.: «IQTISODIYOT», 2019. - 234 bet.
2. Shoxa'zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. /Darslik.-T.: «Fan va texnologiya», 2012.- 440 b.
3. Moliya: Darslik. T.S. Malikov, O.O. Olimjonov; / – T.: “Iqtisod-Moliya” 2019. – 800 b.



4. Машарипов, В. У., Мирвалиева, Н. Р., & Абдуллаев, У. М. (2023). Местный иммунитет и специфическая сенсибилизация к антигенам бактерий у больных тонзиллитом. *Science and Education*, 4(2), 392-400.
5. Akhmedova, N. (2022). DEFINITION OF THE CONCEPT OF "ALGORITHMIC COMPETENCE". *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 140-143.





## ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТЛАРИНИНГ ДАРОМАДЛИЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Гадоев Сўҳроб Жумаколович

Термиз давлат университети Молия кафедраси мудири  
[suhrob.gadoev.81@mail.ru](mailto:suhrob.gadoev.81@mail.ru)

Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилишнинг 2020-2025 йилларга мўлжалланган стратегиясида молия бозорида тенг рақобат шароитларини яратиш, кредитлашни фақат бозор шартлари асосида амалга ошириш, банкларнинг давлат ресурсларига қарамлигини пасайтириш, банк хизмати кўрсатиши модернизация қилиш, банкларнинг самарали инфратузилмасини яратиш ва фаолиятини автоматлаштириш, шунингдек, банклар фаолиятига хос бўлмаган функцияларни босқичма-босқич бекор қилиш орқали банк тизимининг самарадорлигини оширишнинг устувор йўналишлари сифатида белгиланган<sup>1</sup>.

Е.Литвиновнинг фикрига кўра, тижорат банклари томонидан чакана кредитлар бўйича фоиз тўловларини ундиришнинг аннуитет усулини қўлланилиши жисмоний шахсларнинг кредит бўйича тўлов юкини ошишига олиб келади. Шу сабабли, кредит олувчи жисмоний шахсларга кредит бўйича тўлов усулларини (табақалашган ёки аннуитет) танлаш имконини берилиши фоиз ставкаларининг рағбатлантирувчанлик мазмунини кучайтириш имконини беради<sup>2</sup>.

Ўз навбатида, кредитларнинг даромадлилигига баҳо беришда қуйидаги икки кўрсаткичдан кенг фойдаланилади:


1. Бир бирлик кредитга тўғри келадиган даромад даражаси.
2. Кредитлардан олинган фоизли даромадларнинг фоизли даромадларнинг умумий ҳажмидаги салмоғи.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сонли Фармони. 2020 - 2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида//Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.05.2020 й., 06/20/5992/0581-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.10.2021 й., 06/21/6325/0972-сон; 30.12.2021 й., 06/21/42/1224-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон; 10.06.2022 й., 06/22/152/0507-сон; 27.04.2023 й., 06/23/62/0232-сон.

<sup>2</sup> Литвинов Е.О. Кредитное бремя населения России: вопросы теории и методологии. Монография. – Волгоград, 2012. – С. 14.



Шуниси аҳамиятлики, кредитлардан олинган фоизли даромадларнинг фоизли даромадларнинг умумий ҳажмидаги салмоғи кредитларнинг брутто активлар ҳажмидаги салмоғига мутаносиб бўлиши керак.



**1-расм. Дойчебанкда ва Парибас банкда 1 евро кредитга тўғри келадиган даромад даражаси, фоизда<sup>3</sup>**

1-расмда келтирилган маълумотлар кўрсатадики, Дойчебанкда 1 еврода кредитга тўғри келадиган даромад даражаси 2017-2019 йилларда ўсиш тенденциясига эга бўлган. Бу эса, банкнинг кредитлаш амалиётининг самарадорлигини таъминлаш нуқтаи-назаридан ижобий ҳолат ҳисобланади. Бироқ, мазкур кўрсаткич 2019-2021 йилларда пасайиш тенденциясига эга бўлган.

1-расмда келтирилган маълумотлар кўрсатадики, Парибас банкда 1 еврода кредитга тўғри келадиган даромад даражаси 2017-2019 йилларда ўсиш тенденциясига эга бўлган. Бу эса, банкнинг кредитлаш амалиётининг самарадорлигини таъминлаш нуқтаи-назаридан ижобий ҳолат ҳисобланади. Аммо, ушбу кўрсаткич 2019-2021 йилларда пасайиш тенденциясига эга бўлган.

Кўйидаги жадвал маълумотлари орқали Алоқабанк кредитларининг даромадлилигига баҳо берамиз.

### 3-жадвал

#### **Алоқабанк кредитларининг даромадлилигини тавсифловчи кўрсаткичлар<sup>4</sup>**

Кўрсаткичлар	2016 й.	2017 й.	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.	2022 й.
Кредитлар, млрд. сўм	1094	1626	4743	5592	5696	7653	9161

<sup>3</sup> Расм муаллиф томонидан Дойчебанк ва Парибас банкнинг 2017-2021 йиллар якуни бўйича эълон қилинган йиллик ҳисоботлари маълумотлари асосида тузилган.

<sup>4</sup> Жадвал муаллиф томонидан Алоқабанкнинг йиллик ҳисоботлари маълумотлари асосида тузилган.



Кредитлардан олинган фоизли даромадлар, млрд. сўм	138	169	473	827	809	923	1350
1 сўмлик кредитга тўғри келадиган даромад даражаси, %	12,6	10,4	10,0	14,8	14,2	12,1	14,7

З-жадвал маълумотларидан кўринадики, Алоқабанк кредитларининг микдори 2016-2022 йилларда ўсиш тенденсиясига эга бўлган.

З-жадвал маълумотларидан кўринадики, Алоқабанкнинг кредитлардан олган фоизли даромадлар микдори 2016-2019 йилларда ўсиш тенденсиясига эга бўлган. Бу эса, банкнинг кредитлаш амалиётини такомиллаштириш нуқтаи назардан ижобий ҳолат ҳисобланади. Лекин, 2019-2021 йилларда Алоқабанк кредитларининг даромадлилик микдори пасайиш тенденсиясига эга бўлган. Бу эса, банкнинг кредитлаш амалиётини такомиллаштириш нуқтаи назардан салбий ҳолат ҳисобланади.

З-жадвал маълумотларидан кўринадики, Алоқабанк кредитларининг даромадлилик даражаси 2016-2018 йилларда пасайиш тенденсиясига эга бўлган. Бу эса, банкнинг кредитлаш амалиётини такомиллаштириш нуқтаи назардан салбий ҳолат ҳисобланади. Лекин, ушбу кўрсаткич 2022 йилда 2016 йилга нисбатан сезиларли даражада ошган.

Таҳлил натижалари кўрсатдики, Дойчебанкда ва Парибас банкда 2017-2021 йилларда кредитларнинг даромадлилик даражаси барқарор бўлган. Таҳлил обьекти бўлган Алоқабанкда 2016-2022 йилларда кредитларнинг даромадлилик даражаси беқарор бўлган. Жумладан, кредитларнинг даромадлилик даражаси 2022 йиолда 2016 йилга нисбатан 2,1 фоизли пунктга пасайган.

### Адабиётлар

- Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сонли Фармони. 2020 - 2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида//Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.05.2020 й., 06/20/5992/0581-сон;





Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.10.2021 й., 06/21/6325/0972-сон; 30.12.2021 й., 06/21/42/1224-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон; 10.06.2022 й., 06/22/152/0507-сон; 27.04.2023 й., 06/23/62/0232-сон.

2. Литвинов Е.О. Кредитное бремя населения России: вопросы теории и методологии. Монография. – Волгоград, 2012. – С. 14.
3. BNP Paribas. Concolidated Balance Sheet. Annual Reports 2017, 2018, 2019, 2020, 2021. [www.bnpparibas.com](http://www.bnpparibas.com)
4. Алоқабанк. Тижорат банкининг баланс ҳисоботлари. 2016, 2017, 2018, 2019, 2020, 2021, 2022. [www.aloqabank.uz](http://www.aloqabank.uz)





**O`QUV MASHG`ULOT GURUHIDA SHUG`ILLANUVCHI BOSQON  
ULOQTIRUVCHILAR, ULOQTIRISH VAQTIDA UCH VA TO`RT  
BURILISHDAGI NATIJASI VA ULARNING O`ZGARISHI.**

O`ZDJTSU O`qituvchi

**F.Ch.Ziyayev**

**АННОТАЦИЯ.**

Maqlada bosqon uloqtiruvchi sportchilarni uloqtirish vaqtidagi uch va to`rt burilishda harakatining fazoviy-vaqtinchalik tuzilishidagi o`zgarishlar orqali undagi uloqtirish vaqtidagi kuzatilayotgan kamchilliklarni ko`rish, uni o`rganish orqali undagi kamchilliklarga chora topish va bartaraf etish yo`llari orqali bosqon uloqtirish texnikasini o`rgatish samaradorligi ko`rsatilgan.

**Kalit so`zlar:** bosqon, tezlik, snaryad, optimal, aylanish tekisligi, tahlil, aylanish tezligi, kuch, ampletuda.

**АННОТАЦИЯ.**

В статье читаем о технике выполнения метательного броска, через изменения пространственно-временной структуры движения спортсменов-метателей в три и четыре оборота при выполнении броска, видеть наблюдаемые недостатки при выполнении броска, находить пути решения недостатков и устранения их путем его изучения Показана эффективность обучения.

**Ключевые слова:** атака, скорость, снаряд, оптимум, плоскость вращения, анализ, скорость вращения, усилие, амплитуда.

**ANNOTATION.**

In the article we read about the technique of performing a throwing throw, through changes in the spatio-temporal structure of the movement of athletes-throwers in three and four turns when performing a throw, to see the observed shortcomings when performing a throw, to find ways to solve shortcomings and eliminate them by studying it. The effectiveness of training is shown.

**Keywords:** attack, speed, projectile, optimum, plane of rotation, analysis, rotation speed, force, amplitude.

Bosqon uloqtiruvchilarning texnik mahoratini shakllantirish va takomillashtirish jarayonini boshqarish sportni takomillashtirishning barcha bosqichlarida dolzarbdir. O`quv mashg`ulot guruhi bosqichlarida bosqon uloqtirish texnikasini o`zlashtirishning poydevori qo'yiladi, bu esa o`z navbatida **motorli** harakatlarning bajarilishining individual xususiyatlarini hisobga oladi. Kelgusida malakani shakllantirishda yakuniy





natijaning yaxshilanishiga olib kelishi kerak bo'lgan harakatlar tizimining texnik tuzilishini istiqbolli rivojlantirishga qaratilgan yo'llarni izlab toppish kerak. Texnik tayyorgarlikni takomillashtirish bo'yicha taklif qilingan yondashuv bu jarayonni optimallashtirish va ratsionalizatsiyalashga qaratilgan bo'lib, ularning o'zgaruvchanligi va uloqtirish masofasiga ta'sir darajasi nuqtai nazaridan sport va texnik mahoratni tavsiflovchi ko'rsatkichlar kombinatsiyasidan ustuvor foydalanishga asoslangan. Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun malakali sportchilar uch va to`rtinchiburilishdan turli xil uloqtirish usullarini qo'llagan urinishlarining biomexanik tahlili o'tkazildi. Ishlatilgan **qobiqlar** - standart, yyengil va og'irligi. Texnikaning kinematik parametrlari ko'rib chiqilgan harakatlar qonunlarini aks ettirgan holda o'rganildi.

Burilishlarning vaqtinchalik tuzilishidagi o'zgarishlar Burilish vaqtining o'rtacha ko'rsatkichlarini tahlil qilish vaqtinchalik ritm haqidagi mayjud ma'lumotlarni yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish. Quyidagi bir qator qoidalar aniqlandi. Aniqlanishicha, har xil og'irlikdagi bosqonlarni uch hamda to`rtinchiburilishdan uloqtirish vaqtida aylanish fazalarining vaqt oxirgi burilishgacha qisqargan bo`ladi. Buning sababi shundaki, tezlik finalda oldingi tezlik fazasiga qaraganda uzunroq yo'l bo'ylab boshqariladi, ya'ni. oxirgi burilishda qayta tiklangan oyoq, bosqonning finalga qo'yilishidan oldinroq olib tashlanadi. Aniqlanishicha, oxirgi burilish bosqichlarining final vaqtleri, har xil og'irlikdagi bosqonlarni uch burilishdan uloqtirish, soni bo'yicha to`rtinchiburilishdan uloqtirish vaqtiga o'xshashdir. Aniqlanishicha, birinchi burilishning ikki tayanch fazasining to`rtinchichi burilishdan uloqtirish vaqt uchinchi burilishdan ko'ra ko'proq. Buning sababi shundaki, to`rtinchiburilishdan uloqtirish vaqtida harakatning boshlanishi uchdan ko'ra o'lchovli va kengroq amplituda amalga oshiriladi. Fazalar vaqtining o'zgarishi ko'rsatkichlarini o'rganish ularning qiymatlari pasayishida notekislik borligini aniqladi. Shunday qilib, og'irligi bo'yicha o'rganilgan barcha bosqonlar uchinchi burilishdan tashlanganida, ular 1- va 2-burilishlar orasida 2- va 3- davralarga qaraganda ancha katta bo'ladi. Bu notekislik to`rtinchiburilishdan kiyin uloqtirish vaqtida ham kuzatiladi, bu yerda 1-va 2-, shuningdek 2 -chi va 3 -chi burilishlar orasidagi vaqt o'zgarishi 3 - va 4 - burilishlarga qaraganda ancha faol bo'ladi. Bunday holda, oxirgi burilishning final bosqichida, ham uchinchi, ham to`rtinchiburilish bilan, vaqtini qisqartirishning ma'lum bir optimal chizig'i paydo bo'ladi, u 0,250 - 0,280 s ichida o'zgarib turadi. aylanish fazasining ma'lum bir aylanish davri mutlaq ma'naylanisha ham kamroq bo'ladi. Bizning fikrimizcha, bu faktning sababi, oxirgi bosqichda aylanish fazasi vaqtining yana kamayishi mantiqsizdir, chunki keyin qayta tiklangan oyoq mushaklarining ish rejimining o'zgarishi, uni qaytarib, tayanchga qo'yganda, kerakli darajada bo'la



olmaydi. Aylanish bosqichlarida asosiy ishchi mushak guruhlari ularning keyingi faol qisqarishiga tayyorgarlik ko'rish uchun zarur hisoblanadi. Yuqoridagi kuzatuvlarning barchasi vaqtinchalik harakat ko'rsatkichlarining tashqi tuzilishiga taalluqli edi. Keyinchalik, vaqt omillari va bosqon uloqtirishning natijasi o'rtasidagi bog'liqlik o'lchovini aniqlash kerak edi. Olingan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, o'rganilayotgan parametrlar o'rtasida ma'lum bog'liqlik bor, lekin u ekvivalent emas. Aylanish fazalarining bajarilish vaqt bilan standart tezliknini uch va to`rtinchi burilishdan uloqtirish natijasi o'rtasida sezilarli bog'liqlik bor. Bu kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, aylanish fazalarining vaqt standart bosqonni uloqtirish texnikasining muhim omillaridan biridir.

Uch va to`rtinchi burilishdan yengil va og'ir vaznli bosqonlar uloqtirilganda, o'rganilgan ulanishning yuqori darajasi qayd etiladi. Bu vaqtinchalik omillarning ahamiyati haqidagi yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, tezlik-og'irliklarni uloqtirish vaqtida aylanish va aylanish fazalariga o'rtacha va kuchli ulanish darajasi xosdir. O'rganilgan ko'rsatkichlarning natija bilan bunday ko'payishi - bu harakatning vaqtinchalik tuzilishini takomillashtirishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan muhim qoida. Ko'rib chiqilgan texnika ko'rsatkichlarining burilish natijasi bilan o'zaro bog'liqligini o'lhash shuni ko'rsatdiki, aylanish bosqichlarida har xil og'irlikdagi bosqonlarni uch va to`rtinchi burilishdan uloqtirish vaqtida, bu bog'liqlik boshida va oxirida aniqroq namoyon bo'ladi. o'rtaqa qaraganda harakat. Bu kuzatish harakatning ikkita komponentining muhim ahamiyatini tasdiqlaydi - birinchi burilishning oxirgi bosqichini yakunlash uchun zarur bo'lgan vaqt va final bosqichiga tayyorgarlik ko'rish uchun zarur bo'lgan vaqt hamma bosqon uloqtiruvchilarni uch va to`rtinchi burilishdan uloqtirishda oxirgi burilishlar bilan aloqani kuchaytirishga moyillik bor. Shunday qilib, standart og'irlikdagi bosqonni to`rtinchi burilishdan otganda, bu ulanish 4 -burilishda aniq qiymatga etadi. Final kuchlanishi fazasining bajarilish vaqtining natija bilan bog'liqligini o'rganish shuni ko'rsatdiki, og'ir bosqonlarni uch va to`rtinchi burilishdan uloqtirishda uning o'rtacha kattaligi bor, uch burilishdan yengil bosqonlar uloqtirilganda bu aloqa kuchliroq bo'ladi. Standart og'irlikdagi bosqon tezliklarni uch va to`rtinchi burilishdan uloqtirganingizda, ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanligini aniqlash pozitsiyasidan burilish vaqtini o'rganish shuni ko'rsatdiki, umuman uning o'zgaruvchanligi kichik tebranishlar bilan tavsiflanadi (o'zgaruvchanlik koeffitsientlari bo'lgan o'zgaruvchanlik ko'rsatkichlarining maksimal qiymatlari - 19% dan oshmaydi. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash mumkinki, uch burilishdan urilganda, bu o'zgaruvchanlik to`rtinchidan bir oz yuqoriroq bo'ladi. Shu bilan birga, o'rganilayotgan indikatorlarning o'zgaruvchanlik darajasi bilan ham o'zgaruvchanlikning ma'lum



tendentsiyalari mavjud. Shunday qilib, standart og'irlikdagi bosqonlarni uch va to`rtinchi burilishdan uloqtirish vaqtida fazalarini bajarish vaqtining o'zgaruvchanligi, asosan, fazalar vaqtidan kattaroqdir. Lekin u kamroq seziladi. aylanish bosqichlarida, uch burilishdan uloqtirishda, burilishlar uchun vaqt ko'satkichlarining o'zgaruvchanlik darajasi nisbatan o'zgarmas bo'lib qoladi. Bu barcha tekshirilgan og'irlikdagi bosqonni uloqtirish vaqtida qayd etiladi. aylanish bosqichlarida, to`rtinchi burilishdan uloqtirish vaqtida, burilishlarning o'zgaruvchanlik nisbati biroz yuqoriq bo'ladi. Shunday qilib, standart bosqonni uloqtirishda, aylanish fazalarining navbatdagi burilish vaqtining o'zgarishi notejisligi qayd etiladi. Bu yerda, vaqtinchalik ko'satkichlar, 1 -burilishda biroz kattaroq o'zgaruvchanlikka ega bo'lib, asta -sekin va bir tekisda oxirgi turg'unlikka qadar barqarorlashadi. Uloqtiruvchilarda ham uch, ham to`rtinchi burilishdan, birinchi burilishda yuqori o'zgaruvchanlik darajasi mavjud. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, og'irligi bo'yicha o'rganilgan barcha bosqonlarni to`rtinchi burilishdan uloqtirishda bajarilish vaqtining o'zgarishi 8.9% nisbatan o'zgarmas bo'lib qoladi va uch burilishdan uloqtirishda o'zgarishiga qarab o'zgaradi. Bu kuzatish shuni ko'rsatadiki, to`rtinchi burilishdan uloqtirish vaqtida uch burilishdan farqli o'laroq, snaryadning og'irligidan ozgina o'zgaradi.

Final bosqichida, oxirgi burilishga nisbatan vaqtning o'zgaruvchanligi standart bosqonni uloqtirishda barqarorlashadi va yengil va og'ir bosqonni uloqtirishda biroz oshadi. final vaqtining bunday o'zgaruvchanligini snaryadning juda erta yoki kech chiqishi tufayli uloqtiruvchilarning harakatida yuzaga kelgan xatolar bilan izohlash mumkin. Fazalarini bajarilishining vaqtinchalik indekslarining bog'liqligini o'rganish, uloqtirishlarning ritmik tuzilishiga ta'sir etuvchi ma'lum birikmalar mavjudligini ko'rsatdi. U o'z yo'nalishi bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni. oldingi fazalar vaqtining ortishi yoki kamayishi bilan, keyingilari ham shunga mos ravishda o'zgaradi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu ulanish uchta va to`rtinchi burilishdan standart bosqonni uloqtirishda aniq ko'rindi. Buning sababi shundaki, standart bosqonni uloqtirishda vaqtinchalik ritm ancha barqaror va izchil bo'ladi, Tahlillardan ko'riniib turibdiki, Ushbu bosqichning boshqalar bilan bog'liqligini hisobga olsak, biz barcha uloqtiruvchilar uloqtirishning keyingi jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun harakatning boshida individual ravishda optimal vaqtini topishi zarur degan xulosaga kelishimiz mumkin. final harakatining bajarilish vaqtি va nostandart og'irlikdagi bosqonni uloqtirish vaqtida boshqa uloqtirish bosqichlari o'rtasidagi bog'liqlik bir xil emas. Yengil bosqonni uch va to`rtinchi burilishdan uloqtirganda, bu kuzatish shuni ko'rsatadiki, vaqtinchalik munosabatlardagi harakatning ritmik tuzilishi yengil bosqonni uloqtirishda ancha anqlikni talab qiladi.





Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, bosqon uloqtirish texnikasini takomillashtirishda nostandard tezliklardan foydalanib, vaqtinchalik harakat ritmini faol ravishda tuzatish mumkin.

### **АДАБИЁТЛАР**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 мартдаги ПФ-5368-сонли фармони —Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги Фармони. (Халқ Сўзи. 2018 йил 5- март.)
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ 5924-сонли фармони —Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисидағи. Фармони (Халқ сўзи 2020 йил 24-январ).
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ 3031-сон қарори —Жисмоний тарбия ва спортни янада ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисидаги (Халқ сўзи 3 июн 2017 йил)
4. Soliev I.R, Khaydrov B.SH, Mirzatillayev I.I, Khujamkeldiyev G.S, Ziyayev F.CH. Functional training level of runners student-athletes sprinters. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24,Issue 05,2020, <http://www.psychosocial.com/article/PR201878/17061/> 46-50 бетлар.
5. Солиев И. Р. Юқори малакали узоқ масофага югурувчи спортчи қизларни тайёргарлик машғулотлари ва мусобақа жараёнининг қиёсий таҳлили. //ЎзМУ ХАБАРЛАРИ. Тошкент. 2018 йил №1/1 2018й. 171-174 бетлар.
6. Азимов И., Собитов Ф. Спорт физиологияси. –Т. 1993 йил. 89-93 бетлар.
7. Керимов Ф.А., Умаров М.Н. Спортда прогнозлаштириш ва моделлаштириш. - Т.: ЎзДЖТИ, 2005йил. 279 бет.
8. Олимов М.С., Солиев И.Р., Ҳайдаров Б.Ш. Спорт педагогик маҳоратини ошириш. – 2017 йил 245 бетлар
9. Озолин Н.Г. —Легкая атлетика 1971 йил 576-600 бетлар





## Chjan Syan sayohatlari tarixi

### O'roqova Dilnoza Ilhom qizi

Qarshi Davlat Universiteti Tarix fakultet 1-bosqich talabasi

[dilnozaoroqava722@gmail.com](mailto:dilnozaoroqava722@gmail.com)

Tel: +998938388482

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qadimdan o'zining qulay geografik joylashuvi, unumdar, serhosil yerlari bilan mashhur bo'lgan O'rta Osiyo hududiga tashrif buyurgan Chjan Syan, yurtimiz tarixiga oid qimmatli ma'lumotlari va shu bilan birga Xitoy uchun qilgan ishlari maqolada yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Xitoy, Chjan Syan, Davan, Xan, Dasya, Shendu, Shiji, Yansay, Usun, Kangyuy, Buyuk ipak yo'li, Sima Syan, U-Di, Buxoro.

**Абстрактный.** В этой статье Чжан Сян, посетивший Центральноазиатский регион, давно интересовался его выгодным географическим положением, плодородными землями, в статье освещаются ценные сведения об истории нашей страны и в то же время о том, что он сделал для Китая.

**Ключевые слова:** Китай, Чжан Сян, Давань, Хань, Дася, Шенду, Шицзи, Яньсай, Усунь, Каньюй, Великий шелковый путь, Сыма Сян, У-Ди, Бухара.

**Abstract.** In this article, Zhang Xiang, who visited the region of Central Asia, has long been known for its convenient geographical location, fertile lands, valuable information about the history of our country and at the same time what he did for China are covered in the article.

**Key words:** China, Zhang Xiang, Dawan, Han, Dasya, Shendu, Shiji, Yansai, Usun, Kangyu, Great Silk Road, Sima Xiang, Wu-Di, Bukhara.

Mil.av. 138 yilda Xitoy imperatori Vu Di o'z o'g'li Chjan Syanni davlat xavfsizligiga daxl qilayotgan xunlarga qarshi ittifoqchi topish uchun elchi qilib Farg'ona vodiysiga jo'natadi. Yo'lida u hunnlar qo'liga asir tushadi va u erda 10 yil davomida yashashga majbur bo'ladi. U tutqunlikdan qochishga muyassar bo'ladi, hamda Tyan-Shanning baland dovonlaridan o'tib, Issiq ko`lga, so'ngra Norin daryosi bo`lab Farg'ona vodiysiga etib kelishga musharraf bo`ladi.[1] Yana bir manbada esa Chjan Syan haqida shunday deyilgan Xitoyning Xan sulolasi ham hunnularga qarshi kurash olib bormoqda edi. Chjan Syan g'arb safarida unga hun yo'lboshlovchisi Tani Xunuganfuga hamrohik qilgan. Biroq yo'lida u hunnular tomonidan qo'lga olinib ularning hukmdori huzuriga keltirilgan. Chjan Syanni hunnu qizga uylantirganlar, undan bir o'g'il farzand kurgan. Lekin qulay fursat kelishi bilan u hamrohlari bilan asirlikdan qochib, sayohatini davom ettirgan. U qadimgi Fargona – Davanga kelgan.[2]



Chjan Syan avval Farg'ona viloyatida Tarim havzasining g'arbida joylashgan Davanga tashrif buyurdi. Bu yerdagi tulporlar juda mashhur bo'lgan. Chjan Syanning ta'kidlashicha, Davan Xan imperiyasi poytaxtidan to'g'ridan-to'g'ri g'arbda emas, balki shimoli-g'arbiy tomonda joylashgan. Uning ma'lumotlariga ko'ra, masofa va yo'nalishlar quyidagicha berilgan:

## Chan-andan Davan (Farg'ona) gacha g'arbda 10 000 li

## Chan-andan Yanszegacha 5000 li

Davandan Kangju shimoliga yoki shimoli-g'arbiy tomonigacha 2000 li


## Davandan Usun davlati shimoli-sharqigacha 2000 li

## Janubi-g'arbda Davandan Dasya (Yunon-Baqtriya) gacha 2000 li

Davandan g'arbda dayuechjigacha 2000-3000 li

G'arbda dayuechjidan Ansigacha bir necha ming li

Dasya shahridan Shendu (Hindiston) bo'ylab janubi-sharqda bir necha ming li bo'lgan.



Biroq, yuqoridagi xaritaga ko‘ra, Chjan Syanning Davan va dayuechji davlatlari o‘rtasidagi 2000-3000 li masofa haqidagi ma'lumotlari mantiqan to'g'ri kelmasligi va bo‘rtirilgan deb xulosaga kelishimizga imkon beradi.[3-181]

Chjan Syan (miloddan avvalgi taxminan 103) xitoylik diplomat va sayyoh. Miloddan avvalgi 115 yil elchilarga bosh bo'lib Xitoy chegaralaridan g'arbdagi ko'chmanchi usun qabilasi hukmdori (gunmo) huzuriga jo'natilgan. Chjan Syan uni



Xitoy bilan ittifoq tuzishga ko'ndirgan. Chjan Syan tomonidan Xitoydan O'rta Osiyoga bosib o'tilgan yo'l keyinchalik Yevropada Buyuk ipak yo'li nomini olgan. G'arbiy o'lkalar – O'rta Osiyo va Sharqiy Turkiston Chjan Syan sayohatigacha xitoyliklarga noma'lum bo'lib kelgan. Xitoyning G'arbiy o'lka bilan diplomatik aloqalar o'rnatishiga asosiy sabab miloddan avvalgi I-asrning I-yarmida hunnular bilan yuyechjilar (toxarlar) o'rtasidagi urush bo'lgan. Bu urushda yuyechjilar yengilib, ularning aksari kismi hozirgi Gansu viloyatidan Yettisuvga ko'chgan, biroq bu yerda ham hunnular ularga tinchlik bermay quvg'in qilganlar. Ular O'rta Osiyoning janubiga, Baqtriyaga ketishga majbur bo'lishgan, u yerda Yunon-Baqtriya podsholigi vayron etishda boshqa qabilalar bilan ishtirok etishgan. Keyinchalik yuyechjilarning avlodlari Kushon podsholigini barpo etishgan.

Davan hokimi Xitoy bilan diplomatik aloqalar o'rnatish niyati borligini aytgan. Chjan Syan Davan aholisi mashg'uloti haqida qimmatli ma'lumotlar qoddirgan. Imperator U-diga, ayniqsa, Davan tulporlari yoqib qolgan. Chjan Syan Davandan Kangyuya (qarang Qang davlati) o'tgan, so'ng janubga Daxyga (Baqtriya)ga borgan. U yerda bir yil turib orqaga qaytgan, lekin yo'lida yana hunnular qo'liga tushib qolgan. Biroq 1 yildan keyin, hunnular o'rdasidagi ichki nizolardan foydalani Xitoya qochib borishga muvaffaq bo'lgan. Uning g'arbiy o'lkalarga qilgan 1 sayohati 13 yil davom etgan. U bilan yo'lga chiqqan 100 ta hamrohidan atigi 2 kishi o'zi va yo'l boshlovchisi sog'salomat qaytib kelishgan. Xitoya qaytib kelgach, Chjan Syan imperatorga bat afsil hisobot tayyorlagan. O'z hisobotida O'rta Osiyodagi davlatlar, mulklar Davan, Usun, Kangyuy, Daxyga, Yansay, Katta Yuyechji va boshqa haqida ma'lumot keltirgan.[4]



Chjan Syan (miloddan avvalgi taxminan 103)

Chjan Syan Hindistonga Birma (hozirgi Myanma) va Assom (hozirda Hindistonning alohida shtati) hamda Osiyoning janubi-sharqidagi dengizlar orqali borgan. Sayyoh bosib o'tgan mazkur yo`nalish Xitoyni Ganga vodiysi bilan



bog`laydigan asosiy yo`lga aylangan. U orqali miloddan avvalgi II va I asrlar bo`sag`asida Xitoydan O'rta va G'arbiy Osiyo mamlakatlariga boruvchi dunyo ahamiyatiga ega bo`lgan savdo yo`li «Buyuk ipak yo`li»ning janubiy tarmog'i o'tgan. Miloddan avvalgi 118 o`rtasida Chjan Syan Tyan-Shan tog`lari orqali O'rta Osiyoga ikkinchi sayohatini muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Bu haqida Xitoylik tarixchi Sima Syan «ushbu sayohat natijasida Xitoy o`zidan shimoli-g'arbda joylashgan mamlakatlar bilan aloqa yo`llarini ochdi», deb yozgan etdi. Miloddan avvalgi I asrga oid Xitoy tarixiy xronikalarida, Sima Syan tomonidan yozilgan «Tarixiy xotiralar» (Shiji) da ko'p keltirilgan Chjan Siyan haqida. Chjan Syan bevosita Farg'onadagi Davan qadimiy xitoycha Dayuan. Miloddan avvalgi II-I asrlardagi Xitoy manbalarida Farg'ona vodiysidagi ushbu qadimiy davlat keng, obod, boy mamlakat deb ta'riflanadi. Aholisi 300 ming kishini tashkil etgan.[5-149]

Farg'onaga etib kelgach, bu yerlik hukmdorni xunlarga qarshi kurashga davat etadi. Biroq ular, faqat savdo ishida hamkorlik qilishlari mumkinligini e'tirof etadilar. Chjan Syan o`z yurtiga qaytadi va bu yerga borish uchun qulay savdo yo`llarin ko`rsatib beradi. Imperator uning xizmatlari evaziga unga «Buyuk sayohatchi» unvonini beradi. Chjan Syan Farg'onadan faqat otlarni emas balki, ularni parvarish qilish uchun as qotadigan yemi sulini ham olib ketadi. Natijada Xitoyning ko'p joylarida suli etishtirish boshlanadi. Asta sekinlik bilan Xitoy bilan savdo aloqalari yaxshilana boshlaydi. Har yo`li imperator xonadoni bu erga 5-6 marotaba savdo karvonlarini jo'natib, unda asosan ipak va zargarlik mahsulotlarini jo'natgan. O'z navbatida Farg'onadan nefrit, ot va boshqa mahsulotlarga ayribosh qilib ketishgan. Xitoydan keltirilgan mahsulotlar o`z navbatida eron orqali boshqa mamlakatlarga tarqalgan.[6-7]

Chjan Syanning sayohatidan keyin xitoyliklarning O'rta Osiyo bilan savdo aloqasi juda tez rivojlanib ketdi. Xitoy va O'rta Osiyo bilan savdo aloqasining rivojlanib ketishi esa, Xitoyda juda qimmatli geografik ma'lumotlarning to'planishga olib keldi. O'rta Osiyo haqida ko'pgina mazmunli qo'lyozmalar qoldirgan. Xitoy tarixchisi Sima Syanning so'zlariga ko'ra, Chjan Syan hamma joyda ishonchga sazovor bo'lgan va «Janubiy va Sharqiy chet elliklarning sevgisiga» sazovor bo'lgan. [7]

Chjan Syanning sayohatlari to`g`risidagi hisobotlari Sharq va G'arb mamlakatlari o`rtasida siyosiy va savdo-iqtisodiy aloqalarning Avstraliyani, Shimoliy Amerikaning g`arbiy qirg`oqlarini, Tinch, Hind va Atlantika okeanlarini tadqiq etgan va xaritaga tushirgan. Kartografiyaga kuchayishida katta rol o`ynagan «Buyuk ipak yo`li»ning dunyo ahamiyatiga molik savdo yo`liga aylanishida muhim o'rinn tutgan. Shuning uchun ham mutaxassislar xitoylik sayyohning safar hisobotini ahamiyati jihatdan Xristofor



Kolumbning Ispan qiroli xazinaboni Luis de Santaxelga «Yangi dunyo», ya'ni Amerikaning ochilishi haqida yo'llagan maktubiga qiyoslashadi.[8]

Sayohat va kashfiyotlar miloddan avvalgi XVI asrda Buyuk Xitoy tekisligida qadimgi Yin davlati mavjud edi. Yinlar birinchi bo'lib ipak qurtini ko'paytirib, ipak mato (davlatning o'ziga xos ramzi) ishlab chiqarishni boshladilar. Xitoyliklar jangovar aravani yaratish, bronza quyish texnikasini o'zlashtirish, ierogliflar, porox, qog'oz olish usulini ixtiro qilish bilan butun dunyoga mashhur bo'lishdi. Miloddan avvalgi magnit kompasni ixtiro qildi. Keyin u magnit qoshiqqa o'xshardi, u o'z o'qi atrofida mis stendda aylanib, dunyoning qismlarini belgilaydigan bo'linmalar bilan. Qoshiq ko'rsatgan yo'nalish har doim Janubiy edi. Kompas o'sha paytda shunday nomlangan: «dunyonи boshqaradigan qoshiq» deb ta'rif berilgan. Tadqiqotlarga ko'ra, Yunon-Baqtriya podsholigi inqirozidan keyin mil.avv. 128 yoki 126-yilda Baqtriyaga kelgan Xitoy sayyohi Chjan Syan, Baqtriya ko'plab kichik mustaqil mulklaridan iboratligini ta'kidlab, «Bu yerdagi deyarli har bir shahar o'z hukmdori- ga eganligi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, Xitoy manbalari G'arbiy o'lka (O'rta Osiyo va Sharqiy Turkiston) hududlarida o'zining ma'lum mustaqilligiga ega bo'lib, tashqi siyosat olib borgan 5 ta mulk haqida ma'lumotlar beradi. Davlat uyushmasining bu an'anaviy turi aftidan mil.avv. II ming yillik oxiri – I ming yillik boshlarida shakllana boshlaydi. Bu tur saylanadigan yo'lboshchilar va oqsoqollar kengashi boshqargan shunga o'xshash mulklar rivojida, Ahamoniylar davrida ham saqlanib qolgan. Antik davri yozma manbalardagi Sisimir, Xorien va Oksiart kabilarning mulklari shunga urg'u beradi». Qadimgi davlatchilikning o'tish davrlarida (mil.avv. II-I, milodiy III-IV asrlar) «Davlat»ning bu turi alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, tarixiy-madaniy viloyatlar asosida yirik mulklar (Buxoro, Kesh, Choch) ajralib turadi.[9-113]

U payt davlat ham notinch edi. Miloddan avvalgi 138 yilda Xitoy imperatori U-Di dushmanining dushmani bilan ittifoq tuzishni rejalahtirgan. O'sha kunlarda kuchli hunlar qabilalari Xitoya shimoldan tahdid qilishgan. U-Di xitoylarning xunlar dushmanlari – Yueji turk ko'chmanchi qabilasi bilan Ittifoqi dushmanni mag'lub etishga yordam beradi deb umid qilgan. Xan imperatori o'z elchisi Chjan Syanni ularga yubordi – tajribali, Jasur va bardoshli odam. 100 kishilik mulozim va mohir ovchi, yo'lboshchi va tarjimon bilan Gan-Fu Chjan Syan Longxi shahridan jo'nab ketdi. Oldinda cho'llar va tog'lar bo'ylab noma'lum yo'l bor edi, bu qiyin va xavf-xatarlarga to'la edi. Xitoylar faqat miloddan avvalgi 177 yilda Yueji xunlar tomonidan mag'lubiyatga uchraganini bilishgan, ular misli ko'rilmagan shafqatsizlik bilan Yueji hukmdorining boshidan piyola yasashgan. Chjan Syanning usun missiyasining ahamiyati juda katta edi:» Xitoy Shimoli-g'arbda joylashgan davlatlar bilan aloqalarni ochdi», u So'g'diyon, Baqtriya,





Parfiya haqida ma'lumot to'pladi.[10] Chjan Syan tomonidan Xitoy uchun ochilgan yerlarda o'n to'rtta yangi viloyat tashkil etildi, va bu Xitoyni rivojlanishiga olib keladi. Chjan Syanning eng mashhur sayohatlarini asosi faqat Buyuk ipak yo'li bo'lgan.

### XULOSA

Xulosa qilib aytkanda mazkur manbalar bizga tarixni o'rganishimizda, geografik tadqiqotlar qilishda muhim material bo'lib xizmat qiladi. Xitoy manbalarida O'rta Osiyo hududidagi shaharlar, ularning joylashuvi, aholisi va ijtimoy-madaniy hayotiga oid qaydlarni uchratamiz. O'z navbatida bunday ma'lumotlar bizga yurtimiz tarixini yanada chuqur tadqiq qilishimizda Chjan Syanning hizmati katta. Chjan Syanning sayohatlari to`g`risidagi hisobotlari Sharq va G'arb mamlakatlari o`rtasida siyosiy va savdo-iqtisodiy aloqalarning Avstraliyani, Shimoliy Amerikaning g`arbiy qirg`oqlarini, Tinch, Hind va Atlantika okeanlarini tadqiq etgan va xaritaga tushirgan. Kartografiyaga kuchayishida katta rol o`ynagan «Buyuk ipak yo'li»ning dunyo ahamiyatiga molik savdo yo'liga aylanishida muhim o'rinn tutgan. Shuning uchun ham mutaxassislar xitoylik sayyohning safar hisobotini ahamiyati jihatdan Xristofor Kolumbning «Yangi dunyo», ya'ni Amerikaning ochilishi haqida yo'llagan maktubiga qiyoslashadi.

### Adabiyotlar

- 1 古西行记选注,1987年宁夏人民出版社出版的图书.
- 2 Bai, Shouyi et al. (2003). A History of Chinese Muslim (vol2) Beijing: Zhonghua Shuju.
- 3 Л.А.Боровкова. Запад Центральной Азии во 1 в. До н.э. – VI в. Н.э.(историко- географический обзор по древнекитайским источникам). // М.: 1989. 181 с. ISBN 5-02-016459-3
- 4 Rtveladze E. V., Velikiy shyolkoviy put, T., 1999.
- 5 A.Xo'jayev. Buyuk Ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent-2007. 149 b.
- 6 Mamarahimova Bashorat Ismatovna, Buyuk ipak yo'li sivilizatsiyalararo muloqat yo'li, Toshkent-2010, 7 bet.
- 7 Звонкова Т.В. Изучение рельефа в практических целях. – М.: География, 1970. whttp://www.yuri.ru/.
- 8 <http://geografiya.uz/dunyoni-organish/394-chjan-syan.html>.
- 9 Sagdullayev A.S., O'zbekiston tarixi, I kitob, Toshkent. «Donishmand ziyosi» 2021, ISBN 978-9943-6445-3-3, 113bet.
- 10[https://sitekidru.turkopages.org/sitekid.ru/s/planeta\\_zemlya/osvoenie\\_zemli/chzhan\\_cyan\\_i\\_ego\\_puteshestvie.html](https://sitekidru.turkopages.org/sitekid.ru/s/planeta_zemlya/osvoenie_zemli/chzhan_cyan_i_ego_puteshestvie.html)





**«XXI ASRDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM  
TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR» NOMLI  
KONFERENSIYANING 1-TOM, 7-SON (31-IYUL)  
MUNDARIJA**

<b>1</b>	<b>ИССЛЕДОВАНИЕ ПОЛУЧЕНИЯ МИКРОЭЛИМЕНТСОДЕРЖАЩЕГО КОНЦЕНТРИРОВАННОГО ЖИДКОГО УДОБРЕНИЯ НРК Дурназаров Бекзод Орифжон ўғли, Турсунходжаев Дониёр Абдуқахор ўғли, Эркаев А.У</b>	<b>5-9</b>
<b>2</b>	<b>Oymomoymga xat...Abduraimova Ibrohim Odam avlodи.</b>	<b>10-19</b>
<b>3</b>	<b>USING NEW LEVEL METHODS IN SPEAKING AROUND STRANGE POSITION Bahromova Munisa Otabekovna</b>	<b>20-22</b>
<b>4</b>	<b>ANALYSING CHILDREN'S SPEAKING SKILLS BY USING PERSONAL EXPERIENCE. Bahromova Munisa Otabekovna</b>	<b>23-25</b>
<b>5</b>	<b>ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ АКТИВЛАРИНИНГ РЕНТАБЕЛЛИГИНИ ОШИРИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ Содикжон Мамадиллаевич Зиёдуллаев</b>	<b>26-33</b>
<b>6</b>	<b>ШУКУР ХОЛМИРЗАЕВ ЗУМРАДГА ОШИҚ БЎЛГАН(МИ?) Сафаров Отабек Мухаммадиевич</b>	<b>34-45</b>
<b>7</b>	<b>PRINCE OF POETS EDMUND SPENCER AND HIS LITERATURE ACTIVITY Jalolova Lobarkhon Sunnatullo kizi</b>	<b>46-52</b>
<b>8</b>	<b>ОЛИЙ АЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ЗАРУРАТИ Хайитова Ш.Д, Нормуродов С</b>	<b>53-58</b>
<b>9</b>	<b>Boshlang'ich ta'limdi maummoli o'qitish texnologiyalardan foydalanish Yusupova Sevara Davletiyar qizi</b>	<b>59-63</b>
<b>10</b>	<b>Elektron tijoratda ICO dan foydalanish Qodirova Ozoda Raxmuddin qizi, Ubaydullayeva Shohista Hidoyatillo qizi</b>	<b>64-69</b>
<b>11</b>	<b>БЎЛАЖАК ТИББИЙ ТАЪЛИМ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ Хайитова Ш.Д, Нормуродов С</b>	<b>70-75</b>
<b>12</b>	<b>Prokrastinatsiya va dangasalik psixologik muammo sifatida Ismailov. S</b>	<b>76-80</b>
<b>13</b>	<b>Пора олиш-беришда воситачилик қилиш тарихи ва ривожланиш босқичлари Хожиева Рузигул Худайбердиевна</b>	<b>81-84</b>
<b>14</b>	<b>SOVET HUKUMATINING PAXTACHILIKNI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG'LIQ SIYOSATI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY OQIBATLARI Qulboshev Sirojiddin Jumayevich</b>	<b>85-91</b>



15	<b>Matematikadan masalalar yechish bo'yicha umumiyoq ko'rsatmalar Xolmuradova Zulfizar Rustam qizi</b>	92-95
16	<b>"SO'NGGI SABOQ" ASARIDA MILLAT TAQDIRI Ashurova Sojida Abdusamat qizi</b>	96-99
17	<b>MINTAQADA IQTISODIY O'SISHNI RAG'BATLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. Sharipova Zulayxo Abdirimovna.</b>	100-102
18	<b>STUDY OF CHRONIC TOXICITY OF THE DRUG PHYTOFERON Kh. O. Darmanov</b>	103-108
19	<b>O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI. Sh.O.Mamayoqubova</b>	109-111
20	<b>SURUNKALI RINIT KASALLIGINING TURLARI VA ULARNI DAVOLASH USULLARI. Iskandarov Zuhriddin Qamariddin o'g'li, Odilnorova Mashhura Musliddin qizi, Javohir Mustanov, Normirova Nargiza Nazarovna</b>	112-114
21	<b>THE IMPORTANCE OF LITERATURE Kadirova Nargiza Arifovna, Majidova Mehrinigor Shavkat Qizi</b>	115-118
22	<b>Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlashda didaktik o'yinlardan foydalanish. Kamolova Lola Jalolovna</b>	119-124
23	<b>Methods of treatment of acute intestinal obstruction Jumanazarova Mokhinur Jumanazar kizi</b>	125-127
24	<b>II TOIFA QANDLI DIABET BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA ISHEMIK INSULTLARINI O'Z VAQTIDA KASALXONAGA YOTISHDAN OLDINGI BOSQICHDA TASHHIS QO'YISH X. R. Bobokulov, M. B. Urinov</b>	128-131
25	<b>O'ZBEKİSTONDA MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISH Nasimova Yulduz Baxriddin qizi</b>	132-134
26	<b>ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТЛАРИНИНГ ДАРОМАДЛИЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ Гадоев Сўҳроб Жумакулович</b>	135-138
27	<b>O'QUV MASHG'ULOT GURUHIDA SHUG'ILLANUVCHI BOSQON ULOQTIRUVCHILAR, ULOQTIRISH VAQTIDA UCH VA TO`RT BURILISHDAGI NATIJASI VA ULARNING O'ZGARISHI. F.Ch.Ziyayev</b>	139-143
28	<b>Chjan Syan sayohatlari tarixi O'roqova Dilnoza Ilhom qizi</b>	144-149
	<b>MUNDARIJA</b>	150-151

